Shunday ekan, agar shaharlarimizni zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo‘lsak, aholi va mehmonlarimiz uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo‘lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega. Endi mazkur masalani poytaxt misolida ko‘rib chiqsak.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilgan edi. Shuningdek, “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” uchun qabul qilingan davlat dasturida

2020-yilda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Bundan tashqari, davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini va hayot sifatining barqaror yaxshilanishini ta’minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish va “Raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan, 2020-2021 yillarda joriy etiladigan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati, “Raqamli Toshkent” kompleks dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, 2020-yilda telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha loyihalar ro‘yxati, 2021-2023 yillarda istiqbolli axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlandi. Dasturning asosiy vazifasi etib shahar xizmatlarini boshqarish, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish, yo‘l transport va kommunal infratuzilmaning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratish va keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlarida tatbiq etish belgilandi.

O‘rni kelganda qayd etish lozim, qay yerda “Raqamli iqtisodiyot” va “Elektron hukumat”ga o‘tilgan bo‘lsa, odamlarning og‘iri yengil bo‘layotgani, davlatning katta-katta sarf-xarajatlari tejalayotgani, korrupsiyaning oldi olinayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Demak, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulotning raqobatbardoshligiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasayishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi.

Shu tajribadan kelib chiqib, poytaxtni o‘ta zamonaviy makonga aylantirish, iqtisodiy va turistik salohiyatini o‘stirish maqsadida “Raqamli Toshkent” nomli yirik va ko‘p tarmoqli loyihalar ishlab chiqildi. Mazkur tizimini joriy etish, uni sinovdan o‘tkazib, boshqa hududlarga esa tayyor dasturiy ta’minotlarni yetkazib berish rejalashtirilmoqda. Masalan, elektron tibbiyot kartasi joriy etilsa, shifokorlarning qog‘oz to‘ldirishga ketadigan vaqti ancha qisqarib, aholi bilan ishlashi uchun ko‘proq imkoniyat bo‘ladi. Shu maqsadda Toshkent shahridagi 15 ta

ixtisoslashtirilgan tibbiy markaz, 11 ta ko‘p tarmoqli va 62 ta poliklinika “Yagona elektron tibbiy karta” va “Elektron poliklinika” axborot tizimiga ulanib, xususiy klinikalar bilan integratsiya qilinadi. Bunday tizim boshqa soha va tarmoqlarda ham tatbiq etiladi. Bolalar bog‘chasi, masofaviy ta’lim, shahar jamoat transportlari uchun yagona elektron chipta, qurilishni nazorat qilish, elektron tibbiyot kartasi kabi yangi dasturiy ta’minotlar ishlab chiqish va tatbiq etish bo‘yicha mazkur loyihada o‘rin olgan.

Davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida “Elektron hukumat” tizimini joriy etish, barcha davlat muassasalarini yuqori tezlikda ma’lumot uzatish tarmog‘iga ulash, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta’minlash borasida keng ishlar olib boriladi.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Bunda aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi, 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitishni tashkillashtirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot

tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi, hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari biriktirishi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitilshi rejalashtirilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mazkur loyihaning amalga oshirilishi fuqarolarimizning ijtimoiy hayotda va O‘zbekiston ravnaqiga, Toshkent rivojiga hissa qo‘shishdagi faolligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 05-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son qarori. // Lex.uz

2. Yuldashev Sh.I, Karimov M.M., “Raqamli va Axborot texnologiyalari”. Darslik. T.: O’zR JXU. 2022, 536 b.

QO‘RIQLANUVCHI OBYEKTLAR VIDEOKUZATUV VOSITALARI VIDEOAXBOROTLARINI TARMOQDA UZATISH USULLARI

Shaymatov Odil Abdukadirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu tezisda kompyuter tarmoqlari bo‘yicha videooqimlarni uzatishda UDP protokoli va taqsimlangan videokuzatuv tizimining qurilish tamoyillari hamda TCP/IP protokoli aloqa kanallarining yuklanishiga bog‘liq ravishda videoaxborotlarni uzatish tezligini sozlash tahlillari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: videooqimlar, videokuzatuv tizimi, protokollar,

kompyuter tarmoqlari, TCP/IP, videoserver, videomijoz, videokameralar, UDP.

Аннотация. В данном тезисе рассмотрен протокол UDP и принципы построения при передаче видеопотоков в компьютерных сетях в распределенной системе видеонаблюдения, а также анализ регулировки скорости передачи видеоданных в зависимости от загрузки каналов связи в протоколе TCP/IP.

Ключевые слова: видеопотоки, система видеонаблюдения, протоколы, компьютерные сети, TCP/IP, видеосервер, видеоклиент, видеокамеры, UDP.

Annotation. This thesis discusses the UDP protocol and the design principles for transmitting video streams in computer networks in a distributed video surveillance system, as well as an analysis of adjusting the video data transmission rate depending on the load of communication channels in the TCP/IP protocol.

Keywords: video streams, video surveillance system, protocols, computer networks, TCP/IP, video server, video client, video cameras, UDP.

Respublikaning barcha jabhalarida zamonaviy talablarga javob beradigan integrallashgan qo‘riqlash tizimlari keng joriy etilmoqda. Davlat tashkilotlari va muassasalari, madaniyat va sport obyektlarida, jumladan, qo‘riqlanadigan obyektlarda huquq-tartibot, jamoat xavfsizligi va mulk daxlsizligini ta’minlash maqsadida videokuzatuv tizimlari o‘rnatilmoqda.

Videokuzatuv vositalari orqali avvalo tartibbuzar yoki jinoyatchini xatti-harakatlarni isbotlashga asos bo‘ladi. Shuningdek, jinoyatchilikni sodir bo‘lgan holatlarini jamlashga, kelgusida kutilmagan turlari bilan taktik usulda kurashishga va ularni tahlil qilishga xizmat qiladi. Kuzatuv kameralari orqali qo‘riqlanuvchi obyektlarda jinoyatchilikni kamaytirish va huquqbuzarliklarni oldini olish mumkin bo‘ladi, jumladan,

-firibgarlik bilan bog‘liq jinoyatlarni kelishuv joylari - ko‘cha, madaniy xordiq chiqarish joylari, do‘konlar, jamoat joylari nazorati orqali kamaytirish;

-o‘g‘irlik jinoyati kamayishiga;

-ta’lim muassalarida yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilikning oldini olish;

-bosqinchilik jinoyatini;

-yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishga bo‘lgan huquqiy madaniyat oshirish bo‘yicha doimiy ravishda amaliyotni o‘rganib borishga xizmat qiladi.

Videokuzatuv vositalari ma’lumotlarini uzatishda raqamli tarmoqlarning rivojlanishi masofadan kuzatish va jarayonlarni boshqarish tizimlarini qurishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Hozirgi vaqtda kanallarning o‘tkazish qobiliyati nafaqat texnologik parametrlarni nazorat qilish, balki real vaqt rejimida obyektlar ustidan videonazorat qilish imkonini beradi, shuning uchun zamonaviy raqamli videokuzatuv tizimlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri videokameralardan tasvirlarni kompyuter tarmog‘i orqali uzatish imkoniyati hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Ko‘p foydalanuvchi videokuzatuv tizimining hududiy taqsimlanishi.

Bu imkoniyatdan foydalanish hududiy jihatdan taqsimlangan obyektlarda, shuningdek, bir kameradan olingan tasvirlarni bir-birlaridan sezilarli olis masofada joylashgan ishchi stansiyalarda ko‘rish kerak

bo‘ladigan ko‘p foydalanuvchili tizimlarda videokuzatuvni tashkil qilishda sezilarli iqtisodiy samara beradi.

Asosiy muammolar real vaqt rejimida videokuzatuv tizimida uzatiladigan ma’lumotlarning katta hajmi tufayli raqamli tarmoqlar bo‘yicha videosignallarni uzatish usullarida yotadi. Bunda videooqimlarni siqish va uzatish usullarini tanlash va ishlab chiqishdan tashqari, ma’lumotlar uzatish olib boriladigan tarmoq sifatiga katta e’tibor qaratish lozim [1].

Hozirgi vaqtda videokamera bilan integratsiyalangan videoserver bo‘lgan IP kameralar keng tarqaldi. Bunday kameralardan foydalanishda videomijoz ma’lumotlar oqimini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kameradan (IP oilasi protokoli orqali) yoki IP kameraning funksional imkoniyatlariga bog‘liq ravishda maxsus videoserver orqali olishi mumkin.

Ma’lumotlarni uzatish protokolini tanlashga asosiy ta’sirni masofadan videokuzatuv vazifasi ko‘rsatadi, chunki videoaxborotlar uzatiladigan trafikning eng katta qismini tashkil qiladi, shuning uchun protokolni tanlashda videokuzatuv tizimini tahlil qilish bilan cheklanamiz.

Kompyuter tarmoqlari bo‘yicha videooqimlarni uzatish standart usullari UDP protokolidan foydalanishga asoslangan. UDP protokoli yetkazib berish sifati va ma’lumotlarni uzatish to‘g‘ri tartibini kafolatlamaydi, lekin u kanallarning past o‘tkazish qobiliyatini talab qiladi va bir vaqtning o‘zida bir nechta mijozlarga (multicast) videoaxborotlarni uzatish imkonini beradi. Videoaxborotlarni uzatish kirish trafigini buferlash va uni qayta tartiblash orqali amalga oshiriladi. Yo‘qotilgan paketlar odatda qayta uzatilmaydi, buning o‘rniga yo‘qotilgan ma’lumotlarni qayta tiklash algoritmlari va ma’lumotlarni uzatish tezligini rostlash mexanizmlari qo‘llaniladi [2].

UDP bilan solishtirganda, TCP protokoli mustaqil ravishda axborot almashinuvini ta’minlaydi:

- aloqa kanalining yuklanib qolishiga qarab ma’lumotlarni uzatish tezligini tartibga solish;
- ma’lumotlarni uzatishning to‘g‘ri tartibi;
- yo‘qolgan ma’lumotlarni qayta uzatish.

UDP protokolining asosiy argumenti bir nechta mijozlarga ko‘p

manzilli videouzatishni tashkil qilish imkoniyati hisoblanadi. Uning ahamiyatini baholash uchun taqsimlangan videokuzatuv tizimlarini qurishning quyidagi asosiy holatlarini ko‘rib chiqamiz (2-rasm):



2-rasm. Taqsimlangan videokuzatuv tizimining qurilish tamoyillari.

- bitta mijoz bitta serverdan videooqimlarni qabul qiladi (2a-rasm);
- bir nechta mijozlar bitta serverdan bir xil videooqimlarni qabul qiladi (2b-rasm);
- bir nechta mijozlar bitta serverdan har xil videooqimlarni qabul qiladi (2v-rasm);
- bir nechta mijozlar har xil serverdan har xil videooqimlarni qabul qiladi (2g-rasm).

Tarmoq trafigini sezilarli kamaytirish nuqtai nazaridan ko‘p manzilli videouzatishdan foydalanish faqat tuzilma bo‘yicha videokonferensiyani tashkil etish prinsiplariga mos keladigan ikkinchi holda foydali bo‘ladi. Umumiy foydalanishdagi videokuzatuv tizimlarida uchinchi va to‘rtinchi variantlar eng keng tarqalgan, chunki mijoz - kompyuterlarda ko‘rish uchun kameralarni tanlash (serverga ulangan ko‘plab boshqa kompyuterlardan) foydalanuvchilarning istagiga bog‘liq ravishda va ehtimol, hududiy emas, balki mavzu belgisi bo‘yicha amalga oshiriladi. Shunday qilib, umumiy holda, turli xil mijozlarga yo‘naltirilgan

videooqimlar ham mazmuni, ham tezligi bo‘yicha bir-birlariga mos tushmaydi [3].

Yuqorida bayon etilganlarning barchasini e’tiborga olish bilan TCP/IP protokoliga ustunlik beriladi.

TCP/IP protokoli aloqa kanalining yuklanishiga bog‘liq ravishda ma’lumotlarni uzatish tezligini sozlashni ta’minlaydi, lekin undan videoaxborotlarni uzatish uchun foydalanishda quyidagi shartlar bajarilishi kerak.

1. Agar mijoz o‘z cheklangan hisoblash qobiliyatlari tufayli joriy vaqt rejimida qabul qilingan barcha videokadrlarni dekompressiyalash va aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, serverning kadrlarni uzatish tezligi mijoz ishlov bera oladigan kadrlar/s soni bilan cheklanishi kerak. Bunday vaziyat yuqori o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan tarmoqda bo‘lib o‘tadi. Bundan tashqari, mijozga (videokuzatuv vazifalari asosida) maksimal bo‘lishi mumkin kadrlar sonini olish kerak bo‘lmasa, server tomonidan kadrlarni uzatish tezligini cheklash kerak. Bunday holda, qaraladigan videooqimning tezligini cheklash orqali tarmoq resurslarini tejash imkoniyati ta’minlanishi kerak.

2. Agar aloqa kanali butun videooqim hajmini uzatishga imkon bermasa, serverning kadrlarni uzatish tezligini aloqa kanali uzata oladigan kadrlar/s soniga cheklash kerak. Bu shartni bajarilmasligi serverda ma’lumotlarni uzatish navbatining paydo bo‘lishiga va ortishiga olib keladi, mijoz esa bunda ma’lumotlarni ortib boradigan kechikishlar bilan oladi, videokamera oldida sodir bo‘lgan istalgan hodisa va mijozning ekranida uni aks ettirilishi momenti o‘rtasidagi vaqt bo‘yicha kechikishlar doimiy ravishda oshib boradi. Bunday vaziyat past o‘tkazish qobiliyatiga ega yoki o‘ta yuklangan tarmoqlarda bo‘lib o‘tadi. Ravshanki, joriy vaqt rejimida videokuzatuvni ta’minlash vazifasida vaqt bo‘yicha kechikishlarni kamaytirish foydasiga videooqimni ko‘rish tezligini boy berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mambetsharipov Y.R., Saidboyev B.Dj., Kamilov M.A. Videokuzatuv tizimining mijoz va server qismlari orasidagi o‘zaro ta’sirlashish algoritmlari // “Harbiy aloqa va AKT xabarlari” jurnali,

№2(10)/2022. – 44-50 b.

2. Saveliyev A.I., Vatamaniuk I.V., Ronzhin An.L. Architecture of Data Exchange with minimal Client-Server Interaction at Multipoint Video Conferencing. Ed. by S. Balandin et al. LNCS 8638. 2014. pp. 164–176.

3. Civanlar M. R., Ozkasap O., Celebi T. Peer-to-Peer Multipoint Videoconferencing on the Internet. Signal Processing: Image Communication. 2005. Vol. 20. no. 8. pp. 743−754.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КВАНТОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ИНФОРМАЦИИ

Бардиев У.А.
Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Гибридные способы ведения современных войн делают крайне важным обеспечение информационной безопасности в деятельности силовых структур вооруженных сил. На смену войне горячего типа, предусматривающей прямые военные столкновения, приходит война гибридного характера, имеющая своей основной целью развитие гражданских войн и создание управляемого информационного хаоса на территории определенного государства. Повышается и ценность информации, а степень ее защиты от преступных посягательств становится все выше, соответственно возможностей по ее получению – все больше. На сегодняшний день большая часть информации, которая передается по каналам передачи данных, шифруется с использованием криптографических систем с открытым ключом. Принцип работы данных систем заключается в использовании двух ключей. Открытый ключ используют при шифровании исходного сообщения. Он публикуется в открытом доступе. Закрытый или секретный ключ используют при расшифровке полученного сообщения.

В деятельности силовых структур вооруженных сил страны существует большое и постоянно нарастающее количество информационных ресурсов, требующих надежных методов защиты от несанкционированного доступа. Активное внедрение информационно-коммуникационных технологий в повседневной и служебно-боевой деятельность войск требует постоянного совершенствование системы обеспечение безопасности информации взаимодействующих силовых структур.

В последние годы со стороны экспертов выдвигается методы применения квантовых технологий в области обеспечения системы информационной безопасности и защиты конфиденциальной информации, передаваемой по открытым каналам связи. В настоящее время квантовая информация, квантовая информатика, квантовые каналы связи, квантовая криптография, квантовый компьютер стали основными составляющими компонентами квантовой информатики который представляет собой новую, быстро развивающуюся отрасль науки, связанное с использованием квантовых технологий для реализации принципиально новых методов инфо-телекоммуникации [4].

Одним из ключевых направлений в области обеспечения информационной безопасности и защиты информации является квантовая криптография. Экспертами квантовая криптография рассматривается как единственный метод, способный обеспечить реальную защиту системам коммуникаций, как на данный момент, так и в обозримом будущем, основанный на передаче информации квантовыми состояниями фотонов (рис. 1) [2-3, 1].



Рис. 1. Схема организации квантовой криптографии

В отличие от традиционной криптографии, которая использует математические методы, квантовая криптография работает с физикой передачи информации [6-7].

Математически было доказано, что квантовые каналы передачи данных являются самыми безопасными, что позволяет получить новый уровень защиты информации. Носителем информации, которая зашифрована с использованием законов квантовой механики, в данном случае будет квантовый объект, например, фотон. Согласно фундаментальным законам квантовой физики измерение квантового объекта или любое другое воздействие на него приводит к изменению его состояния. Из этого следует, что попытка перехватить сообщение или прослушивание канала приведет к изменению состояния фотона, что сразу же станет известно получателю. Квантовые каналы передачи данных являются основой для реализации алгоритмов квантового распределения ключей – главного направления развития квантовой криптографии. Квантовая «запутанность»[5] является фундаментальным свойством квантовой механики. Она позволяет распространять квантовую информацию на десятки тысяч километров и ограничивается только лишь тем, насколько быстро и насколько далеко составляющие «запутанной» пары смогут распространиться в пространстве [5,8].

Квантовая телепортация-передача неизвестного квантового состояния на расстояние при помощи, разделенной в пространстве и поделенной между двумя корреспондентами EPR [6]-пары и классического канала связи. Квантовая телепортация, в отличие от плотного кодирования, происходит при отсутствии квантового канала связи, т.е. без передачи кубитов [8-9].

Обычно, когда информация передается мощными лазерными импульсами в их квантовом состоянии (поляризации, фазе, времени) кодируется случайная последовательность битов. Поэтому

[5] Квантомеханическое явление, при котором квантовые состояния двух или большего объектов оказываются взаимозависимыми.

[6] EPR-Protocol-квантовый криптографический протокол, основанный на «мысленном эксперименте» Эйнштейна-Подольского-Розена и обобщенной теореме Белла.

необходимо использовать квантовые повторители, принцип которых основан на технологии квантовой телепортации.

Для реализации применения технологии квантовой телепортации с помощью атмосферной лазерной связи в системе военной связи предлагается проектировать трассу для прокладки линий связи в зависимости от конкретных условий и обстановки (рис.2).



Рис. 2. Предлагаемый канал лазерной связи

При проектировании линии связи предлагается организовать два направленных друг на друга – ЛПП (лазерный приемник – передатчик), через которые передаются данные по открытому пространству с помощью лазерного света (рис.3). Ни одна беспроводная технология передачи не может предложить такую конфиденциальность связи как лазерная. Перехватить сигнал можно, только установив сканеры-приемники непосредственно в узкий луч от передатчиков.



Рис. 3 Схема передачи информационных потоков

Реальная сложность выполнения этого требования делает перехват практически невозможным. Данный фактор является важным составляющим при обеспечении обмена информации между силовыми структурами в ходе проведение совместных мероприятий,

а также при решении кризисных ситуаций. Наличие лазерных лучей нельзя определить с помощью различных сканеров. Также используются разнообразные собственные протоколы передачи данных, что обеспечивают дополнительную конфиденциальность. Лазерные системы уже применяются для разнообразных приложений, где требуется высокая конфиденциальность передачи данных, включая и военную структуру.

Предлагаемый метод обеспечение безопасности информации в сфере военной системы связи представляет большой научный интерес по поиску решения основных задач и проблем, стоящих перед специалистами в сфере обеспечение безопасности информации.

В данной работе был проведен анализ использования квантовых технологий в области информационной безопасности в деятельности силовых структур вооружённых сил. Квантовая криптография является бурно развивающейся отраслью информационной безопасности. Опираясь на законы физики, в будущем квантовая криптография станет одним из самых надежных способов защиты информации.

Использованная литература:

1. Актаева, А.У. Инновационные технологии в системе информационной безопасности: квантовые технологии /Ж. Современные инновационные технологии и ИТ – образование / А.У. Актаева, Л. Б. Илиппбаева -2014, том 1, № 1(9), с. 320-326.

2. Леонард Сасскинд. Квантовая механика / Леонард Сасскинд, Арт Фридман, с. 45-50 http:// web.kpi.kharkov.ua –Дата обращения 5.04.2021 г.

3. Cleve R. Quantum algorithms revisited // Cleve R., Ekert A., Macchiavello C., Mosca M Phil. Trans. Royal Soc. - London, 1998, V. A454, p. 339–354.

4. Актаева, А.У. Безопасность информации: применение квантовых технологий / Ж. International Journal of Open Information Technologies / А.У Актаева, О.А. Баймуратова, Н. Г. Галиева, А.С Байкенов, -2016, № 4, с. 40 -45.

5. Валиев, К.А. Квантовые компьютеры: надежда и реальность / К.А. Валиев, А.А. Кокин - Ижевск: Регулярная и хаотическая динамика, -2001 г.

6. Амиров, Н.Х. Квант электроника ва лазер технологияси-микроэлектроникада / Н.Х. Амиров, -2020 г. http:// library.ziyonet.uz с.

7. http://tcode.tinro.ru/cryptography/src/38.pdf .

8. http://book.itep.ru/3/optic_32.htm.,

QO‘RIQLASH FAOLIYATIDA QO‘RIQLASH – YONG‘IN TIZMLARIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY VA XAVFSIZLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ISHLAB CHIQISH

Yuldashev Sardorbek Eshqobilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, kapitan
Jalolov Alisherjon Abduxomid o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv-uslubiy situatsion markazi
katta o‘qituvchi - metodist

Annotatsiya. Qo‘riqlash faoliyatida qo‘riqlash-yong‘in tizmlaridan foydalanishning asosiy va xavfsizlik tizimini takomillashtirish, qo‘riqlash-yong’in tizimlaridan foydalanishda qo‘llaniladigan meyoriy hujjatlar, qo‘riqlash faoliyatining turlari tog‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riqlash faoliyati, qonun, milliy gvardiya, qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiya, tashvish tugmasi signalizatsiyasi, qo‘riqlash qurilmasi, texnik vositalari.

Аннотация. Приводятся сведения об основах и совершенствовании системы безопасности применения охранно-пожарных систем в охранной деятельности, нормативных документах, применяемых при использовании охранно-пожарных систем, видах охранной деятельности.

Ключевые слова: охранная деятельность, закон, национальная гвардия, охранно-пожарная сигнализация, тревожная кнопка, охранное устройство, технические средства.

Abstract. Information on the basic and safety system improvement of the use of security-fire systems in security activities, normative documents used in the use of security-fire systems, types of security activities is provided.

Key words: security activity, law, national guard, security-fire alarm, panic button alarm, security device, technical means.

Bilamizki qo‘riqlash faoliyatida avtomatlashtirilgan qo‘riqlash-yong‘in tizimlaridan foydalanishda qo‘llaniladigan bir qancha meyoriy hujjatlar mavjud. Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalarini montaj qilish, ta’mirlash va ulardan texnik foydalanish ishlarida, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida, 2011-yil 14-mart, 15-B-son, O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug‘iga asosan, xodimlarni o‘qitish, ularning bilimlarini sinovdan o‘tkazish va ularga yo‘l-yo‘riq berishni tashkil etish ko‘zda tutilgan. Bunda xodimlar o‘z kasblari va ish turlari bo‘yicha belgilangan tartibda o‘qishlari, ularning bilimlarini sinovdan o‘tkazilishi va ularga yo‘l-yo‘riq berilishi ko‘rsatib o‘tilgan.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev **2021-yil 20-fevral, PQ-4997-son qaroriga** asosan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Bunga ko‘ra qo‘riqlash faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslarning hayotini va sog‘lig‘ini tajovuzlardan himoya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish;

qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo‘yish;

yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan obyektlarida nazorat-o‘tkazish va obyektning ichki rejimlarini ta’minlash. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘riqlash xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlaydi;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini qo‘riqlashni amalga oshiradi;

qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosat yuritilishini, ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni, shuningdek qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng miqyosda joriy etilishini ta’minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik bo‘linmalari ishchilari va xizmatchilarining formali kiyim-boshi va farqlovchi belgilari namunalarini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalarning namunaviy shaklini tasdiqlaydi;

saf bo‘linmalari, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlashning texnik vositalaridan foydalangan holda qo‘riqlash xizmatlarini, shuningdek qo‘riqlash-texnik xizmatlarni ko‘rsatadi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga qo‘riqlash uchun topshirilgan obyektlarni qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlash talablarini, tartibini hamda shartlarini belgilaydi;

qo‘riqlash-texnik xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabardor qilish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlaydi, huquqbuzarliklarning oldini oladi va ularga chek qo‘yadi;

Bundan tashqari ushbu qonunda qo‘riqlash bosh boshqarmasi o‘z vakolati doirasida huquqlarga egaligi, qo‘riqlash bosh boshqarmasi faoliyatini, obyektlarni qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish, ko‘rsatib o‘tilgan.[2]

Hozirgi kunda qo‘riqlash faoliyatining quyidagi turlari mavjud:

-saf bo‘linmalari orqali qo‘riqlash

-harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari orqali qo‘riqlash

-qorovullik bo‘linmalari orqali qo‘riqlash

-texnik qo‘riqlash markazlari orqali qo‘riqlash

-tashvish tugmalari orqali qo‘riqlash

Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalaridan foydalanishda, xodim avval ularni tashqi ko‘rikdan o‘tkazib, sozligini tekshirib ko‘rishi lozim. Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalarida nosozliklar aniqlanganda, xodim darhol tashkilot rahbariga axborot berib, signalizatsiya vositalarini elektr tarmog‘idan uzib qo‘yishi va texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimni chaqirishi hamda maxsus jurnalga qayd etishi shart. Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalaridan texnik foydalanayotgan xodimga asossiz signalizatsiya vositalarini elektr tarmog‘idan uzib qo‘yish, ochish va nosozliklarni o‘z kuchi bilan tuzatish man etiladi. 1-rasmda ko‘rsatilgan qo‘riqlash faoliyatining quyidagi turini ko‘rib chiqamiz.



“Tashvish” tugmasi signalizatsiyasi barcha turdagi obyektlar, xonadonlar, kotteyjdlar, garajlar va yakka tartibdagi xonadonlarni ishonchli qo‘rig‘ini ta’minlashda eng keng tarqalgan texnik qo‘riqlash turidir “**Tashvish**” tugmasi signalizatsiyasi tezkor harakatlanuvchi guruhlarni qo‘l ***1-rasm (tashvish tugmalari orqali qo‘riqlash).***

yordamida shoshilinch chaqirishga mo‘ljallangan.

Ushbu qo‘riqlash qurilmasi qoidaga ko‘ra ko‘zga tashlanmaydigan, lekin oson foydalanishga qulay joylarga joylashtiriladi, bu mijozlar uchun (do‘kon, bank xizmatchisi, maktab, bolalar bog‘chasi, boshqa ta’lim yoki madaniyat muassasalari qo‘riqchisi, xonadon yoki xususiy uyda egalariga) zudlik bilan xavfli vaziyatlar (talonchilik, hayot yoki sog‘liqqa tahdid, yong‘in va boshqa favqulodda holatlar) to‘g‘risida xabar berish imkoniyatini yaratadi. Tashvish tugmasi signalizatsiyasining ishlash prinsipi qo‘riqdagi obyekt va tezkor harakatlanuvchi guruhi bilan tunu kun aloqasini ta’minlaydi. Tashvish tugmasini bosish bilan xabar qo‘riqlash monitoring markaziga tushadi, shundan keyin tashvish xabari tushgan obyektga eng yaqin joylashgan tezkor harakatlanuvchi guruhga yetqaziladi, qurollangan qo‘riqlash xizmati naryadi ekipaji **5-7 daqiqada** tashvish xabari tushgan obyektga yetib boradi.

Bugungi kunda texnik xavfsizlik tizimlari ishonchli qo‘riqlovni ta’minlashning ajralmas qismiga aylandi. Xavfsizlik tizimlari hamda texnik vositalari yordamida obyektlar qo‘rig‘ini tashkil qilish– bu obyektlarga o‘rnatilgan qo‘riqlash signalizatsiya vositalari va tizimlari orqali obyektning holatini tunu kun monitoring qilish, hamda “Tashvish” xabari tushganda obyektga tezkor harakatlanuvchi guruhning chiqishi. Obyektni texnik qo‘riqlash–qo‘riqlanayotgan obyektga ruxsatsiz kirish, yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlarni xavfini oldini olish, mol-mulkni, fuqarolar hayoti va xavfsizligini ta’minlash. 2-rasmda texnik qo‘riqlash markazlari orqali qo‘riqlash turini ko‘rib chiqamiz.



Texnik vositalar yordamida mol-mulkni qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qo‘riqlash tizimlarini o‘rnatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, malakali, sertifikatga ega mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi;

- obyektlarda sodir bo‘layotgan holatlarni qayd etib borish;
- tezkor harakatlanuvchi guruhni “Tashvish”.

2-rasm (texnik qo‘riqlash markazlari orqali qo‘riqlash) tugmasi orqali chaqirish imkoniyatining mavjudligi;
- ma’lumotlarni uzatishda bir nechta aloqa kanallaridan foydalanish;
- ma’lumotlarni uzatish kanallarini doimiy nazorat qilib turilishi;
- obyektlarni qo‘riqqa topshirish va yechish hamda tashvish xabari to‘g‘risida SMS-xabarlash.

Qo‘riqlanayotgan obyektda texnik xavfsizlik tizimlari mavjud bo‘lganda “Tashvish” xabari signali qo‘riqlash monitoring markaziga tushadi. Markaz operatorining monitorida obyekt haqidagi barcha zaruriy ma’lumotlar, shuningdek tashvish xabarining turlari aks etadi. Zudlik bilan qo‘riqdagi obyektga tezkor guruh jo‘natiladi. Zaruriyat bo‘lganda tashvish xabarining xususiyatidan kelib chiqib ichki ishlar organlari xodimlari, yong‘in xavfsizligi yoki boshqa xizmatlar xabardor etiladi. Navbatchi operator shuningdek obyekt raxbariga yoki uning ishonchli vakili bilan aloqaga chiqib voqea yoki holat bo‘yicha ogohlantiradi. Obyektlarni texnik qo‘riqlash jismoniy shaxslar bilan kompleks tarzda yoki alohida xizmat turi sifatida amalga oshiriladi. Bu obyekt xavfsizligini ta’minlash darajasini pasaytirmagan holda qo‘riqlash xarajatlarini tejashga, shuningdek, inson omilini kamaytirishga imkon beradi.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 14-mart, 15-B-son, buyrug‘i. Qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalarini montaj qilish, ta’mirlash va ulardan texnik foydalanish ishlarida, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2021-yil 20-fevral, PQ-4997-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning, O‘zbekiston Respublikasining Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi 2022-yil 15-iyun, O‘RQ-778-son qonuni.

4. www.lex.qbb.uz

OBYEKTLARDAGI XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA VIDEOKUZATUV TIZIMLARINING ROLI

SHAYMATOV ODIL ABDUKADIROVICH
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu tezisda videokuzatuv vositalari turlari, zamonaviy qo‘riqlash tizimlarining videokuzatuv vositalari bilan integratsiyasi, videokuzatuv tizimidan foydalanish maqsadlari, tizim tomonidan bajariladigan vazifalar hamda afzalliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Videokuzatuv tizimi, videokameralar, IP va AHD kameralar, internet, VPN tarmog‘i, NVR, DVR.

Аннотация. В данным тезисе представлена информация о типах устройств видеонаблюдения, интеграции современных систем безопасности с устройствами видеонаблюдения, целях использования системы видеонаблюдения, задачах, решаемых системой, и ее преимуществах.

Ключевые слова: Система видеонаблюдения, видеокамеры, IP и AHD камеры, интернет, сеть VPN, NVR, DVR.

Annotation. This thesis provides information on the types of video surveillance devices, the integration of modern security systems with video surveillance devices, the purposes of using the video surveillance system, the tasks performed by the system, and its advantages.

Keywords: Video surveillance system, video cameras, IP and AHD cameras, internet, VPN network, NVR, DVR.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu konsepsiyada jinoyatchilikning oldini olish

va unga qarshi murosasiz kurashish, jamoat tartibini saqlash, aholi tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, fuqarolarda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etish belgilab berilgan [1].

Hozirgi vaqtda obyektda (bino, inshoot, binolar) video kuzatuv tizimining mavjudligi keng qamrovli xavfsizlik tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Videokuzatuv tizimining maqsadi obyektda sodir bo‘layotgan voqealarni, ya’ni obyektga kirib-chiqish, qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan asosiy mol-mulklarni kuzatish va qayd etishdir. Ushbu maqsadlar uchun video yozib olish moslamalari qo‘llaniladi. Video va audio axborotlarni yozish vaqti ularning konfiguratsiyasiga va tanlangan rejimga bog‘liq. Turli xil video signallarni qayta ishlash qurilmalari har xil videokameralarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Binolarning sharoitlari va turiga qarab har xil turdagi videokameralardan foydalanish mumkin: bino inshoatlar ichki qismida foydalaniladigan kameralar hamda chang, namlik va yog‘ingarchilikdan himoyalangan tashqi kameralar. Jumladan, ko‘chada o‘rnatiladigan videokuzatuv kameralari, qubbali, qobiqli, mitti(kichik gabaritli), modulli, buriluvchi (PTZ) videokuzatuv kameralariga ajratishimiz mumkin [2].

Zamonaviy videokuzatuv va qo‘riqlash tizimlari - bu texnik xavfsizlik uskunalarining ancha murakkab va ko‘p funktsiyali majmuasidir, jumladan turli xil va funktsional videokameralar, elektronika va ma’lumotlarni yozish va saqlash qurilmalari, kabel tarmoqlari kompleksi bo‘lgan har xil turdagi, shuningdek, harakat sensori, masofadan turib ma’lumot uzatish tizimining infraqizil yoritilishi(va boshqalar)ni kiritish mumkin.

Xavfsizlik tizimlaridan biri sifatida videokuzatuv tizimi tomonidan bajariladigan vazifalar doirasi juda keng, xususan:

Qo‘riqlanadigan hududlar, binolar, inshootlarning umumiy holatini, shuningdek ulardagi (ichki qismidagi) mol-mulkning saqlanishini nazorat qilish;

• ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zini video monitoringi;

• odamlar oqimini, binolar va hududga kirishini kuzatish;

• avtotransport vositalarining kirish va chiqishlarini nazorat qilish;

• huquqbuzarliklarni, ruxsatsiz kirishni, yo‘l harakati qoidalarini buzishni qayd etish va aniqlash;

• yo‘llar va uning atrofidagi hududlardagi vaziyatni kuzatish;

• kassa operatsiyalarini nazorat qilish;

• tadbirkorlik faoliyatini umumiy va maxsus nazorat qilish;

• videokameralardan bir necha daqiqadan bir necha kungacha bo‘lgan voqealarni arxivlash (yozish) - qiziqish vaqtini ko‘rish (zarur bo‘lganda).

Qo‘riqlanadigan obyektlarda videokuzatuv xavfsizlik tizimlari ko‘pincha boshqa tizimlar bilan birgalikda qo‘llaniladi - qo‘riqlash yong‘indan ogohlantirish signalizatsiyasi (QYooS), yong‘in o‘chirish tizimi (Yoo‘T), tashvish signalizatsiyasi, kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimi (KNBT(СКУД)), texnologik jarayonlarni nazorat qilish tizimlari, jismoniy qo‘riqlash va boshqalar[3].

Videokuzatuv tizimi bilangina keng qamrovli xavfsizlikning maksimal ta’siri (effekti)ga erishish mumkin.

Misol tariqasida, yong‘in yoki xavfsizlik signalizatsiyasi ishga tushirilganda, operator videokuzatuv tizimi orqali binolardagi yoki hududdagi haqiqiy vaziyatni kuzatishi, favqulodda vaziyatni tezda aniqlashi, IIB, yong‘in xavfsizligi o‘t o‘chirish brigadasi va boshqa xizmatlarni chaqirishi mumkin.

Obyektda nazoratni amalga oshiruvchi operator kirishni, boshqarishni nazorat qiladi - elektromagnit eshik qulflarini, to‘siqlarni ochish yoki yopish, va karnay ulanishi orqali tezda muhim e’lon qilish va shu bilan videokameralar yordamida yozib olgan ruxsatsiz harakatlarning oldini oladi.

Videokuzatuvni kirishni nazorat qilish va boshqarish tizimi (СКУД) bilan integratsiyalash (ulash) orqali korxona, tashkilot ishchilarning fotosuratlarini tekshirish (taqqoslash, dalillar) va ularning ish vaqtini qayd etish funktsiyasi bilan kirishni boshqarishni ta’minlashi mumkin.

Bugungi kunda ishlab chiqarish oyektlarida, omborlarda, do‘konlarda, shu jumladan qo‘riqlanadigan davlat va nodavlat tashkilotlarda vijdonsiz xodimlarga duch kelishadi, xodimlar o‘zlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalarini bajarayotganda ziddiyatli vaziyatlarni hal

qilishda aynan videoaxborotlardan foydalaniladi. Bunday holatlarga ishchi xizmatchilarning nizo(konflikt)li vaziyatlari, kassa operatsiyalari paytidagi buzilishlar, o‘g‘irlik, mulkka tajavvuzlar va boshqalarni misol qilish mumkin.

Zamonaviy videokuzatuv vositalari bizga video oqimini internet yoki himoyalangan VPN tarmog‘i orqali uzatish imkonini beradi, bu esa deyarli har qanday nuqtadan qiziqqan kameradan videoni onlayn ko‘rish imkonini beradi.

Videokuzatuv tizimlarining tarkibi bevosita uning oldida turgan vazifalarga bog‘liq. Barcha videokuzatuv tizimlariga kiritilgan asosiy uskunalar videokamera, videoregistrator yoki dasturiy ta’minot va monitorga ega kompyuterdir.

Xavfsizlik tizimlari, jumladan, videokuzatuv tizimlari yildan-yilga qulay bo‘lib bormoqda. Agar yaqin besh yil oldin faqat yirik kompaniyalar va badavlat odamlar videokuzatuv tizimini o‘rnatishga qodir bo‘lsa, hozir deyarli hamma bunga qodir. Agar ilgari faqat analog kameralar ishlatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar davrida IP kameralar va takomillashtirilgan analog (AHD) kameralardan foydalanilmoqda.

Har bir aniq holat uchun videokuzatuv tizimi ishlab chiqilgan, o‘rnatilgan va joriy vazifa uchun birlashtirilgan. Shunisi e’tiborga loyiqki, tizimning bir xil samaradorligi bilan uskunaning narxi teng bo‘lmasligi, turli sabalarga ko‘ra ularning narxi boshqacha bo‘lishi mumkin.

Videokuzatuv tizimining narxi bevosita NVR(DVR) sifatiga bog‘liq. NVR (DVR) modelini tanlash aniq vazifaga va himoyalangan obyektning “muhimligi” darajasiga bog‘liq. NVR (DVR)lar kanallar soni (videokameralarni ulash uchun ulagichlar), qattiq disklarning sig‘imi, zaxiralash imkoniyati va videokameralardan tasvirni yanada aniqroq sozlash va videoma’lumotni saqlash vaqtini ta’minlaydigan boshqa ko‘plab xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Videokuzatuv tizimlarining afzalligi qo‘shimcha funksiyalarni tanlash imkoniyatidir, masalan: signalizatsiya, taymer orqali yozish, kompyuter bilan birgalikda ishlash, Internet orqali ma’lumotlarni arxivlash va uzatish, infraqizil yoritgichlar, masofadan boshqarish, ramkani muzlatish. Videokuzatuv kichik va katta obyektlarda o‘ziga xos tarzda

qo‘llanilishi kerak. Bundan tashqari, videokuzatuv tizimi, yuqorida aytib o‘tilganidek, yong‘in va xavfsizlik signalizatsiya tizimlari bilan birlashtirilishi mumkin.

Xulosa o‘rida shuni aytish mumkinki, videokuzatuv tizimni oyektlarga ekspluatatsiya qilinishida uning umumiy foydalanish effektliligi va zamonaviy xavfsizlik tizimlari bilan hamkorlikda ishlay olish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Agar bizga kerak bo‘lgan videokuzatuv tizimi arzon bo‘lib chiqsa ham, bu eng arzonini o‘rnatishimiz kerak degani emas. Sababi, o‘rnatilayotgan videokuzatuv tizim bugungi kundagi biz qo‘yayotgan talablarga javob berishidan tashqari, kelajakda shu tizimning o‘zini rivojlantira olishimiz va qo‘shimcha vazifalarni bajara olishi, ko‘p funksiyali bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №27-sonli farmoni.
2. N.T.Mastonov. “Videokuzatuv kameralari va ularni jihozlash moslamalari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2022-y. 43 bet.
3. F.B.Achilov. “Qo‘riqlashning videokuzatuv tizimlarini loyihalashtirish va installyatsiyalash”. Darslik.Toshkent 2022-y. 255 b.
4. Internet manbalari: lex.uz, google.com, yandex.ru, ktso.ru

QO‘RIQLANAYOTGAN OBYEKTLARDA VIDEOKUZATUV TIZIMLARI DASTURIY TA’MINOTINING O‘RNI

Ibragimov Xakim Baxritdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu maqolada videokuzatuv tizimlari obyektlar va jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta’minlovchi integrallashgan tizimlar umumiy tuzilmasida muhim o‘rinni egallab, ularning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda tez rivojlanib borayotgan informatsion aloqa texnologiyasidan turli sohalarda kerakli maqsadda keng foydalanilmoqda. Shu maqsadda ushbu maqolada Axxon Intelligent Enterprise dasturi, uning videotahlili, ma’lumotlarni yozib olish va uzatishi, universal qurilmalar bilan hamjihatlikda ishlash tamoyillari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: videokuzatuv tizimlari, texnologiya, vositalar, ulanish, uzatish, yozish, aloqa, xabar, ma’lumot, axborot, dastur, video, tahlil.

Аннотация. В данной статье представлены системы видеонаблюдения, занимающие важное место в общей структуре интегрированных систем обеспечения безопасности объектов и физических лиц, являясь одной из основных их составляющих. В настоящее время быстро развивающиеся информационные коммуникационные технологии широко используются в различных отраслях для достижения желаемой цели. С этой целью в данной статье представлена подробная информация о программе Axxon Intelligent Enterprise, ее видеоанализе, записи и передаче данных, принципах совместной работы с универсальными устройствами.

Ключевые слова: системы видеонаблюдения, технология, средства, связь, передача, запись, связь, сообщение, информация, приложение, видео, анализ.

Annotation. In this article, video surveillance systems occupy an important place in the overall structure of integrated security systems for

facilities and individuals, being one of their main components. Currently, rapidly developing information and communication technologies are widely used in various industries to achieve the desired goal. To this end, this article provides detailed information about the Axxon Intelligent Enterprise program, its video analysis, data recording and transmission, and the principles of collaboration with universal devices.

Keywords: video surveillance systems, technology, means, communication, transmission, recording, communication, message, information, information, application, video, analysis.

Barchamizga ma’lumki, 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, Milliy gvardiya zimmasiga mamlakatimizda mavjud bo‘lgan turli toifadagi obyektlarni qo‘riqlash vazifasi topshirilgan bo‘lib, aynan Milliy gvardiya qo‘riqlash sohasida davlat siyosatini olib boradi.[7] Milliy gvardiya tarkibida bo‘lgan va u qo‘riqlayotgan obyektlar xavfsizligini ta’minlash, sohada ilmiy foaliyatni rag‘batlantirish, xorij tajribasini o‘rgangan holda eng zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilishda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, himoya modeli jinoyatchi tomonidan sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan barcha harakatlarni modellashtirish asosida qurilishi lozim. So‘nggi vaqtlarda jahonda va mintaqamizda, xususan mamlakatimizda sodir bo‘lgan voqealar Milliy gvardiyamizning xavfsizlik sohasida, xususan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatib berdi.

Xorij mamlakatlarida ham obyektlarni qo‘riqlashda bizdagi kabi texnik va muhandislik vositalaridan foydalanadilar. Ammo xorijda rivojlangan fan-texnika, asosan eng zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga imkon beradi. E’tiborli jihati shundaki, ko‘pgina xorij mamlakatlarida obyektlar xavfsizligini ta’minlash xizmatini taqdim etuvchi bir qacha tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular o‘z xizmatlari bilan xavfsizlik texnologiyalari bozorida kuchli raqobatni yuzaga keltirishgan.

[7] Elektron manba: https://lex.uz/docs/-5128310

To‘g‘ri oxirgi yillarda Milliy gvardiyaga qaratilgan e’tibor, amalga oshirilgan islohotlar, yangilanishlar tizimga tatbiq etilayotgan innovatsion texnologiyalar, Milliy gvardiyamizning salohiyati, jangovarligini, unga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarishi uchun muhim turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, bir jihatni inobatga olish kerak, obyektlar xavfsizligini ta’minlash sohasida halqaro hamkorlik va xorij tajribasi juda muhim yo‘nalish deb qarash lozim.

Videokuzatuv tizimlari obyektlar va jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta’minlovchi integrallashgan tizimlar umumiy tuzilmasida muhim o‘rinni egallab, ularning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu kabi tizimlar perimetrlarni va obyektlarni qo‘riqlash, tashrif buyuruvchilarni nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, shuningdek korxonalarda, transportda, ofislar va turar joylarida, mehmonxonalarda, o‘quv muassasalarda, do‘konlarda, savdo majmualarda keng qo‘llanilmoqda. Konstruktiv nuqtai nazardan zamonaviy videokuzatuv tizimlari texnologik murakkablikning turli darajadagi videokameralardan, signallarga ishlov berish va ularni qayd etish vositalaridan, tasvirlarni namoyish etish moslamalarining kompleksidan va boshqaruv qurilmalaridan tashkil topadi. Tasvirlarga ishlov berishning ko‘plab xilma-xil usullari va algoritmlari hal etiladigan masalalarning, qo‘llanilish sohalari, shuningdek vizual ma’lumotlarni olish texnik vositalarining ko‘pligi bilan asoslanadi. Lekin ko‘pincha ularning ko‘pchiligi qat’iy matematik asoslashga ega emas, ularning qo‘llanilishi esa aniq bir amaliy masalaning shartlaridan kelib chiqish orqali maqsadga muvofiqligi bilan tushuntiriladi.

Xorijda intellektual qo‘riqlash tizimlari 30 yildan ortiq muddatda ishlab chiqilib, takomillashtirilib borilmoqda. Ushbu davr davomida xorijiy mamlakatlarda intellektual qo‘riqlash tizimlari bilan obyektlarning qo‘riqlanishini tashkil etishning katta tajribasi to‘plangan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi obyektlariga samarali intellektual qo‘riqlash tizimlarini tanlash uchun, ularni qo‘llash bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish zarurligi bilan tasdiqlanmoqda.

Bu borada, AxxonSoft tashkiloti Axxon Enterprise Intellect 4.8.3ni ishga tushirdi. Video kuzatuvlar va xavfsizlik dasturiy ta’minotini ishlab

chiqaruvchisi AxxonSoft ham, IP ham analog qurilmalar asosida rivojlangan jismoniy xavfsizlikni boshqarish platformasi Axxon Enterprise Intelligentning 4.8.3 versiyasini chiqardi, bu aqlli videoanalitika, ko‘p tomonlama IP (*IP-qurilmalar bilan ishlash. ITV dasturiy ta’minot mahsulotlari 9900 dan ortiq IP-qurilmalarning nomlarini, shu jumladan mulkiy protokol orqali birlashtirilgan tarmoq qurilmalarining 3000 dan ortiq modellarini va 6900 ga yaqin ONVIF-mos keluvchi qurilmalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Kompaniya yetakchi sotuvchilar bilan hamkorlik qiladi va doimiy ravishda IP-uskunalarining yangi modellarini ularning xilma-xilligi va boyligi bilan birlashtiradi*) - ulanish qurilmalari va hodisalarga munosabatlarini avtomatlashtirish qobiliyati bo‘lib, ularning barchasi bir tizimda ishlaydi.

AxxonSoft Axxon Enterprise Intelligencening 4.8.3 versiyada jismoniy xavfsizlik platformasi ma’lumotlarini boshqarish (PSIM) dasturiga bir nechta yangi xususiyatlarni olib keladi. Barqarorlikni, ishlash va o‘rnatish tezligini o‘z ichiga oladi, tashqi xotirani qo‘llab-quvvatlaydi, flesh-disklar va NAS (*NAS inglizcha “Network Attached Storage” so‘zining qisqartmasi bo‘lib, so‘zma-so‘z “Tarmoq orqali saqlash” degan ma’noni anglatadi.*

Odatda ruscha ma’noda NAS “Tarmoqni saqlash qurilmasi” yoki uni asosiy funktsional maqsadiga ko‘ra boshqacha qilib aytganda “Ma’lumotlarni saqlash serveri”) da yozilgan IP kameralardan tashqari, DVR va NVT video fayllaridan foydalanish mumkin.

Fayllarni video-serverlardan eksklyuziv disklarga ko‘chirish uchun mo‘ljallangan faol arxivlash moduli (“Faol arxivlash”) video bilan bir vaqtda yozib olingan ovozni ko‘chirishga imkon beradi. Fayl maydonini olish uchun berilgan NAS (Network Attached Storage) dan foydalanishingiz mumkin. Axxon Intellig PSIM platformasidan qat’iy nazar, videofayllarni ko‘rish uchun qulay Axxon pleer taqdim etildi. Axxon pleerining kelajakdagi versiyalarida Axxon Intellect Enterprise fayllarini umumiy video formatlarga o‘tkazish funktsiyasi mavjud.

Immer Vision panamorfik linzalaridan tashqari, uning Sentry 360 va Vivotek baliq ko‘zlari linzalari kameralari bilan birlashishi alohida e’tiborga loyiqdir.

Dasturnig xususiyatlari.

RTSP (*Real Time Streaming Protocol - oqim (potok) media serverlarini boshqarish uchun ko‘ngilochar va aloqa tizimlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan tarmoqni boshqarish protokoli. Protokol so‘nggi nuqtalar o‘rtasida media sessiyalarni o‘rnatish va boshqarish uchun ishlatiladi. Media-server mijozlari media-serverdan mijozga (talab bo‘yicha video) yoki mijozdan serverga (ovozli yozuv) oqimini real vaqt rejimida boshqarishni osonlashtirish uchun ijro etish, yozib olish va pauza kabi buyruqlar berishadi)* - server Intelligent tizimidan videoni RTSP formatida uzatish va pleer yordamida masofaviy mijozda ko‘rish imkonini beradi, ochiq manba VLC *(VLC media pleer, VideoLAN Client tomonidan ishlatiladi, odatda VLC deb nomlanadi, bu VideoLAN loyihasi tomonidan ishlab chiqilgan bepul platformalararo media pleer*) dasturi sifatida RTSP protokolini qo‘llab-quvvatlaydi.

H.264 SVC kodi bilan mosligi tufayli foydalanuvchilar namunani yuklab olishlari va video oqimlarini dekompressiyasiz kamaytirishlari mumkin. Bu sizga mijozlarga video oqimini yetkazib berish orqali apparat va tarmoq izlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Yana bir o‘ziga xos xususiyat - bu audio tahlilning har tomonlamadir. Intelligence-da endi videodan tashqari ovozni aniqlash vositalari mavjud. Ovozni aniqlash vositalari shisha singan, avtomobil signalizatsiyasi va boshqa tegishli signallardan hosil bo‘ladigan tovushlarga sezgirligidir.

Yangi qutqarish moduli tizimdan tashqari serverni oflayn bo‘lmagan serverni uzatishni boshqarish va sozlash uchun ko‘proq funktsiyalarni taklif etadi. Qayta tiklash, ayniqsa, yirik tarqatish tizimlarida to‘xtash vaqtini saqlab qolish uchun juda muhimdir.

HID *(Ishonchli kirishni boshqarish. Yuqori darajadagi kirishni boshqarish tizimlaridan foydalanish foydalanuvchilarga imkoniyat yaratadi, ish samaradorligini oshiradi va qimmatbaho uskunalar, resurslar va odamlar himoyasini ta’minlaydi. HID-ning sinfga kirishni boshqarish bo‘yicha eng yaxshi yechimlari quyidagilarni ta’minlaydi)* yordamida asosiy ma’lumotlarni yig‘ish mexanizmining dizayni takomillashtirildi. Axborot yig‘ish jarayonida bir nechta kompyuter

uskunalari o‘rganiladi; faqat bir nechta apparat komponentlari o‘zgartirilganda, AxxonSoft Litsenziyasi faol bo‘lib qoladi.

Intellig POS Store xavfsizlik moduli endi veb-hisobot tizimiga ma’lumotlarni avtomatik ravishda ko‘paytirishi mumkin. Tanlangan server do‘kon xavfsizligi tizimidagi barcha serverlar bilan rejalashtirilgan ma’lumotlarni sinxronlashtirishni amalga oshiradi. Quyida, veb-hisobot tizimi zanjir do‘konlaridagi qutilar hududidagi voqealarni tahlil qilish uchun server ma’lumotlaridan foydalanadi.

Do‘konlar yana ikki kishining hisoblash xususiyatlaridan foydalanishlari mumkin: do‘konlarda tirbandlikni kuzatish va navbatlarni boshqarish. Ish hajmini tahlil qilish va do‘kon ishlarini optimallashtirish uchun siz videokuzatuv tizimidan foydalanishingiz mumkin. Ular veb-hisobot tizimiga qo‘shilgan, maydon maydonidagi yuklar, tashrif buyuruvchilar soni va kirish chiqish soni to‘g‘risidagi hisobotlar.



1-rasm. Tirbandlikni kuzatish va boshqarish

Avtomashina raqamlarini avtomatik ravishda tanib olish va harakat statistikasini tahlil qilish uchun dasturiy ta’minot moduli bo‘lgan “Hurricane” moduliga Auto Intellect uchun muhim element (Hurricane) qo‘shildi, bu avtomobil raqamlarini avvalgisiga nisbatan tezroq va ishonchli taniydi. Endi modul sizga vagonlarni tanib olish amalga oshiriladigan mamlakat uchun faol shablonlarni sozlash imkonini beradi. Yangi intuitiv interfeys yordamida foydalanuvchilar vagonlar tan olinadigan mamlakatlar nomi va sonini osongina tanlashlari mumkin. VIT davlat raqamini tanib olish moduli va yangilangan Carman davlat raqamini aniqlash moduli qo‘shildi. Svetoforlarning holatini o‘zgartirish uchun yangi videoni aniqlash vositasi kiritilgan. Endi tizim svetoforning holatini svetofor boshqaruvchisiga jismoniy ulanmasdan aniqlay oladi.

Axxon Intelligent Enterprise PSIM platformasi hozirda keng ko‘lamli kirishni boshqarish uskunalari, yong‘in kirib kelish signallari va atrof-

muhit muhofazasi integratsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Enterprise Intelligence Axxon 4.8.3 ko‘plab IP uskunalari: 786 IP-kameralar va IP-video-serverlar bilan mosligini ta’minlaydigan Drivers Pack 3.2.12-ni o‘z ichiga oladi. Boshqa 165 qurilmalar bilan ONF mosligi. AxxonSoft veb-saytidan bepul yuklab olish va mavjud tizimga o‘rnatish mumkin bo‘lgan transport paketlarining yangi versiyalari chiqarilganligi sababli, o‘rnatilgan IP-uskunalar ro‘yxati o‘sishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Р.Р. Мусабаев, Е.С. Жечев. Видеоаналитика компании ITV AxxonSoftТомск, ТУСУР.

2. ITV | AxxonSoft URL: https://www.itv.ru

3. Видеоаналитика URL: https://ru.wikipedia.org

4. Видеоаналитика URL: https://www.quorus.ru/pages/videoanalitika

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT VA TUSHUNCHALAR

Norbayev Voxidjon Shorobidinovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada uchuvchisiz uchish apparatlari haqida tushuncha, ulardan samarali foydalanish, shu bilan birga, toifalangan obyektlarni qo‘riqlash davomida foydalanish tartibi to‘g‘risida tavsiya berilgan.

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchish apparatlari, toifalangan obyektlar, integratsiya, dasturiy ta’minot, dron, kopter.

Аннотация: В данной статье дается представление о беспилотных летательных аппаратах, их эффективном использовании и в то же время даны рекомендации по порядку их использования при охране секретных объектов.

Ключевые слова: БПЛА, секретные объекты, интеграция, программное обеспечение, дрон, коптер.

Abstract: This article gives an idea of unmanned aerial vehicles, their effective use and at the same time provides recommendations on the procedure for their use when protecting secret objects.

Keywords: UAV, secret objects, integration, software, drone, copter.

So‘nggi bir necha yil ichida dronlar fuqarolik aviatsiyasiga tobora ko‘proq joriy etilmoqda, havodan surat va video olish uchun ishlatilmoqda. Bu turli maqsadda, jumladan reklama, ko‘chmas mulk va turizm uchun havodan yuqori sifatli tasvir olish imkonini beradi. Dron yukni yetkazib berishda ham yaxshi natijalar ko‘rsatmoqda.Qishloq xo‘jaligida ham tengi yo‘q texnikaga aylanayotgan dronlar dalaning holatini, hosildorlikni va sug‘orish darajasini kuzatish, baholash orqali fermerga tuproqni o‘g‘itlash, dori purkash va ekinni boshqarish bo‘yicha qulay qaror qabul qilish imkonini beradi. Tabiiyki, ayni usul ishlab

chiqarish samaradorligini oshiradi va atrof-muhitga zararni kamaytiradi. Bunday qurilmalar Agrodronlar, deb ham yuritiladi. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi dronlari pestitsidni purkay oladi.

Avtojir uchish apparatida o‘rnatilgan VINT asosiy hisoblanadi, u orqali apparatning havoga ko‘tarilish kuchi paydo bo‘ladi. Bu VINT orqaga ozgina egilgan bo‘ladi va vertikal yuzani hosil qiladi, bu esa o‘z navbatida havo oqimi kelib urilganda apparatni ko‘taruvchi kuch hosil bo‘ladi va parvoz amalga oshiriladi. Bundan tashqari faqat ko‘taruvchi kuchni emas balki parrak yordamida tortuvchi kuchni ham hosil qiladi, oddiy samoletlardagi kabi parrak gorizontal harakat uchun kerak bo‘ladi. Avtojir vertolet va samoletlarga qaraganda xavfsizlik nuqtai nazardan ancha ustuvorlikka ega bo‘ladi. Bu turdagi UUA vertikal xolatda ucha olmaydi, uchish uchun 10-15 metr uzunlikdagi yo‘lak kerak bo‘ladi. Avtojir tipidagi UUA larining uchish tezliklari vertolet tezligiday ucha oldi, lekin samolet tezligidan ancha kam hisoblanadi. Oddiy avtojir UUA lari 180 km/soat tezlikda hamda yoqilg‘i sarfi 100 kilomerga 15 litr yoqilg‘i sarf qiladi. Hozirgi vaqtda Rossiya davlatida qishloq xo‘jaligida ekin maydonlarini defolyatsi qilish maqsadida KIMYOGAR rusumli avtojir appratini ishlab chiqargan.



Rasm 1 – Kimyogar rusumli UUA

Ilmiy maqsadda muhim vazifani bajara boshlagan dronlar atrof-muhitni o‘rganish, ekotizimni monitoring qilish, iqlim o‘zgarishini tadqiq qilish, yovvoyi jonivorlarni aniqlash, ilmiy tekshiruv olib borish hamda boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda foydalanilmoqda. Odam borolmaydigan joylarga yetib borishi, chaqqonligi va manyovr qobiliyati tufayli dronlar ilmiy kashfiyot qilish va ma’lumotni tahlillashda yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Dronlar ilmiy faoliyatda juda qo‘l keladi: geologiya, ekologiya, meteorologiya va boshqa ko‘plab sohalarda ma’lumotni to‘plash va tadqiq etish uchun beminnat dastyorga aylangan. Baribir, taassuf bilan ta’kidlash joiz, dronlar jangovar maqsadda ko‘p ishlab chiqarilmoqda va

ishlatilmoqda, masalan, Dubayning o‘zi harakatlanadigan metro poezdlarini boshqarish jarayonida inson ishtirok etmaydi, barchasi avtomatik tarzda amalga oshiriladi. To‘liq sun’iy intellekt tizimiga, kompyuter algoritmiga, ilg‘or sensor texnologiyalarga asoslangan bu tizim yuqori aniqlikda ishlaydi, samarador va xavfsiz. Mazkur tizimda to‘siqlarni ilg‘or usulda aniqlash, temir yo‘l yo‘nalishini muntazam nazorat qilish, boshqaruv markazi bilan doimiy aloqani ushlash kabi qator xavfsizlik choralari mavjud. Tizimda yuzaga keladigan har qanday tahdidga avtomatik javob berish va yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rilgan.

Sanoatda dron qurilish maydonchasini tekshirish, elektr stansiyasiga texnik xizmat ko‘rsatish, kon qidirish kabi murakkab vazifalarni bajaryapti. Natijada texnik xizmat ko‘rsatish xarajati kamayib, ishchilar xavfsizligi ta’minlanyapti.

Dronlar yetkazib berish vaqtini qisqartirish va xodimlar hamda yonilg‘i xarajatini kamaytirish maqsadida yuk va pochta jo‘natmalarini tashishda keng qo‘llanmoqda.



Rasm - 2 UUA yuklarni yetkazib berish holati

Tibbiyotda dron- tabiiy ofat sodir bo‘lgan joyga dori vositalari va asbob-anjom yetkazib berish tabiiyki endilikda yetkazib berish vaqti qisqarib, bemor hayotini asrab qolish imkoni oshgan.

Bilamizki obyektlar xavfsizlgini ta’minlashda muhandislik va texnik vositalardan foydalaniladi. Bu ikki turdagi vositalarning obyekt xavfsizligini ta’minlashda ahamiyati juda yuqoridir. Xorij tajribasini tahlil qilar ekanmiz, rivojlangan mamlakatlar ushbu yo‘nalishda ko‘plab yutuqlarga erishganini kuzatishimiz mumkin. Ularning boy tajribasidan foydalanish, o‘zimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo‘nalishlarda so‘ngi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dronning ishlash tamoyili sensorli tizim, avtopilot va dasturiy ta’minot kombinatsiyasiga asoslangan. Kamera, radar, lidar, navigatsiya

tizimi kabi sensorlar atrof-muhit va avtomobilning joylashuvi haqida axborot to‘playdi. Ushbu ma’lumot avtopilotga uzatiladi, qayta ishlanadi va dronning keyingi harakati bo‘yicha qaror qabul qiladi, dvigatelning aylanishi, qurilmaning belgilangan traektoriyadan chetlanmasligini nazorat qiladi.



Rasm 3. - Aylanuvchi qanotli (Tiltwing)

Dronni boshqarish prinsipi va usuli aniq maqsadga qarab farqlanishi mumkin. Ba’zi dronlar butunlay avtonom harakat qiladi va inson aralashuvisiz o‘z-o‘zidan vazifani bajarishga qodir. Ayrimlari masofadan, yerdagi operator boshqaruv pulti yoki kompyuter interfeysi yordamida boshqariladi. Ko‘pgina zamonaviy samolyotlar ham fuqarolik, ham harbiy mustaqil ravishda uchishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda ayni payt faol rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan dronlardan foydalanish yanada keng ko‘lam, rang-baranglik kasb etmoqda. Binobarin, bunday qurilmalarning imkoniyati vaqt o‘tgan sayin yana ortib boraveradi. Ayni maqsadlar mamlakatlar uchun harbiy sanoatga, jumladan jangovar dronlar yaratishga yangi-yangi investitsiya jalb qilishni taqozo etmoqda. Nima bo‘lganda ham, taraqqiyotni to‘xtatishning iloji yo‘q. Bu sohada hali yangilik ko‘p qilinadi. Faqat bunday texnika vositalari insoniyatning tinch, yaratuvchanlik maqsadiga xizmat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish hamda ularni saqlash tartibi to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son qarori.

2. Internet ma’lumotlari - http:// www.aviaport.ru, http:// www.avsim.su

MILLIY GVARDIYA OBYEKTLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA QO‘RIQLASHNING VIDEOKUZATUV VOSITALARI DOLZARBLIGI

Ibragimov Xakim Baxritdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘riqlashning videokuzatuv vositalari qo‘riqlanayotgan hududda (maydon, bino) vaziyatni kuzatish hamda noqonuniy kirishni vizual asosli tasdiqlash, baholash va tartibbuzarlarni identifikatsiya qilish imkonini qo‘riqlashning videokuzatuv vositalari qo‘riqlanayotgan hududda (maydon, bino) vaziyatni kuzatish hamda noqonuniy kirishni vizual asosli tasdiqlash, baholash va tartibbuzarlarni identifikatsiya qilish to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: videokuzatuv, texnik vositalar, identifikatsiya, ma’lumot, dastur, apparatura, videoarxiv.

Аннотация. В настоящей статье представлена подробная информация о том, как средства видеонаблюдения охраны обеспечивают наблюдение за ситуацией на охраняемой территории (площади, здании) и визуальное обоснованное подтверждение, оценку и идентификацию нарушителей незаконного проникновения.

Ключевые слова: видеонаблюдение, технические средства, идентификация, информация, программное обеспечение, оборудование, видеоархив.

Annotation. This article provides detailed information on how security video surveillance equipment provides monitoring of the situation in the protected area (square, building) and visual reasonable confirmation, assessment and identification of violators of illegal entry security video surveillance equipment provides monitoring of the situation in the protected area (square, building) and visual reasonable confirmation, assessment and identification of violators illegal entry.

Keywords: video surveillance, technical means, identification, information, software, equipment, video archive.

Milliy gvardiya obyektlari qo‘riqlash tizimlarida qo‘llaniladigan texnik vositalarning harakatlanishi taqiqlangan hududlarda tartibbuzarlarni aniqlash, tartibbuzarlik haqida ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish, qayta ishlash, tartibbuzarlarni ushlab qolish, obyektlarda tezkor aloqani tashkil etish va taqiqlangan hududlarni kuzatish, TQV majmuasining barcha elementlari ishlashini nazorat qilish bo‘yicha belgilangan vazifalarni bajarish bilan bog‘liqdir. Texnik qo‘riqlash vositalarining asosiy afzalligi obyektlarda odamlarning xavfsizligini, kuzatilishning yuqori aniqligini va tezkor ta’sirlanishni ta’minlash, qo‘riqlashda jalb etiladigan jismoniy kuchning sonini kamaytirishdan iboratdir.

Qo‘riqlanadigan obyektning qo‘riqlashning texnik vositalari bilan zaruriy jihozlanish darajasi obyektning muhimligiga ko‘ra aniqlanadi. Qo‘riqlanadigan obyektlar jihozlanishining uchta toifasi belgilanadi:

- qurol-aslaha, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar saqlanadigan ombor va bazalar hamda strategik muhim ahamiyatga ega boshqa obyektlar uchun qo‘riqlashning texnik vositalari bilan jihozlashning 1-toifasi qo‘llaniladi, unda perimetral aniqlovchi vositalarning ikki va undan ortiq sarhadi, texnik qo‘riqlash videokuzatuv vositalarining bitta sarhadi, ogohlantiruvchi vositalarning va texnik ta’sir vositalarning bitta birlashgan sarhadi, obyekt ichidagi aniqlovchi vositalar tizimi hamda kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimning yaratilishi ko‘zda tutiladi;

- qurol-aslaha, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari va boshqa moddiy vositalar saqlanadigan va foydalaniladigan obyektlar uchun qo‘riqlashning texnik vositalari bilan jihozlashning 2-toifasi qo‘llaniladi, unda perimetral aniqlovchi vositalarning bitta va undan ortiq sarhadi, texnik qo‘riqlash videokuzatuv vositalarining bitta sarhadi, obyekt ichidagi aniqlovchi vositalar tizimi hamda kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimning yaratilishi ko‘zda tutiladi;

- qolgan obyektlar uchun qo‘riqlashning texnik vositalari bilan jihozlashning 3-toifasi qo‘llaniladi, unda texnik qo‘riqlash videokuzatuv

vositalarining bitta sarhadi, obyekt ichidagi aniqlovchi vositalar tizimi hamda kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimning yaratilishi ko‘zda tutiladi[1].

Qo‘riqlashning videokuzatuv vositalari qo‘riqlanayotgan hududda (maydon, bino) vaziyatni kuzatish hamda noqonuniy kirishni vizual asosli tasdiqlash, baholash va tartibbuzarlarni identifikatsiya qilish imkonini beradi.

Videokuzatuv vositalari quyidagi funksional talablarni (tavsiflarni) bajara olishni ta’minlashi lozim:

-qo‘riqlanayotgan obyekt va unga yondosh hududlarni vizual nazorat qilish;

- naryadlar harakatlarini vizual nazorat qilish va harakatlarning muvofiqligi bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni taqdim etish;

- kelgusida voqealarni tahlil qilish uchun video ma’lumotlarni arxivlash;

- kirish-chiqishni nazorat qilish tizimi va qo‘riqlash signalizatsiya vositalari boshqaruvi ostida ishlash;

- aniqlovchi vositalar ishlab ketganda, kameralardagi tasvirni avtomatik ravishda namoyish etish;

- noqonuniy harakatlarni oldini olish maqsadida, videoma’lumotlar va boshqaruv tizimiga ruxsat berishni chegaralash;

- videonazorat moslamasi ekranidagi tasviri bo‘yicha nazorat qilinuvchi uchastkaning to‘liq masofasida odamlarni (hayvonlarni, qushlarni) aniqlashni ta’minlashda videokameralarning yuqori qobiliyati;

- bir nechta videonazorat qurilmalariga videosignallarni uzatish imkoniyati;

- asosiy uzel va apparatura bloklarining zaxirasini yaratish;

- videoma’lumotlarga, uning vaqti, kuni va kamera identifikatorini kiritgan holda tezkor ruxsat berish.

Videokuzatuv vositalari tashqi (hududni nazorat qilish) va ichki (binoning ichki qismini nazorat qilish) turlariga bo‘linadi.

Obyektda quyidagi joylar videokuzatuv vositalari bilan jihozlanadi:

- hudud perimetri;

• NO‘J (o‘tish yo‘laklari va avtotransport vositalarini tekshirish hududlari);

• asosiy va zaxira kirish (chiqish) joylari;

• moddiy boyliklarni tashish amalga oshiriladigan xona va yo‘laklar;

• moddiy boyliklar bevosita saqlanayotgan xonalar, qurol-aslahalar saqlash xonalari bundan mustasno;

• bo‘linma boshlig‘i (komandiri)ning ixtiyoriga ko‘ra boshqa xonalar.

Videokuzatuv kamera va nazorat qurilmalarining soni, texnik xarakteristikalari hamda o‘rnatish joylari videokuzatuv vositalari tizimini loyihalash bo‘yicha texnik-topshiriq orqali aniqlanadi[2].

Obyekt hududini nazorat qilishga mo‘ljallangan kuzatuv kameralari iqlimiy omillar ta’sirida ishlay oladigan bo‘lishi yoki iqlimiy omillar ta’sirida ham ishlashga mo‘ljallangan germetik - termokojux ichiga o‘rnatilishi kerak.

Tungi vaqtlarda qo‘riqlanayotgan hudud yoritilishi videokuzatuv kamerasi sezuvchanligidan past bo‘lganda, ko‘rinadigan yoki infraqizil diapazondagi nurli qo‘riqlash yoritilish tizimi yoqilishi zarur. Qo‘riqlash yoritishning hududi videokuzatuv kamerasi ko‘rish hududi bilan mos bo‘lishi kerak.

Bitta videokuzatuv kamerasi orqali obyektning katta hududlarini kuzatish maqsadida, masofaviy o‘zgaruvchan fokusli obyektiv va masofadan turib boshqariluvchi aylanma qurilmalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Obyekt xonalaridan tashqarisida o‘rnatilgan videokuzatuv kamerasi to‘plamiga avtomatik boshqariluvchi diafragmali obyektiv kiritilishi kerak.

Videokuzatuv kameralaridan kelgan ma’lumotlarni aks ettirish maqsadida, uzoq muddat davomida qo‘zg‘almas tasvirlar bilan ishlashga mo‘ljallangan videoma’lumotlarni tasvirga chiqarish qurilmalari qo‘llanilishi kerak.

Perimetr bo‘ylab joylashadigan videokuzatuv kameralari yaxlit yo‘l-yo‘l chiziqli kuzatuvni ta’minlashi va kuzatuv sektorlarida “ko‘rinmas hududlar” paydo bo‘lishini oldini olishi zarur. Videokuzatuv vositalarining ta’sirlanish vaqti, tartibbuzarning kuzatuv zonasining yarmidan ko‘p qismini bosib o‘tish vaqtidan kam bo‘lishi kerak.

Barcha videoma’lumotlar raqamli video to‘plagichlarga yozilishi kerak. Videoarxiv uzluksiz rejim hamda tartibbuzarning qo‘riqlash zonasiga kirib kelishi haqidagi tashvish signali bo‘yicha yozib borilishi zarur. Videoma’lumotlarni bir oy muddatda saqlash maqsadga muvofiqdir[3].

Videokuzatuv tizimlarining asosiy funksiyalari – obyekt hududini ma’lum bir qismlarining videomonitoringini olib borish va xavfsizlik xizmati operatoriga idrok etish, qayta ishlash va saqlash uchun maqbul bo‘lgan ko‘rinishdagi vizual ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat. Modomiki xavfsizlikni ta’minlovchi texnik vositalar tuzilmasida videokuzatuvning asosiy vazifasi bo‘lib qo‘riqlanadigan obyektga begona shaxslarning kirib borishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanganligi bois, videokuzatuv tizimlarini qo‘llash joylariga darvozalar (eshiklar), perimetr to‘sig‘i hamda obyekt atrofidagi yo‘llar va hududlar kiradi. Xavfsizlik xizmatining o‘ziga xos vazifalarini hal etish zaruriyati yuzaga kelganda videokuzatuv tizimlarining videokameralari ma’lum bir muhim zonalarga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya qo‘mondonligining 2022-yil 22-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini bo‘linmalari obyektlarini qo‘riqlashning texnik vositalari bilan jihozlash va ulardan foydalanishni tashkillashtirish to‘g‘risida” gi, № 225-sonli buyrug‘i.
2. Achilov F.B., Ochilov I.N., Mastanov N.T., Tadjitdinov G.B., Fyodorov A.B., Bozorov A.A., Murakayev I.I. Texnik qo‘riqlash vositalari: Darslik. – T.: HTI, 2020. – 400 bet.
3. Yusupov U.A., Erkinov A.U., Xavfsiz shahar konseptsiyasida videokuzatuv tizimilari va tizimni himoyalash usullari // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH// Volume 2, Issue 12 November 2022. 930-933-betlar.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Videokuzatuv.

HOZIRGI KUNDAGI XARBIY TO‘QNASHUVLARDA QO‘LANILAYOTGAN UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINING IMKONIYATLARI

Norbayev Voxidjon Shorobidinovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada uchuvchisiz uchish apparatlari haqida tushuncha, ulardan samarali foydalanish, shu bilan birga, toifalangan obyektlarni qo‘riqlash davomida foydalanish tartibi to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchish apparatlari, toifalangan obyektlar, integratsiya, dasturiy ta’minot, dron, kopter.

Аннотация: В данной статье дается представление о беспилотных летательных аппаратах, их эффективном использовании и в то же время даны рекомендации по порядку их использования при охране секретных объектов.

Ключевые слова: БПЛА, секретные объекты, интеграция, программное обеспечение, дрон, коптер.

Abstract: This article gives an idea of unmanned aerial vehicles, their effective use and at the same time provides recommendations on the procedure for their use when protecting secret objects.

Keywords: UAV, secret objects, integration, software, drone, copter.

Mudofaa tizimida dron razvedka, kuzatuv, nishonni aniqlash va jangovar vazifani bajarishga yo‘naltirilsa, fuqarolik ishlarida o‘zi uchar qurilmalar chegarani nazorat qilish, yo‘qolganlarni qidirish, havodan suratga olish va hatto, yukni manzilga yetkazish kabi turli vazifalarni bajarmoqda.

Hozir vaqitga kelib dron harbiy maqsadda foydalaniladigan o‘zi uchar qurilma, deb tushunmoqda. Bunga arzirli sabab bor, albatta. Zero, so‘nggi yillarda sayyoramizning notinch, urush ketayotgan mintaqalarida drondan

foydalanish keng tus oldi. Masalan, AQSh qo‘shinlari Afg‘oniston, Suriya va Iroqda harbiy dronlarni keng qo‘llaganiga guvoh bo‘ldik. Qolaversa, Ozarbayjon – Armaniston ziddiyatida Isroil va Turkiyada ishlab chiqarilgan harbiy dronlar raqobat yechimini belgilab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni payt Ukraina va Rossiya mojarosi, xamda Isroil va Falastin mojarosi ham dronlar ishtirokida kechmoqda. Apparatlar ikki tomondan ham nafaqat razvedka va kuzatuv, balki zarba berish, dushman texnikasini yo‘q qilish, obyektni vayron qilish uchun faol qo‘llanmoqda. Qiruvchi samolyotga yonilg‘i quyish, dengiz chuqurligini tadqiq qilish va hayot uchun katta xavf tug‘diruvchi boshqa murakkab harbiy vazifalarni bajarishga ham jalb etilmoqda.

Kuzatuvchilar dronning harbiy maqsadda qo‘llanishida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni ko‘rmoqda. Asosiy afzallik, shubhasiz, xavfsizlik. Ya’ni, mashina ichida odam bo‘lmaydi, insonlar hayoti saqlab qolinadi, harbiylar nobud bo‘lishi kamayadi. Dron havoda uzoq muddatli missiyani bajarish, uzoq masofada yoki uzoq vaqt davomida kuzatuv, razvedka yoki boshqa vazifani ado etish imkonini beradi. Bundan tashqari dron har doim belgilangan dastur bo‘yicha uchadi, qurol ishlatish yoki ishlatmaslik bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqni buzish ehtimoli yo‘q.

Salbiy tomoni esa maxfiylik muammosi. Dron harbiy kuchlarga shaxsiy daxlsizlikni buzish, ma’lumotdan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha xizmat qilishi mumkin. Qonunlar, axloqiy meyorlarga rioya qilinishini ta’minlash uchun qat’iy qoida va protokollarga ehtiyoj bor.

Dronlar nafaqat havoda uchadi, balki yer yuzasida, suv tubi va ustida ham harakatlana oladi. Chegara nazorati, patrul xizmati, xavfsizlik va boshqa operatsiyalarda qo‘l keladi.

Amerikaning “RQ-4 Global Hawk” droni razvedka uchun ishlatilsa, “MQ-9 Reaper” yer usti nishonini kuzatadi va zarba yo‘llaydi, “Orca” droni esa suv ostida razvedka olib boradi, Rossiyaning “Poseydon” uchuvchisiz o‘zi uchar apparatlari muhim obyektlarni yo‘q qilish uchun yadro kallagi bilan jihozlangan.

“Marker” jangovar platformasi yoki “Milrem Themis” kabi quruqlikda harakatlanadigan dronlar jang maydonida og‘ir yukni tashiydi.

Navigatsiya sifatida lidar yoki kameradan foydalanadigan bunday tizimni operator konsolidan ham boshqarish mumkin.

Dronlarga nisbatan xakerlik hujumi uyushtirilishi yoki elektron urush uskunasidan foydalanilishi ehtimoli juda yuqori. Natijada dronlar ustidan nazorat yo‘qoladi. Nazoratdan chiqqan apparat qurilmani uchirgan tomonga xavf tug‘dirishi, operator manfaatiga qarshi ishlashi ham mumkin. Nafsilamrini aytganda, bu nafaqat harbiy, balki fuqarolik texnologiyalariga ham tegishli.

Duyodagi eng kuchli jangovar dronlar:

Bayraktar TB2 UUA-bu Turkiyada ishlab chiqarilgan zarba beruvchi UUA bo’lib, u uzoq parvoz davomiyligi bilan taktik o’rta balandlikdagi UUA sinfiga kiradi. Bayraktar TB2da to’rtta olib yurish nuqtasiga ega, unda 4 ta boshqariladigan UMTAS tankka qarshi raketalari joylashgan bo’lib, ular 8 km masofadagi nishonlarga zarba berishga qodir. Bayraktar TB2 UUAning maksimal parvoz tezligi 220 km/soat тezlikda xarakaтlanidi, osmondagi kruiz parvozi tezligi esa 130 km/soat, uchish radiusi 150 km. Uchish balandligi 8,2 km, ishlaydigan parvoz balandligi 5,5 km. UUA parvozining maksimal davomiyligi 27 soatga yetishi mumkin.

Shahed-136 Eron Samolyot ishlab chiqaruvchi sanoat kompaniyasi tomonidan yaratilgan og‘ir taktik apparat Suriyada ham qo’llanilgan. Bu qaysidir ma’noda Shahed-129 UUAning kichikroq versiyasi bo’lib, u o’z navbatida hajmi va tashqi ko’rinishi boyicha Turkiyaning Anka va Isroilning Hermes 900 kabi uchuvchisiz o‘choqlariga yaqinroqdir. UUA 2000 km gacha masofada va 24 soatgacha ucha oladi. UUA ham razvedka, ham razvedka-zarba versiyalarida ishlab chiqilgan. Ikkinchisi, Sadid-1 kabi 4 ta tankka qarshi raketa bilan jihozlanishi mumkin.

AQSH va boshqa NATO mamlakatlari Ukrainaga ko‘p miqdorda uchuvchisiz uchish apparatlarini yetkazib berdilar. Ukraina Qurolli kuchlari tomonidan “BayraktarTB2” razvedka-zarbdor, “Furiya”, “Leleka-100” razvedka UUAlar, “Switchblade 300”, “Switchblade 600” aqlli o‘q-dorilari qo‘llanmoqda.

Rossiya qurolli kuchlari tomonidan “Forpost” va “Orion” razvedkazarbdor, “Orlan-10”, “Zala” razvedka UUAlari, “Kub”, “Lanset” va “Geran-2” aqlli o‘q-dorilari qo‘llanmoqda.

Eronda ishlab chiqarilgan “Geran-2” dron-kamikadzelar Ukrainadagi obyektlarga zarbalar berishda o‘z samaradorligini ko‘rsatdi. U 2000 km uzoqlikdagi nishonlarga yuqori aniqlikda zarba berishga qodirdir.

Bundan tashqari, ikki tomon qo‘shinlari ham xo‘jalik sinfidagi “Mavic 3 Fly More Combo” va “Mavic 2 Zoom Fly More Combo” kichik dronlaridan razvedka ma’lumotlarini olishda, ularni F-1, RGD, RKG-1600 va VOG-17 granatalari bilan jihozlagan holda nishonlarga talafot yetkazishda keng foydalanishmoqda.

UUA Wasp III-da quyosh batareyalaridan parvoz paytida qayta zaryadlanuvchi akkumulyatorlardan quvvatlanadigan elektr motor bilan jihozlangan. Tasvirni barqarorlashtirish va kattalashtirish, ultra yengil (ultra-kichik) UUAlarga xos bo'lganidek, ularning optik-elektron tizimlarida dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi. Wasp III 5 km gacha parvoz masofasiga ega. Elektr dvigateli va litiy-ionli akkumulyatorlar uni 45 daqiqagacha parvoz qilish va 65 km/soat kreyser parvoz tezligini ta'minlaydi. AQSh dengiz piyodalari korpusida HM UUA Wasp III razvedka vzvodlarni jihozlash uchun mo'ljallangan. U guruh va batalyonlardagi RQ-11 Ravenga qoshimcha kompleksini to'ldiradi.

UUAning uchish apparatlarining uchish og'irligiga ko'ra tasnifi.Wasp III rusumli Ultra - yengil (1 kg gacha) bo‘lgan UUA (AQsh).

Wasp III AE - maxsus operatsiyalar kuchlari uchun Amerika UUA (razvedka, nishonni belgilash, o’t ochish belgilash). Uchish og'irligi - 0,43 kg.

Shahed 136 Saegheh 1 - Eronning taktik zarba beruvchi uchuvchisiz uchuvchi apparati. Maksimal uchish og'irligi - 170 kg. Eron davlatida ishlab chiqarilgan Shahed 191 Saegheh 2 5.4. rusmli o'rtacha (200 dan 2000 kg gacha) UUA modeli

Shahed 191 Saegheh 2 - Eronning tezkor-taktik hujumga uchragan uchuvchisiz uchuvchisiz uchoqidir. Maksimal uchish og'irligi - 500 kg.

RQ -170 Sentinel – Stealth rusumli katta (2000 dan 5000 kg gacha) turkumli *UUaning modeli:*

RQ -170 Sentinel - Stealth texnologiyalari yordamida yaratilgan Amerika razvedkachi UUA. Maksimal uchish og'irligi 3900 kg dan ortiq . Ushbu uchish apparati AQsh armiyasining jangavor qismlarida jangavor vazifalarni bajarish va muhum harbiy obyektlarni razvedka qilish ishlarinin bajaradi.

AQsh armiyasining jangavor MQ -20 Avenger (Qasoskor) (Predator (Yirtqich) C) rusumli UUA modelining og'ir (5000 kg dan ortiq) asosan jangavor vazifalarni a maxsus obyektlarni razvedka qilish ishlarini bajaradi.

MQ -20 Avenger (Qasoskor) (Predator (Yirtqich) C) - Amerika hujumi uchuvchisiz uchuvchisiz havo kemasi, bukma qanotli tashuvchiga asoslangan samolyot. Maksimal uchish og'irligi - 8225 kg.

Shuni hisobga olish kerakki, maksimal parvoz davomiyligi optimal sharoitlarda - shamol yo'qligi, yog'ingarchilik, o'rtacha havo harorati taxminan +20 ° C va, qoida tariqasida, foydali yuk massasini hisobga olmagan holda sinovdan o'tqaziladi. Shunga ko'ra, uni o'rnatgandan so'ng va ayniqsa yomon ob-havo sharoitida parvoz davomiyligi sezilarli darajada qisqarishi mumkin.

PD-100 black Hornet Nano - razvedka mikro-UUA (AQSh, Buyuk Britaniya). Operatordan maksimal masofa - 1500 m Parvoz davomiyligi: 1 soatgacha davom etadi.

Eleron-3 SV - bu qisqa masofalarda - 25 km gacha bo'lgan masofalarda ishlash uchun rus razvedkachi UUA. Parvoz davomiyligi: kamida 100 daqiqacha bo‘lishi mumkin.

Granat-4 Rossiya davlatida ishlab chiqarilgan (BAK VN "to'pchi - 2" dan) - **bu** Rossiyaning taktik razvedkachi uchuvchisiz uchuvchisiz samolyoti. Parvoz davomiyligi: kamida 4 soatdan 6 soatgacha uchishga mo‘ljallangan.

Bayrakdar DIHA - turk taktikasi razvedkachi UUA. Parvoz davomiyligi: 12 soatgacha davom etishi mumkin.

Orlan 10 - bu Rossiyaning taktik razvedkachi UUA. Parvoz davomiyligi (harorat oralig'ida - 5 ºC dan + 49 ºC gacha): 4 soatgacha davom etishi mumkin.

Heron TP - Isroilning strategik zarba va razvedkachi UUA. Parvoz davomiyligi: 50 soatdan ortiq bo‘ladi. Ushbu UUA asosan jangavor vazifalarni bajarish bilan birga muhim obyektlarni razvedka qilish ishlarinin bajaradi.

Xulsa qilib aytganda ushbu maqolada dronlardan obyektlarni qo‘riqlashda, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samadorligini oshirishda foydalanish mumkinligi asoslantirilgan va xalqaro tajriba sifatida Amerika Qo‘shma Shtati va Rossiya Federatsiyasi,Turkiya,Eron davlatlarini tajribasini o‘rganish bizga shunday xulosalarga kelishimizga asos bo‘ladi.

Hozirgi kunda nafaqat toifalangan obyektlarni qo‘riqlashda eng dolzarb masala balki barcha turdagi qo‘riqlanadigan obyektlarni qo‘riqlashda, ularning xavfsizligini ta’minlashda mamlakatimizda samaralari yechimlar taklif qilingan. Chunki uchuvchisiz uchuvchi apparatlarni obyektlarni qo‘riqlashda, ularda mavjud bo‘lgan xavfsizlik tizimlariga integratsiyalash, obyekt xavfsizligi darajasini oshirishi, xavfsizlik tizimida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar haqida tezda ma’lumot to‘plash va qaror qabul qilishda muhim axamyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish hamda ularni saqlash tartibi to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son qarori.

2. Internet ma’lumotlari - http:// www.aviaport.ru, http:// www.avsim.su

3. Internet ma’lumotlari - http:// www.airpages.ru, http:// www.helicopter.su

4. Internet ma’lumotlari - http:// www.aviastar-sp.ru.

TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARIDA QIDIRUV ITLARIDAN FOYDALANISH

Xamidov G‘.S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsiligi universiteti
Bronetank va avtomobil texnikasi kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada jinoyatlarni oldini olish va ochishda qidiruv texnik vositalarning imkoniyatlari hamda bunda qidiruv xizmat itlaridan foydalanishning ayrim yo‘nalishlari haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xizmat iti, tezkor-qidiruv tadbiri, texnik vositalar, kinologiya, dalil, qidiruv.

Qidiruv vositalari (texnika asboblari) ichki ishlar organlarining turli yo‘nalishlarida muhim o‘rin egallaydi. Ularni qo‘llashdan maqsad jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va ochishda tezkor qiziqish uyg‘otuvchi yoki daliliy ashyo bo‘luvchi buyumlarni izlab topishdan iboratdir. Qidiruv vositalari tezkor-qidiruv tadbirlari yoki tergov harakatlarining turli bosqichlarida ishlatilib, obyekt, buyumning qidiruviga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi.

Qidiruv vositalari tergov harakatlari hamda tergov-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

• jinoyat sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda;

• xonani, shaxslarni tintish jarayonida;

• ushlanganlar, hibsga olinganlar yoki ishlovdagi shaxslar-ning buyum va anjomlarini tekshirishda;

• maxfiy manbalar tezkor-qidiruv materiallari, tadbirlari asosida tushgan ma’lumotlarni tekshirishda;

• samolyotlarni olib qochishga qarshi kurash tadbiri o‘tkazilganda;

• tezkor tekshiruv va shaxsiy izquvarlik jarayonida;

• jazoni ijro etish muassasalaridan mahkumlarni qochish harakatlariga qarshi tadbirlarda;

• mahkumlarga berilayotgan banderol, jo‘natmalarni tekshirishda;

• tezkor yo‘l bilan olingan ma’lumotlarni tekshirish yoki shifrovka qilishda;

• tezkor hisobga olish bo‘yicha alohida tadbirlarda hamda turli sharoitlarda jinoyatchilikka oid boshqa vazifalarni mustaqil hal kilishda.

Tezkor-qidiruv tadbirlarida tezkor texnikalarni qo‘llash quyidagilarga imkon beradi:

• Tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni ishonchli va to‘liq hujjatlashtirish;

• jinoyatchilarni qidirish tadbirini samarali amalga oshirish;

• jinoyat ashyolari va vositalarini jinoiy ishlar bo‘yicha dalil sifatida qo‘llash maqsadida ularni o‘z vaqtida aniqlash;

• tezkor-qidiruv tadbirlari davomida tezkor bo‘linmalarning o‘zaro hamkorlikni samarali amalga oshirish;

• jinoyat jarayonida foydalanish uchun gumon qilinayotgan shaxslarning jinoiy faoliyati faktlarini ma’lumot tashuvchilarda aniqlash va qayd etish.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan tezkor texnikalarga quyidagilar kiradi:

• jinoiy harakatlarni kuzatishda kuzatuv va videoyozuv texnik vositalari;

• so‘rov va ma’lumotlarni to‘plashda eshitish va ovoz yozish texnik vositalari;

• o‘zaro hamkorlikni hamda ma’umotlar almashishda aloqa texnik vositalari;

• jinoyatga aloqador predmet va buyumlarni aniqlashda qidiruv texnik vositalari;

• predmetlarni belgilashda maxsus kimyoviy moddalar.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini samarali hal etish maqsadida qonun hujjatlarida texnik vositalardan tashqari, insonning hayoti va sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsiz boshqa texnika vositalarini ham («Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi 5-qismi) qo‘llash nazarda tutilgan. Bunday vositalar, xususan, xizmat itlarini o‘z ichiga olishi kerak. Ulardan foydalanish yo‘nalishlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2021 yil 9 sentabrdagi «Ichki ishlar organlarining kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 750-sonli qarori bilan tartibga solinadi, bu kinologiya bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘llanmani tasdiqladi.

Qarorning 3-bandida naslchilik pitomnigining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

nasldor itlarni tanlash, baholash, juftliklarni to‘g‘ri saralash hamda o‘z vaqtida urchitish ishlarini olib borish;

ichki ishlar organlari uchun xizmat sifatlari yuqori bo‘lgan hamda zoti standart talablariga javob beradigan kuchuklarni yetishtirish, ularni o‘stirish va kinolog xodimlarga biriktirilishiga qadar parvarish qilish;

zotdor itlarni ko‘paytirish va saralash, shuningdek, ularning ish sifatini yaxshilashda mahalliy iqlimga moslashishlari va turli kasalliklarga bardoshligini oshirishda ilmiy va amaliy faoliyatni amalga oshirish;

xizmat itlarining sifatini, zotini va mahalliy iqlim sharoitiga moslashishini yaxshilash maqsadida nasl olish ishlarining zamonaviy usullarini tatbiq etish;

manfaatdor vazirliklar va idoralar, oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, jamoat birlashmalari bilan zotdor itlar sonini oshirish masalalarida hamkorlik qilish.

Xizmat itlaridan foydalanish zarurati ularning inson imkoniyatlaridan yuqori bo‘lgan fazilatlari bilan bog‘liq: juda rivojlangan eshitish, hid hissi, ko‘rish, harakat tezligi, chidamlilik, oddiylik, muayyan muammolarni hal qilish uchun maxsus tayyorgarlik.

Xizmat itlarini yetishtirish tizimida maxsus tayyorgarlikka qarab xizmat itlarining quyidagi turlari ajratiladi:

1) qidiruvchi itlar;

2) maxsus;

3) detektorli itlar;

4) patrul xizmati itlari;

5) konvoy xizmat itlari;

6) qo‘riqchilar.

Tezkor-qidiruv faoliyati yo‘nalishida xizmat itlarining dastlabki uchta guruhi eng faol qo‘llaniladi. Qidiruv itlari jinoyat joyida predmet va

buyumlarda qoldirilgan hidlardan kelib chiqib, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni va boshqa qidiruvdagi shaxslarni qidirish va ushlash uchun ishlatiladi; shaxs va predmet va buyumlarning hididan namuna olish, ashyo va hujjatlarni qidirish, shuningdek gumon qilinuvchi va qidiruvda bo‘lgan shaxslar yashirinishi mumkin bo‘lgan joylarni ko‘zdan kechirish, ta’qib qilish va qo‘lga olishda foydalaniladi.

Qidiruv itlaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu ularning jinoyatni "issiq izi"dan aniqlash hisoblanadi. Shu munosabat bilan kinologlar ayrim turdagi jinoyatlarni ochish bo‘yicha tergov-tezkor guruhlar tarkibiga kiritilgan.

Qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, inson murdalarini (qoldiqlarini) aniqlash uchun maxsus itlardan foydalaniladi. Ular ko‘pincha portlovchi moddalar va giyohvand moddalarni aniqlash uchun turar-joy binolari, hududlar, bagaj, transport vositalari, konteynerlarni tezkor tekshirish uchun ishlatiladi.

Detektor itlar inson izlari bo‘yicha hidlarni tadqiq qilishda (odorologik tadqiqot) ishtirok etadilar. Ushbu turdagi itni "konservalangan" hidli iz bilan ishlash uchun ishlatish mumkin. Ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasining ta’sis sub’ektlarining IIB bo‘linmalarida hid biluvchi qrilmalar yaratilishi va ishlatilishi mumkin.

Homiladorlik belgilari aniq namoyon bo‘lgan ayollarni, voyaga yetmaganlarni (ular qurolli qarshilik ko‘rsatgan hollar bundan mustasno), bolasi bor fuqarolarni va qonunga xilof xatti-harakatlari uchun ularga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llashni nazarda tutgan shaxslarni ushlashda qidiruv itlaridan foydalanish qat’iyan man etiladi.

It ishtirokidagi tezkor-qidiruv faoliyati natijalari tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, u kinolog inspektori va tergov-tezkor guruhi rahbari tomonidan imzolanadi. Ushbu rasmiy hujjat dastlabki gumonlashda ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarga nisbatan qidiruv ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xizmat itlari qo‘llash samaradoligini oshirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

• og‘ir va o‘ta og‘ir hamda shaxsga qarshi jinoyatlarni fosh etishda maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlangan xizmat itlari imkoniyatlaridan

samarali foydalanish;

• jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, giyohvandlik vositalari, portlovchi moddalar, qurol va o‘q-dorilarni aniqlashda ishtirok etish;

• ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, vokzallar, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda qatnashish.

Xulosa qilib aytganda, xizmat itlarini jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonlarida qo‘llashning keng imkoniyatlari majud, faqat tezkor-qidiruv tadbir rahbari vaziyatni to‘g‘ri baholashi hamda mavjud kuch vositalardan samarali foydalanish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344 sonli Qonunni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 sentabrdagi «Ichki ishlar organlarining kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 750-sonli qarori.

KO‘CHA-YO‘L TARMOG‘IDA TRANSPORT VOSITALARINING HARAKAT TEZLIGINI NAZORAT QILISH RADARLARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Axmedov Doniyor Anvarjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig‘i, mayor
Bekmurodov Ilxomjon Raxmatilloyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
o‘qituvchisi, podpolkovnik

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma’lumotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab yo‘l-transport hodisalari oqibatida 1,5 millionga yaqin insonlar halok bo‘ladi, 50 millionga yaqin odam turli hildagi tan jarohatlarini olishadi. Bundan kelib chiqadiki, har soatda dunyoda 170 nafar inson ushbu hodisaning qurboni bo‘lmoqda. Bu ko‘rsatkich dunyoda sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlar, qo‘poruvchilik harakatlari va tabiiy ofat natijasida halok bo‘layotganlardan bir necha baravar ko‘pdir. Shu jumladan, O’zbekiston Respublikasida ham har yili o‘rtacha 1800-2300 nafar insonlar YTH natijasida vafot etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasning so‘ngi yillarda e’lon qilgan ma’lumotiga asosan, respublikada avtomobil yo‘llari orqali umumiy yuk tashish hajmi – 89% ni, avtomobil yo‘llari orqali yo‘lovchi tashish esa 98% ni tashkil etgan. Shu bois avtomobil yo‘llarini sifatli qurish, ulardan samarali foydalanish, yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning muhim vazifasi hisoblanadi. Harakat xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy texnik vositalardan biri bu tezlik nazorat qiluvchi radarlar hisoblanadi.

Radar (*Radio Detection And Ranging*) qurilmasi radioto‘lqinlarni harakatdagi obyektga uzatib, undan qaytgan to‘lqinni qayd etadi. Radardan uzatilayotgan to‘lqin va obyektdan qaytgan to‘lqinlar orasidagi chastotalarning o‘zgarish farqi hisoblanib, avtomobilning harakat tezligi aniqlanadi. Bunday radarlar Dopler effektida ishlaydigan radarlar turiga

kiradi (1-rasm). Radarlarning asosiy texnik tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

№	Texnik tavsifi	Xususiyati
1	Radar turlari	Radiochastotali, lazerli
2	Qurilma turi	Radar, video qayd etuvchi
3	Tezlikni o‘lchash chastotasining diapazoni	X, Ku, K, Ka, Laser
4	Radarning ish rejimlari	OEM, Ultra-X, Ultra-K (K-Pulse)/(Smartscan), Instant-On, HYPER-X, HYPER-K
5	Nazoratdagi harakat yo‘nalishlari	Bir vaqtda barcha yo‘nalishlarni, qarama-qarshi yo‘nalishni, yo‘l-yo‘lakay yo‘nalishni
6	Nazoratdagi harakat tasmalari soni	1 dan 4 gacha, va undan ko‘p
7	Tezlikni o‘lchash rejimi	Statsionar, harakatdagi
8	Obyektni qayd etish uzoqligi	Metr, milya
9	Tezlikni o‘lchash diapazoni	Km/soat,



1-rasm. Radioto‘lkin uzatuvchi radar sxemasi (Dopler effekti).

LiDar - “nur yordamida uzoqlikni aniqlash va izlash” tipidagi radarlar guruhi bo‘lib, u lazer nuri yordamida ishlaydi. Radardan

taralayotgan optik diapzondagi lazer impulslari obe’kta borib uriladi va undan qaytgan nurning vaqti hisoblanib, avtomobilning tezligi aniqlanadi (2-rasm).



2-rasm. Nur yordamida ishlaydigan LiDar tipidagi radarlar

Transport vositalarining ma’lum bir yo‘l oralig‘idagi o‘rtacha tezligini o‘lchash radar (kamera) komplekslari ham majud (3-rasm). Bu kompleksning “Radar” va “Lidar”dan farqi shundaki, bu kompleks haydovchi tomonidan ma’lum yo‘l oralig‘ida harakatlangan o‘rtacha tezligini hisoblaydi. Bunday kompleks ikkita kameradan iborat bo‘lib, kameralar yo‘lning bir-biridan ma’lum uzoqlikdagi A va B nuqtalariga o‘rnatiladi. A nuqtaga o‘rnatilgan kamera transport vositasini kirish vaqtini aniqlaydi, B nuqtadigi kamera esa uning chiqish vaqtini qayd etadi. O’zaro uyg‘unlikda ishlaydigan kameralar transport vositalari mazkur masofani qancha vaqtda bosib o‘tilganligini hisoblab, o‘rtacha tezlikni hisoblaydi.



3-rasm. O‘rtacha tezlikni qayd etish radarlari (kameralar)

Ushbu kompleks radar (kamera)larning eng asosiy afzalligi shundaki, transport vositalarining birinchi yoki ikkinchi kameralar yonidan qanday

tezlikda o‘tishlarining farqi yo‘q. Mazkur yo‘lning qatnov qismidagi (A va B kameralar orasidagi) transport vositasining o‘rtacha tezligi meyordan yuqori bo‘lsa, avtomatik tarzda ikkichi kamera jarimalarni tegishli joylarga jo‘natadi. Hozirgi kunda bunda kompleks radarlarga Yevropa, Avstraliya va AQShda qiziqishlar ortib bormoqda.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yo‘l nazoratiga ma’sul tashkilotlar tomonidan foydalanib kelinayotgan radarlarning ishlash dipazoni chastotasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

To‘qin diapazoni	**To‘lqin chastotasi**	**Modeli yoki foydalanadigan davlatlar**
X	10,525 GHz ±100 MGts	Barer-2M. Sokol-M.
KU	13,45 GHz ±125 MGts	Yevropada foydalaniladi.
K	24,125 GHz ±175 MGts	Arena. Berkut. Binar. Iskra.
K	24,16 GHz ±100 MGts	PKS-4.
KA	34,3 GHz ±1300 MGts	Yevropada foydalaniladi.
KA	34,7 GHz ±1300 MGts	Yevropada foydalaniladi.
LASER	800-1100 nm	Amata. LISD-2M/-2F.

Hozirgi kunda mavjud radarlar asosan quyidagi - OEM, Ultra-X, Ultra-K (K-Pulse)/(Smartscan), Instant-On, POP, HYPER-X, HYPER-K rejimlarida (texnologiyalarda) ishlaydi. Mazkur rejimlar radarlarda o‘zaro uyg‘un hollarda ham ishlatilib, antiradarlardan (radar-detektor) berkitish maqsadida foydalaniladi. Misol uchun “Iskra-1” radarlari bir vaqtda “Instant-ON” va “PULSEQPOP” rejimlarida aralash ishlatilib, 5 ta qisqa impulslarni tarqatadi.

Radardagi “Instant-ON” rejimi bu (oniy vaqtda ishga tushirish) qurilma har doim ishlab tursada, lekin xech qanday signal (nur) tarqatmaydi. Ma’lum tugmacha bosilgandan so‘ng signal tarqaladi va trasnport vositasining tezligi o‘lchanadi. Bu esa radarlarning batareyyasini uzoq vaqt ishlashi, antiradarlardan yashirinish va ularning samaradorligini oshirilishiga sabab bo‘ladi.

“PULSE” va “POP” rejimlari “Instant-ON” rejimidan farqlanadi va faqat signalning strukturasiga javob beradi. Ushbu rejimda radar juda qisqa to‘lqinli impuls tarqatib, ularni qabul qiladi. Antiradar buni chalg‘ituvchi to‘lqin (pomex) sifatida qablu qilib, haydovchini radar haqida ogihlantirmaydi.

Hozirgi kundan O’zbekiston Respublikasida Vlatacom-Lbr tipidagi radarlardan (3-rasm, a) ham foydalnilmoqda. Ular H.264 va MJPEG formatidagi и 1 Tb gacha bo‘lgan video fayllarni saqlash va transport vositalarining 10-330 km/soatgacha bo‘lgan harakat tezliliklarini qayd etish imkoniyatiga ega.



a **b**

3-rasm. Vlatacom-Lbr (a) radari va MultaRadar SD580 (b) radiolotsioan radarlari

Germaniyaning “Jenoptik-Robot” kompaniyasida ishlab chiqariladigan MultaRadar SD580 (3-rasm, b) multichastotali (“bi-dopler effektli”) radari bir vaqtning o‘zida ichki dipazondagi ikkita chastotada ishlatiladi. Bu esa o‘z navbatida harakat tezligini o‘lchash aniqligini oshirilishiga va jihozning nurlantirish quvvatini kamayishiga olib keladi. Ushbu radarning nurlanish quvvati juda pastligi sabab, transport vositalariga o‘rnatilgan zamonaviy radar-detektorlar - “antiradarlar” ham payqab qolishi juda qiyin. U harakat tezligini oshirish, sfetoforni taqiqlovchi chirog‘ida o‘tish va qarama-qarshi yo‘nalishga chiqish kabi qoidabuzarliklarni qayd etadi.

Hozirgi kunda transport vositalarini tezligi kompleks nazorat qiluvchi radarlar mavjud. Bunday radarlar statsionar (qo‘zg‘almas) rejimda

va harakatlanib ketayotgan transport vositasiga o‘rnatilgan holda (patrul rejimida) ham ishlatiladi. 4-rasmda radiolokatsion “Multaradar CD moving” radar kompleksining umumiy ko‘rinishi keltirilgan.



a b

4-rasm. Radiolokatsion “Multaradar CD moving” radar kompleksi a-statsionar (qo‘zg‘almas) rejimda; b-patrul (harakatdagi) rejimda

Ushbu “MultaRadar” yoki “MultiRadar” transport vositasining tezligini o‘lchash, nazorat qilanayotgan yo‘l qismida boshqa qoidabuzarliklarni ayni vaqti va joyini foto qayd etish uchun foydalaniladi.

Hulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, radarlarni ko‘cha-yo‘l tarmog‘iga keng tatbiq etish orqali og‘ir oqibatli yo‘l-trasnsport hodislarini oldini olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘l harakati qoidalari [Matn] : Normativ hujjat / O.Ch.Saidov. – Toshkent: “Avtohamroh”, 2022. – 152 b.

2. Yo‘l harakati qoidalariga batafsil sharhlar / N.F.Muhitdinov, B.K.Qayumov, K.Y.Gafurov. Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya instituti. – Toshkent: “Nurafshon business” nashriyoti, 2020 – 240 bet.

3. Yo‘l harakati qoidalariga sharhlar / G‘.Mamatqulov, N.T.Zokirov, A.A.Shonazarov. – Toshkent:. O‘zbekiston nashriyoti, 2017. – 268 b.

4. Yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan joyda hujjatlarni rasmiylashtirish uchun. O‘quv qo‘llanma (YPX xodimlari uchun). – Toshkent: 2021 y. – 20 b.

OBYEKTLARNI PERIMETR BO‘YICHA QO‘RIQLASHIDA QO‘LLANILADIGAN TEXNIK VOSITALARINING TAHLILI

Xamidov G‘aybulla Saypullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsiligi universiteti
Bronetank va avtomobil texnikasi kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada xabar beruvchilarni obyektiv baholash imkonini beruvchi va iste’molchiga bir yoki bir nechta turdagi detektorlardan foydalangan holda himoya qilishni talab qilinadigan qo‘riqlashni ishonchlilik bilan tashkil etishga yordam beradigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riqlash, xabar beruvchi, texnik vosita, perimetr, jinoyatchi, aniqlash, buzg‘unchi, gumonlanuvchi, mutaxassis.

Аннотация: В статье предлагается разработка системы показателей, позволяющей объективно оценить информаторов и помогающей потребителю надежно организовать необходимую защиту с использованием одного или нескольких типов детекторов.

Ключевые слова: безопасность, информатор, техническое средство, периметр, преступник, обнаружение, нарушитель, подозреваемый, специалист.

Abstract: The article proposes the development of a system of indicators that allows for an objective assessment of whistleblowers and helps the consumer to reliably organize the required protection using one or more types of detectors.

Keywords: security, whistleblower, technical tool, perimeter, criminal, detection, intruder, suspect, specialist.

Muayyan texnik vositalardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan har bir mutaxassis muqarrar ravishda o‘z maqsadlariga erishish uchun obyektiv baholash va uskunani to‘g‘ri tanlash muammosiga duch keladi.

Matbuotda perimetri xavfsizlik signalizatsiya tizimlari haqida nashr etilgan materiallar, qoida tariqasida, o‘quvchiga ma’lum bir xabar beruvchi

yoki tizimning ishlash tamoyillari, signalni qayta ishlash usullari va sxemalar haqida ma’lumot beradi.

Ammo iste’molchiga, ko‘pincha, huquqbuzarlikni aniqlash ishonchliligi va yolg‘on ishlab ketish darajasi bilish muhimroqdir.

Shuning uchun xabar beruvchilarni obyektiv baholash imkonini beruvchi va iste’molchiga bir yoki bir nechta turdagi detektorlardan foydalangan holda himoya qilishni talab qilinadigan ishonchlilik bilan tashkil etishga yordam beradigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish mavzusi muhokama uchun taklif etiladi. Shu bilan birga, baholashlar tushunarli va takrorlanishi kerak. Ayrim ko‘rsatkichlarning meyoriy hujjatlarga mos kelmasligi sababli detektorlardan foydalanishni cheklash yoki taqiqlash ham mumkin emas.

Tabiiyki, sifatli aniqlash xususiyatlari birinchi o‘rinda turishi kerak. Ularni ishlab chiqishga mumkin bo‘lgan tahdidlarning modellari talab qiladi. Bunda mulkiy jinoyatlarga g‘arb davlatlarining yondashuvi yordam berishi mumkin, unga ko‘ra tahdid uchta asosiy sinfga bo‘lingan: tasodifiy huquqbuzar yoki xudbin manfaatlariga ega bo‘lmagan johil odam, qandaydir qulay vaziyat yuzaga kelganda, tayyorgarliksiz o‘g‘irlik qilgan jinoyatchi va tajribali jinoyatchi, zarur bilimga ega bo‘lgan va jinoyatni rejalashtirib tayyorlay oladigan. Bu holda, ehtimol, yana ikkita sinfni qo‘shish kerak bo‘ladi: ma’lumoti xavfsizlik signalizatsiya uskunasini chuqur o‘rganishga va jinoyatni puxta tayyorlashga imkon beradigan mutaxassis va ekspertlarni jalb qilish qobiliyatiga ega va tezkor-qidiruv faoliyati usullaridan foydalanadigan tashkilot. Ushbu ikki sinf asosan terrorizm va uyushgan jinoyatchilik sohasidagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar bilan shug‘ullanadi.

Keling, ushbu tahdidlarni baholashni shakllantirishga harakat qilaylik.

1. Tasodifiy buzg‘unchi. U jinoiy niyatga ega emas, uskunani bilmaydi, kirish uchun moslashtirilgan vositalardan foydalanmaydi va tajavvuz qilayotgan hududidagi to‘siqlarni yengib o‘tish uchun maxsus usullardan foydalanmaydi. Ushbu turdagi buzg‘unchilarga qarshi ishlatiladigan perimetr xavfsizlik signalining maqsadi bosqinning eng oddiy, ochiq shakllarini aniqlashdir. Ko‘pgina hollarda, ushbu toifadagi xavfsizlik signalizatsiyasi texnik mustahkamlash vositalari bilan

almashtirilishi mumkin (tikanli simdan yasalgan to‘siq, balandlikdagi panjara va boshqalar).

2. Havaskor jinoyatchi. Bunday qoidabuzar qulay vaqt paydo bo‘lganda jinoyat qilishga qaror qiladi. U perimetri xavfsizlik signalizatsiya uskunasini bilmaydi, kirish uchun moslashtirilgan vositalardan foydalanishi mumkin va kirishda ehtiyot bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, harid qilinayotgan uskunalarning asosiy qismi, shu jumladan mahalliy uskunalar ham shunday qoidabuzarliklarni aniqlashga qaratilgan.

3. Tayyorlangan buzg‘unchi. U tashqi ko‘rinishi bo‘yicha uskunani tushunadi va aniqlay oladi, ishlash printsipini va aniqlash hududlari shaklini biladi. U ushbu uskunaga xos zaifliklarni topishi va ulardan foydalanishi, mo‘ljallangan aniqlash hududiga kirib borish va chetlab o‘tish uchun qo‘lbola vositalardan foydalanishi, ataylab yolg‘on signallarni keltirib chiqarishi mumkin va agar u kirish imkoniga ega bo‘lsa, uskunani o‘chirish uchun moslashtirilgan vositalardan foydalanishi mumkin.

4. Buzg‘unchi qo‘riqlash signallari sohasida professional bilimga ega. U kirish yo‘llarini oldindan o‘rganadi va unga tayyorgarlik ko‘radi. U uskunani va uning zaif tomonlarini mukammal biladi. Zaifliklarni aniqlaydi va qo‘llaydi, kirish uchun maxsus usullar, vositalar va qurilmalardan foydalanadi, qarshi ta’sir ko‘rsatishi, uskunani zararsizlantirishi yoki o‘chirib qo‘yishi va kirishni yolg‘on signal sifatida yashirishi mumkin.

5. Professional jinoiy tashkilot. Bunday tashkilot qo‘riqlanadigan obyektga yashirin bosqinni tayyorlash uchun zarur moliyaviy, jamoaviy va texnik resurslarga ega bo‘lishi mumkin. U obyektni batafsil o‘rganishi, uskunani zararsizlantirish loyihalarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi mumkin. Bunday tashkilotga faqat murakkab muhandislik, texnik va signalizatsiya tizimlari, ulardan foydalanish taktikasi haqidagi ma’lumotlarning yuqori maxfiyligi bilan kurashish mumkin. Tavsiya etilgan tahdid sinflariga muvofiq siz buzg‘unchining modelini, uning imkoniyatlari va qobiliyatlarini yaratishingiz mumkin:

Sinf	1	2	3	4	5
Obyektni o‘rganish	amalga oshirilmaydi	amalga oshirilmaydi	ko‘rish orqali amalga oshiriladi	ko‘rish orqali amalga oshiriladi	TQF usullarini qo‘llab amalga oshiriladi
Obyektga kirishga tayyorgarlik	amalga oshirilmaydi	amalga oshirilmaydi	jinoyat joyida amalga oshiriladi	oldindan amalga oshiriladi	mutaxassisni jalb etib amalga oshiriladi
Kirish usullari	ochiq	yashirin	yashirin	maxsus tayyorlangan	maxsus tayyorlangan
Kirish vositasi	qo‘llanmaydi	qo‘lga tushgan vosita	qo‘lga tushgan vosita	maxsus tayyorlangan	maxsus tayyorlangan
Inshoatlarni buzish	qo‘llanmaydi	qo‘lga tushgan vosita	oldindan tayyorlangan asbob	maxsus asbob	maxsus asbob va uskunalar
Sezdirmaslik hududini yaratish	qo‘llanmaydi	qo‘llanmaydi	qo‘lga tushgan vosita	maxsus vosita	maxsus vosita
Qo‘riqlash signalizatsiyasini ishdan chiqarish	Varona qilish	qo‘llanmaydi	ochiq	yashirin	yashirin
Aniqlash hududini ta’sirini bekor qilish	-	-	-	amalga oshirilishi mumkin	amalga oshirilishi mumkin
To‘siq yaratish	qo‘lga tushgan vosita	-	qo‘lga tushgan vosita	oldindan tayyorlangan vosita	maxsus ishlangan va tayyorlangan vosita
Sezilmaydigan hududlardan foydalanish	-	-	yaqqol	yashirin	yashirin

Buzg‘unchilar modellarining tavsiya etilgan tasnifini sinab ko‘rish uchun biz bir qator qo‘riqlash xabarchilarining ishlashini simulyatsiya qilishga va ularni baholashga harakat qilamiz.

1. To‘siqning yuqori qismida o‘rnatilgan bir nurli faol optik-elektron detektor. Agar tajovuzkor panjara ustiga ochiq ko‘tarilsa, bunday detektor signal berishi mumkin. Yashirin ko‘tarilayotganda, tajovuzkor to‘siqdan yuqoriga ko‘tarilmaslikka harakat qilganda, detektorni o‘rnatish balandligining yuqoriligi nishonni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Detektor tomonidan to‘siqni qisman buzish orqali kirish ham aniqlanmaydi. Aniq belgilangan aniqlash hududi sinovdan o‘tmasdan uni chetlab o‘tishga imkon beradi. Shuning uchun, panjara tepasida o‘rnatilgan bitta nurli faol optik-elektron xabar beruvchi, tasodifiy buzg‘unchilardan himoya qilish uchun qo‘llanishi va o‘rnatish balandligi va mustahkamligi cheklovlari bilan to‘siqlar - havaskor jinoyatchilardan qo‘riqlashda foydalaniladi. Nurning yo‘lini bilgan professional jinoyatchi ushbu detektorni narvondan foydalangan holda osongina chetlab o‘tishi mumkin.

2. Tebranish orqali xabar beruvchi qurilmalar to‘siqning yuqori qismidagi to‘rli soyaboniga o‘rnatilgan.Yuqoridagi barcha fikrlar, o‘rnatish balandligidan tashqari, to‘siqning yuqori qismidagi to‘rli soyaboniga o‘rnatilgan tebranish orqali xabar beruvchi qurilmalariga to‘liq taalluqlidir.

3. To‘r panjarasiga o‘rnatilgan tebranish orqali xabar beruvchi qurilmalar. Bundan tashqari, u faqat tasodifiy bosqinchilar va havaskor jinoyatchilardan himoya qilishi mumkin. Devorni narvonlar yordamida tepasidan sakrash orqali osongina yengib o‘tish mumkin. To‘g‘ri, bu holda panjara mustahkamligiga qo‘yiladigan talablarni olib tashlash mumkin, ammo kerakli aniqlash xususiyatlarini tartibga soluvchi to‘siq materialiga qo‘yiladigan talablarni oshirish lozim.

4. “Gazon” tipidagi radioto‘lqin orqali xabar beruvchi qurilmalar. Tasodifiy bosqinchilar va havaskor jinoyatchilardan ishonchli himoyani ta’minlaydi. Shu bilan birga, yer sathidan 0,8 m gacha balandlikda o‘lik hududning mavjudligi tayyorlangan bosqinchiga bunday qurilma bilan jihozlangan mudofaa chizig‘ini osongina yengib o‘tishga imkon beradi. Keltirilgan misollarni ko‘rib chiqib, ikkita muhim xulosaga kelish

mumkin. Birinchidan, detektorlarning eng ko‘p qo‘llanilayotgan turlari va ulardan foydalanish usullari eng yaxshi yoki juda ishonchli emas. Ikkinchidan, perimetrni himoya qilishning yuqori ishonchliligi vazifasi haqiqatan ham juda murakkab va qimmat hisoblanadi. Masalani hal etishning eng sodda yo‘li - qurilmalarning kombinatsiyasidan foydalanish. Masalan, “Gazon” radio to‘lqin detektori to‘r panjarasiga o‘rnatilgan tebranish detektori bilan birgalikda professional jinoyatchidan yaxshi himoya qilishi mumkin.

Malakali o‘quvchida, tabiiyki, darhol savol tug‘iladi: yolg‘on xabar berishlar muammosi taklif qilingan tasnifga qanday bog‘liq bo‘lishi mumkin?

Birinchidan, bu qo‘riqlash xodimlarining hushyorligiga bevosita ta’sir qiladi. Ikkinchidan, ular yo‘q bo‘lganda signallarning to‘satdan paydo bo‘lishini yuqori ehtimollik bilan tajovuzkorning tizimning zaifliklarni qidirish va kirishga yoki juda tez kirib borishga tayyorgarlik ko‘rish harakatlari deb hisoblash mumkin. Bunday holda, yolg‘on ishga tushish darajasi qanchalik past bo‘lsa, ehtimollik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Aniqlanish hududining o‘ziga xos uzunligidan kelib chiqqan holda, yolg‘on signallarga qarshilikka asoslangan tasnifni joriy etish taklif etiladi.

1. Aniqlash hududining 1 km uchun sutkasiga 10 dan ortiq signal.
2. Aniqlash hududining 1 km uchun sutkasiga 2-10 signal.
3. Aniqlash hududining 1 km uchun sutkasiga bir yoki undan kam signal.
4. Aniqlash hududining 1 km uchun oyiga bir yoki undan kam signal.
5. Aniqlash hududining 1 km uchun yiliga bir yoki undan kam signal.

Afsuski, barcha ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarining yolg‘on ishlashga moyilligi haqida baliq kabi jim turishadi. “Perimetrni qo‘riqlash” kitoblarida 95% aniqlash ehtimoli bilan mahalliy sig‘imli qo‘riqlash signalizatsiya qurilmalarida 500 metr uzunlikdagi yolg‘on signallarni 10 kunda bittaga kamaytirishga muvaffaq bo‘lganligi katta yutuq sifatida keltirilgan. Hajmli xabar beruvchi qurilmalar uchun bu juda katta yutuq. Va triboelektrik samaradan foydalanadigan tebranish xabar qurilmalarida

juda barqaror hisoblanadi. Bu nafaqat mahalliy ishlab chiqaruvchilarga, balki g‘arbiy davlatlarga ham tegishli.

Taklif etilayotgan tasnif nuqtai nazariga shovqin yuzaga keltirish, xabar beruvchilarni o‘chirish va zararsizlantirish kiradi. Ushbu ta’sirlardan himoyalanishning eng samarali chorasi sifatida xabar beruvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirishni cheklash keng qo‘llaniladi. Ammo elektromagnit impuls yoki garmonik shovqin generatorlari yordamida masofadan turib shovqin chiqarish yoki xabar beruvchilarni bartaraf etishni amalga oshirish ham mumkin. Bu birinchi navbatda sig‘imli, radioto‘lqinli, radio nurlari va magnitometrik xabar beruvchilarga tegishli. Shu sababli kelgusida tashqi ta’sirga chidamli va va sinov usullarini yanada takomillashtirish ustida izlanishlar olib borilishi lozim.

Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar to‘liq, to‘g‘ri yoki obyektiv deb da’vo qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.S.Xamidov va boshqalar. IIOlarining maxsus texnika vositalari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi T., 2018 y. – 272 b.

2. N.M.Xojiyev. Jinoyatchilika qarshi kurashda qo‘riqlash signalizatsiyalari vositalari imkoniyatidan foydalanish. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv bo‘linmalarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi maqolalar to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi T., 2018 y. – 47-52 b.

ПРИМЕНЕНИЕ ХИМИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГРАФЕНА ДЛЯ ДАТЧИКОВ ОБНАРУЖЕНИЯ АВАРИЙНО-ХИМИЧЕСКИ ОПАСНЫХ ВЕЩЕСТВ

Мухамедов Шерзод Нурматиллаевич
Академия МЧС РУ, старший преподаватель кафедры профилактики ЧС, +998-33-005-58-18
Торениязов Муратбек Пулатбек
Академия МЧС РУ, курсант 4-курса

В основе организационных мероприятий заложены следующие научные разработки: «Методика прогнозирования масштабов заражения СДЯВ при авариях (разрушениях) на химически опасных объектах и транспорте», 1991 г. [1]; «Методика прогнозирования и оценки обстановки при выбросе в окружающую среду хлора и других АХОВ», 1998 г. [2]; «Методология определения мер по защите населения при авариях на ХОО», 1998 г. [3].

Методология позволяет заблаговременно определять зоны постоянных мер защиты населения, находящегося вблизи ХОО, и зоны различных мер защиты населения на максимально возможную глубину загрязнения территории при аварии на ХОО, а также последовательность выполнения мер:

Определение мер защиты населения проводится в два этапа.

Первый этап — заблаговременное определение зон планирования мер по защите населения.

Второй этап — определение зон проведения мер по защите населенияпри возникновении аварии и ликвидации аварии.

Размеры и положение зон планирования определяются методом моделирования возможных аварий по исходным данным, при которых глубина загрязнения будет максимальной. Ввиду неточности

и ненадежности долгосрочного прогноза погоды, планирование осуществляется по круговым зонам (рис. 1).

Зона № 1 — зона укрытия населения в средствах коллективной защиты (убежищах, герметизируемых помещениях) с использованием, при необходимости, средств индивидуальной защиты. Радиус зоны составляет 1,5–2 км и зависит от типа ХОО, количества и класса опасности АХОВ.

Зона № 2 — зона планирования различных мер по защите населения в зависимости от сложившейся обстановки после аварии. Зона представляет собой круг с радиусом, равным максимально возможному расстоянию распространения облака, данного АХОВ при самых сложных метеоусловиях.



Рис. 1. Графическое отображение зон планирования и проведения мер по защите населения при авариях на ХОО

1. ***Планирование защиты персонала ХОО и населения при авариях*** осуществляется в соответствии с общими положениями планирования применительно к данному виду ЧС. Особое внимание уделяется планированию укрытия населения в СКЗ и герметизируемых помещениях, проводимое в зоне № 1, а также

эвакуации населения из объектов защиты с обоснованием возможности проведения данного способа защиты.

2. ***Создание и поддержание в постоянной готовности сил и средств ликвидации аварии.*** В зависимости от масштаба аварии к ее ликвидации могут привлекаться:

силы 1-го эшелона - аварийно-спасательные формирования ХОО, подразделения постоянной готовности городов, ведомств, дежурные силы министерств, имеющих ХОО;

силы 2-го эшелона - территориальные аварийно-спасательные формирования, химические подразделения войск ГО, химические и инженерные подразделения Минобороны, подразделения поисково-спасательной службы МЧС, аварийно-спасательные формирования ГО.

3. ***Контроль химической обстановки.***

Под химической обстановкой понимается наличие в окружающей среде определенного количества и концентраций опасных химических веществ, в основном техногенного характера. В зависимости от степени загрязнения среды химическая обстановка может быть нормальной или химически загрязненной (определяется по величинам ПДК и ИЗС).

Контроль химической обстановки проводится в атмосферном воздухе, в почве литосферы и в гидросфере. Основное внимание уделяется контролю химического загрязнения воздуха как определяющего фактора химического загрязнения окружающей среды [4].

Приборы, системы и средства химического контроля воздуха

а) отдельные приборы:

Газоанализаторы – приборы для измерения одного или нескольких компонентов в газовой смеси. Автоматические газоанализаторы работают по заданной программе: отбирают пробы воздуха, измеряют концентрации контролируемых компонентов, выдают и записывают результаты анализа, удаляют взятые пробы воздуха. Они подразделяются на приборы непрерывного или циклического действия, а также механические, звуковые,

ультразвуковые, электрохимические, ионизационные, электротехнические, тепловые, магнитные, оптические (фотоколориметрические) и комбинированные.

Сигнализаторы - приборы, которые подают сигналы при повышении концентрации анализируемых химических веществ в воздухе. Они не предназначены для качественной оценки фактической концентрации АХОВ в контролируемой среде.

Газовые хроматографы – приборы предназначены для определения наличия микропримесей в различных веществах, материалах и в окружающей среде. Приборы позволяют одним анализом определить качественный и количественный состав сложной химической смеси, содержащей 100–200 летучих компонентов [5].

Передача данных от *АСДМ* - *«Лидар»* в Центр управления в кризисных ситуациях (ЦУКС) осуществляется посредством спутниковой связи [6].

Автоматизированная система контроля утечки токсичных газов и оповещения ХОО предназначена для непрерывного измерения концентрации токсичных газов на территории и в помещениях ХОО. Все измерения осуществляются с помощью датчиков, которые устанавливаются в местах с наибольшей вероятностью появления токсичных газов. Датчики запрограммированы на величину пороговой концентрации. При повышении концентрации токсичных газов выше пороговой происходит срабатывание датчиков, включаются звуковая и световая сигнализации об аварии. Одновременно определяются уровни аварии, прогнозируются последствия развития данной аварии, выдаются результаты на монитор программно-вычислительного комплекса ХОО и осуществляется автоматическая передача данных об аварии в соответствующие органы управления МЧС.

4. Накопление и организация хранения средств индивидуальной защиты осуществляется по месту работы и жительства населения (в первую очередь в пределах 1,5-2 - километровой зоны вокруг ХОО) в готовности к немедленному

использованию СИЗ при возникновении химической аварии.

Средства индивидуальной защиты для персонала ХОО: изолирующие и промышленные противогазы; изолирующая защитная одежда по виду АХОВ на объекте.

Промышленные противогазы защищают органы дыхания от широкого спектра АХОВ и оснащаются фильтрующе-поглощающими коробками для защиты от конкретных АХОВ либо групп АХОВ. В коробках находятся несколько специальных химических поглотителей. Противогазы последних модификаций оснащены также противоаэрозольным фильтром, который надевается поверх коробки и его можно заменить по мере насыщения. По внешнему виду коробки разного назначения различаются окраской или цветным пояском по верхнему краю коробки и буквенным обозначением. Промышленные противогазы изготовляют больших, средних и малых габаритов. Противогазы большого габарита обеспечивают длительное время защиты при высоких концентрациях АХОВ.

Данные обстоятельства и определили необходимость постановки решаемой научной задачи, которая заключается в анализе применения ИК-Фурье спектрометрических методов анализа в решении задач химической разведки и контроля в условиях применения противником боевых отравляющих веществ. В ходе решения этой задачи в диссертационной работе в соответствии с поставленными целями получены следующие основные результаты:

1. Проведённый сравнительный анализ принципа работы ИК-Фурье спектрометрических методов при идентификации спектров органических веществ, показывает, что наблюдается ослабление интенсивности излучения при нахождении сектора наблюдения на одной точке приводит к увеличению времени определения апробируемого вещества. Для дальнейшей работы необходимо проводить перезапуск прибора повторно.

2. В ходе проведения исследования возможностей индикации токсичных химикатов и АХОВ в ИК областях спектра были изучены методы индикации этилового спирта и аммиака в атмосфере и на поверхности различных объектов. Если соблюдать все метео и

технические условия с большой долей вероятности можно отметить, что прибор выдает достоверные данные и быстродействие находится в пределах указанных параметров в технической документации. Несмотря на это, хочется особо заметить, что только лишь одного прибора для получения данных о применении противником токсичных химикатов и обнаружения АХОВ не будет достаточным, нужен комплексный подход, т.е. должна функционировать целая система по обнаружению и определению концентраций токсичных химикатов и АХОВ.

Список использованных источников

1. Отчет о научно-исследовательской работе [Текст] Разработка экспериментальной установки по выявлению возможности индикации токсичных химикатов на различных поверхностях с использованием дистанционных приборов химической разведки: шифр «Поверхность-Э». Итоговый / Г.В. Мацюк [и др.]. – Кострома: ВА РХБЗ, 2015. – 68 с.
2. Анализ методов и средств индикации токсичных химикатов и АХОВ на различных поверхностях, шифр «Поверхность» [Текст] / Отчет о НИР (промежуточный) / Г.В. Мацюк [и др.]. – Кострома: ВА РХБЗ, 2012. – 86 с.
3. Манец А.И. и др. Разработка научно-методических основ создания оптимальной системы средств РХБ разведки и контроля– Вольск-18: в/ч 61469, 2002. – 96с.
4. Индикация, технические средства химической, неспецифической биологической разведки и химического контроля [Текст]: учебное пособие / Под ред. С.Н. Сизикова – Кострома: Издание академии, 2009. – 490 с.
5. США, www.midac.com
6. США, www.nycedo.com
7. США-Канада, www.bomem.com
8. (Италия-Германия, www.kayser.it
9. www.blockeng.com)

QO‘RIQLASH VA VIDEO KUZATISH TIZIMLARIDAGI TOLALI OPTIK TEXNOLOGIYALARI

Parisiyev S.S.
Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-texnologiyalari kafedrasi professori, t.f.d.
Abdullayev SH.U.
Jamoat xavfsizligi universiteti Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, f-m.f.n.

Bugungi kunda tolali optik texnologiyalar katta masofalardagi texnogen va tabiiy yuzaga keladigan yuqori darajadagi elektromagnit shovqinli to‘siqlar bo‘lgan ko‘p kilometrli perimetrlarni qo‘riqlash obyektlari tizimlariga tatbiq etilmoqda. Bu kabi obyektlar uchun qo‘riqlash signalizatsiyaning perimetral tolali optik tizimini qo‘riqlash videokuzatuv tizimi bilan kompleks qo‘llagan holda tolali optikadan foydalanish xosdir.

Signallarni yuqori sifatli uzatishdan tashqari signallarni tolali optik vositalar orqali uzatishning afzalligi katta masofalarga retranslyatorlarsiz uzatish, elektr, magnit va elektromagnit shovqinli to‘siqlar va chaqmoq zarbalariga nota’sirchanlik, tashqi muhitga nisbatan nurlanishning yo‘qligidan iborat. Ular yuqori ishonchliligi, uzoq muddat xizmat qilishi va ekspluatatsiya qilishga soddaligi bilan ajralib turadi. Aloqaning tolali optik kanallari narxini baholashda mis liniyalardan foydalanuvchi kanallarga nisbatan yopiq videokuzatuv tizimi va perimetrning shunga tenglashtirilgan boshqa qo‘riqlanishi sharoitlarida nafaqat uzatgichlar, qabul qilgichlar va kabellarning bahosini, balki aloqaning boshqa tarkibiy kanallarining, shu jumladan quyidagilarning bahosini ham hisobga olish lozim:

- zaruriy sifat bilan mis kabellar orqali signallar berish uchun oraliq retranslyatorlar bahosini;
- retranslyatorlarga ulanuvchi iste’mol manbalarining bahosiga iste’mol manbalarini ob-havodan himoyalovchi qoplamalari bahosi va iste’mol liniyalari baholari kiritilgan holdagi umumiy bahosini;

- elektr toki va shovqinli to‘siqlardan himoyalash uchun erga ulanuvchi us-kunalarning vositalari bahosini;
- atmosfera elektridan himoyalash uskunalari bahosini;
- kabellardan ma’lumotlarni ruxsat berilmagan holda olinishiga to‘sqinlik qiluvchi yotqiziladigan metall trubalar yoki ekranlashtiruvchi lotoklar bahosini.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, ulovchi liniyalar diapazonidagi 100 metrdan 1 kilometrgacha bo‘lgan masofada bir juft o‘ramdagi aloqa kanallarini (1,85-1,95) qo‘llagan holdagi bahosi tolali optik liniyalardan foydalanish bahosidan deyarli ikki marotaba kam bo‘ladi. Liniyalar uzunligi 1,5 kilometrgacha oshirilganida bu kanallarning bahosi deyarli tenglashadi, biroq bir juft o‘ramdagi aloqa kanallarini qo‘llash holatida hatto shov-qinli to‘siqlar bo‘lmaganida ham signallar sifatiga kafolat saqlanmaydi, ammo shu bilan bir vaqtda tashqi ta’sirlardan qat’iy nazar tolali liniyalar sifatli signallarni ta’minlab beradi. Shuni ta’kidlash joizki, tolali optik kamerali kanallar mamlakatda ishlab chiqarilgan jihozlar bilan birga qo‘llanilganida, ularning bahosi chet davlatlarda ishlab chiqarilgan xuddi shunday kanallarning bahosidan uch-to‘rt marotaba past, lekin signallarni uzatish sifati va bu kanallar uchun o‘rnatiladigan jihozlarning ishonchliligi deyarli bir xil bo‘ladi.

Qo‘riqlash tizimlarida aloqaning tolali optik liniyalari quyidagi holatlarda imkoniyatlarga ega emas:

- juda katta masofada (1,5 dan 10 kmgacha) televizion va boshqa signallarni kabel orqali uzatishda;
- TV ko‘rsatuvlarini va xizmat signallarini uzatish liniyalarini shovqinli to‘siqlar manbalari mavjud bo‘lganida ochiq usulda o‘tkazishda;
- yuqori chaqmoq faolligi bo‘lgan joylarda liniyalar o‘tkazishda;
- ma’lumotlarni ruxsat berilmagan tartibda olinishidan himoyalash zaruriyatida.

Perimetrlarni qo‘riqlash tizimida optik tolani qo‘llashning asosiy tamoyillari quyidagicha:

Ma’lumki, optik tola – har qanday tolali optik kabellarning asosi hisoblanadi. U yuqori sindiruvchi ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan ichki

qatlam, past sindiruvchi ko‘rsatgichga ega bo‘lgan sirtqi qatlam va himoya qobig’idan tashkil topgan (1-rasm).

Yorug’lik qatlamlar chegarasida to‘liq ichki aks ettirilishga duch kelib, ichki qatlamda tarqaladi. Yupqa asosli (7-9 mkm) bir modali tolalarda (2-rasm) bir modaning tarqatilishi rejimi amalga oshiriladi.

Katta hajmdagi asosi bo‘lgan (50 mkm va undan ortiq) ko‘p modali tolalar yorug’lik to‘lqinlarining ko‘p turini qo‘llash imkoniyatini beradi, chunki turli optik yo‘llar (1, 2, 3) bo‘lishi mumkin. Optik nurlar atamalarida bu ichki va sirtqi qatlamlarning bo‘linish chegarasida turli burchak ostida nurlarning qaytishi mumkinligini bildiradi. Bir nech o‘n kilometrdan yuzlab kilometrlargacha bo‘lgan masofalarda aloqaning magistral liniyalari boylab signallarni uzatish uchun bir modali tolalar qo‘llaniladi. 10 kilometrgacha bo‘lgan masofaga signallarni uzatishda ko‘p modali tolalar qo‘llanilishi mumkin.



1-rasm. Optik tolaning kesishuvi



2-rasm. Bir modali (a) va ko‘p modali (b) optik tolalarda yorug’lik nurlarining

Aloqaning tolali optik liniyasining bir tipdagi chizmasi quyidagi-larni o‘z ichiga oladi (3,a-rasm):

- bir modali liniyalarda ma’lumotlarni raqamli uzatish (odatga ko‘ra) uchun yarim uzatgichli lazerli uzatgich yoki ko‘p modali liniyalar orqali uzatish uchun yorug’lik tarqatuvchi diod;
- bir necha optik tolali (64 tagacha) kabel 2;
- foto qabul qiluvchi 3 – yorug’likni elektr signaliga aylantiruvchi.

Optik tolaning sensorli xususiyatlari toladagi yorug’lik to‘lqinining tuzilishi tashqi ta’sirlarga nisbatan juda ta’sirchanligi, ular amplituda, faza,

moda tarkibi yoki to‘lqinning qutblashishini modullashtirishi mumkinligi bilan ifodalanadi. Tolali optik sensorli tizimlarda bu tavsiflarning tahlili va demodullash va optik tolalarga yoki optik tola qattiq bog’langan tashuvchi muhitga ta’sir haqidagi signallarni yoki qayta ishlash yuzaga keladi.



3-rasm. Perimetrni videokuzatuv va qo‘riqlash signalizatsiyasi orqali qo‘riqlash tizimida tolali optik texnologiyalarning bir turliligi

Hozirgi vaqtda tolali optik sensorli tizimlar konstruktsiyalari haqida etarli darajada ma’lumot ko‘p. Modulli tamoyil (printsip)ni ekspluatatsiya qiladigan tizimlar, ya’ni turli tuzilmaviy birliklardan iborat aloqa va xabarlash vazifalarini bajaradigan tizimlar keng tarqalgan. Bunday birlik (modul) quyidagilarni o‘z ichiga oladi (3,b-rasm):

- lazer uzatgich;
- ta’sirga sezuvchan bo‘lmagan tolali optik kabel (aloqa kabeli);
- tolali optik sensorli kabel;
- foto qabul qiluvchi - yorug’likni elektr signaliga aylantiruvchi.

3-a va 3b- rasmlardan ko‘rinib turibdiki, aloqa liniyalari va sensorli tuzililishlarning shaklli tuzilmalari bir-biriga to‘liq mos keladi. Shu sababli ma’lumotlarni uzatishning tolali optik va tolali optik sensorli tizimlarning montaji boyicha barcha asosiy texnologik operatsiyalar bir xilda o‘tkazilishi mumkin. Ularni amalga oshirish uchun dunyo va mamlakat bozorlarida keng taqdim etilayotgan standart qarorlar, materiallar va asbob-uskunalardan foydalaniladi.

Perimetrni signalizatsiyali qo‘riqlash tizimida tolali optik texnologiyalar

Perimetrni signalizatsiyali qo‘riqlash tolali optik tizimining chizmasi 4-rasmda ko‘rsatib berilgan. Har bir qo‘riqlash hududidagi to‘siqqa qo‘riqlash zonasi hududi boylab o‘ziga xos bo‘lgan ilmoqlarni shakllantiruvchi sensorli tola qattiq mahkamlanadi 2s. Uzatgichdan 1 sensorning ilmoqlari orqali optik signal qabul qilgich 5 (priyomnik)ga uzatiladi. Signallarni 2,3 ,4 tolali optik liniyalar orqali uzatish ham televizor orqali qo‘riqlash tizimida ko‘rsatilgandek yuzaga keladi.

Huquqbuzar to‘siqdan oshib o‘tishga harakat qilganida, unda to‘siq konstruktsiyalari orqali sensorli kabelga tebranish uzatiladi va optik tolaning deformatsiyalanishini yuzaga keltiradi. Bu yorug’lik to‘lqinlari parametrlarining modulyatsiyasi va ularni tarqatish rejimining o‘zgarishiga olib keladi. Idrok etishning sun’iy elementlaridan tashkil topgan qayta ishlash tizimida, real vaqt rejimida qo‘riqlanayotgan to‘siqqa qabul qilinayotgan signaldan kvalifikatsion ta’sir alomatlarining ajralib chiqishi kuzatiladi. Bostirib kirish alomatlarini aniqlagan holatida tashvish signali shakllanadi va u indikatorlarda 10 aks ettiriladi yoki boshqa qo‘riqlash tizimlariga kelib tushadi.



5-rasm. Perimetrni signalli qo‘riqlash tolali optik tizimi:
1 – optik uzatgich; 2 – aloqa kanalining optik tolasi; 2s – sensorli optik tola; 3 – mufta; 4 – tolali optik kabel; 5 – optik qabul qilgich G’(priyomnik); 9 – signalni qayta ishlash va tahlil qilish tizimi; 10 – tashvish signalini aks ettirish qurilmasi

Har qanday qo‘riqlash tizimining maqsadi xavfli hodisani boshlang’ich davrida aniqlash, uning joyini, vaqti va tavsifini, signallarini aniqlash, xavfning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi choralarni yuzaga keltirish, kelgusida shunday hodisalarning oldini olish uchun hujjatlar va materiallarni taqdim qilishdan iborat.

Optik tola elektromagnit signallarini tarqatuvchi sifatida mis kabellarga nisbatan bir qancha afzallliklarga ega va ularni asta-sekin an’anaviy qo‘llash doirasidan siqib chiqarmoqda.

Tolali optik texnologiyalar xavfsizlik tizimiga nafaqat uzoq masofalarga signallarni uzatishda, balki tebranishlarning tarqatish sensorli datchiklari sifatida jadallik bilan tatbiq etib borilmoqda.

Dunyo va mamlakat bozorlarida tolali optik kabellar, elektron apparaturalar va dala sharoitlarida tolali optik kabellarni ajratish va montaj qilish uchun montajchilarning yuqori malakasini talab qilmaydigan asbob-uskunalarning keng tarqalishi bizning mamlakatimizda va chet davlatlarda bunday texnologiyalarni faol tatbiq etilishiga imkoniyat tug'dirmoqda. Uzoq masofali perimetrlari, murakkab elektromagnitli vaziyatlari, yuqori darajada chaqmoq zarbalari bo'lgan obyektlarning qo'riqlanishida xavfsizlik vositalari sifatida tolali optik texnologiyalarning qo'llanilishi alternativasiz holatlar hisoblanadi.

Tolali optik vositalar bir-biri bilan oson yaxlitlashadi va bu obyektlarning xavfdan himoyalash darajasini oshiradi.

Adabiyotlar royxati:

1. C.C.Parsiyev "Optik aloqa asoslari" Darslik.– T.: JXU, 2023.
2. Бутусов М.М и др. Волоконно-оптические системы передачи./ Учебник для ВУЗов. – М.: "Радио и связь", 1992.
3. Гроднев И.И. Линейные сооружения связи./ Учебник для техникумов. – М.: "Радио и связ", 1987.
4. Mirazimova G'.X. Optik aloqa asoslari./ Ma'ruzalar matni. – T.: TATU, 2011.
5. Скляров О.К. Волоконно-оптические сети и системы связи. Учебник для ВУЗов. – М: "Лан", 2010.
6. Yunusov N., Isaev R., Mirazimova G'.X. Optik aloqa asoslari.G' O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014.

ҲУДУДИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ТИЗИМИДА ТАШВИШ-ЧАҚИРИҚЛИ СИГНАЛИЗАЦИЯ ТИЗИМЛАРИ ҲОЛАТИНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИ

Халилова Полина Юрьевна
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
ўқитувчи – методист, т.ф.ф.д. (PhD), доцент
Ашрапов Шерали Икромжанович
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
штаб офицери

Ҳозирги вақтда минтақамизда ва дунёда ҳукм сураётган, олдиндан айтиб бўлмайдиган мураккаб шароитда мамлакатимиз хавфсизлиги ва ҳудудий яхлитлигини таъминлаш, жамиятимизда тинчлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш қанчалик катта аҳамиятга эга эканини барчамиз чуқур англаймиз. Бу эса ўтган давр мобайнида эришган ютуқларимиз ва йўл қўйган камчиликларимиз, тўпланиб қолган муаммоларни чуқур таҳлил қилиш, бугун ҳаётнинг ўзи илгари сураётган талабларни ҳисобга олишни тақозо этмоқда.

Объектларнинг муҳимлилик тоифасининг келтирилган тоифаланиши фақатгина мустаҳкамланган базавий ёндашувининг моҳиятига кўра тақдим этилади. Ўта муҳим объектлар, одатда, мамлакатнинг энергетика, транспорт, кимёвий ва нефт-кимёвий, фан ва техника, алоқа ва информациялаштириш, шунингдек молия, соғликни сақлаш, маданият вазирлиги ва бошқа соҳаларга тегишли. Бу соҳалар жамият ҳаётини таъминлаш учун асосий ҳисобланади ва бутун халқнинг ҳаёти, тинчлиги ва ахлоқий-руҳий ҳолати, жамият ҳаракатининг жадаллашиши, иқтисодий қайта ислоҳотларнинг натижавийлиги уларнинг амалда ҳимояланишига боғлиқ .

Уларда “эҳтимолли тартиббузарни аниқлаш” – “қўриқлаш постига маълумотларни узатиш ва уларни баҳолаш” – “соҳта/ҳақиқий нишон бўйича қарорни қабул қилиш” – “тартиббузарнинг ҳаракатини ушлаб қолиш/чеклаш” воқеалар занжирида асосий рол ажратилади.

Самарадорлик кўрсаткичи, қоида тариқасида, P_z охирги воқеанинг эҳтимоллиги орқали аниқланиб, жисмоний ҳимоя тизимларини ва энг дастлаб тартиббузарнинг аниқланишини ва ушлаб қолинишини (P_o эҳтимоллиги билан) таъминлайдиган сигнализасия воситалари ҳамда муҳандислик тўсиқларини тўлиқ қамраб олади. Қўриқлашда жалб этилган кучларнинг ҳаракатлари воқеага масофадан туриб тўғри баҳо бериш эҳтимоллиги (ҳа/йўқ), қўриқлаш кучларининг чиқиш вақти ва тўқнашув содир бўлганда ғалаба қозониш эҳтимоллиги билан аниқланади. [2; 43-45 б.]:

Ҳарбий қисмларнинг ҳудудий хавфсизлигини таъминлашда қўриқлаш тизимларнинг ишончлилиги ва хавфсизлигини таҳлил этишда ташвиш-чақирикли сигнализация тизимлари ҳолатини баҳолаш усуллари асосий мезон ҳисобланади. Тавсия этилаётган усуллар, биринчидан ташвиш-чақирикли сигнализация тизимларини таҳлил қилиш, иш ҳолати ва уларни такомиллаштиришга қаратилган бўлади.

1. Мантиқий-эҳтимолликлар усули

Бу усул тузилмавий ва сифат жиҳатдан мураккаб бўлган тизимларнинг ишончлилиги ва хавфсизлигини таҳлил этишда қўлланилмоқда. Мантиқий-эҳтимолликлар усулларининг назарий асосини алгебрасининг функциялари устидаги операциялар ташкил этади. Ишончлиликни ҳисоблашда тизимнинг ишчи ҳолатда бўлиши, хавфсизликни таҳлил этишда эса – тизимнинг хавфли ҳолатга тушиб қолишининг шарт-шароитлари тадқиқ этилади. Тизимда мавжуд бўлган хавфнинг даражасини аниқлаш мазкур усулнинг мақсади ҳисобланади.

Баҳолаш қуйидагича амалга оширилади:

1. Ўзидан жисмоний ҳимоя тизимлари ишининг мантиқий-эҳтимолликлар моделини тақдим этувчи хавф ривожланишининг сенарияси тузилади. Сценарий устун (“дарахт” тури) сифатида тақдим этилади ва учта турдаги воқеаларни ўз ичига олади: бошловчи, оралиқ, якуний. Бошловчи воқеалар тартиббузарнинг тизимга кўрсатадиган таъсири (объект периметрини енгиб ўтиш, НЎЖда идентификасия маросимини имитасиялаш ва бошқалар)ни

таърифлайди. Оралиқ воқеалари иккита ва ундан ортиқ воқеаларни комбинасиялаш (воқеаларнинг конъюнкцияси, дизъюнкцияси ва бошқалар) натижасида олинади. Якуний воқеалар тизимнинг маълум бир хавфли ҳолатини таърифлайди (масалан, тартиббузарнинг таъсирланиш кучларидан олдинроқ объектга кириб бориши).

Сценарийни тузиш – ижодий вазифа ҳисобланади. Жисмоний ҳимоя тизими ишлашининг схемаси қанчалик батафсил таърифланишига, воқеалар орасидаги сабаб-натижали алоқалар қанчалик ҳисобга олинишига қараб таҳлил натижаларининг аниқлиги боғлиқ бўлади.

2. Тизим хавфлилигининг функцияси тузилади ($z_1 \ldots z_n$), бошловчи воқеалар унинг далиллари, якуний (хавфли) воқеа эса унинг қиймати ҳисобланади.

3. Тизим хавфлилигининг функцияси қуйидагича эҳтимолли функция $P\{y\ (z_1 ... z_m)\}$ билан алмаштирилади:

z_i индекси $P\{z_i = 1\} = R_i$ га, яъни і-сонли бошловчи воқеа содир бўлишининг эҳтимоллигига алмаштирилади;

$z_{i'}$ индекси $P\{z_{i'} = 1\} = Q_i = 1 - R_i$ га, яъни і-сонли бошловчи воқеа содир бўлмаслигининг эҳтимоллигига алмаштирилади.

4. Хавфли воқеанинг амалга оширилиши эҳтимолли функциянинг қиймати изланади:

$$Y(y) = P\{y(z_1..z_m) = 1\} \qquad 1)$$

Мазкур формула эса тизимда мавжуд бўлган таҳдиднинг даражасини белгилайди. Мураккаб сценарийларни таҳлил этганда сермашаққатли мантиқий ўзгартиришнинг катта сиғимда мавжудлиги ушбу усулнинг камчилиги ҳисобланади. [3; 85-87 б.]:

Демак:

1. Мазкур усул жисмоний ҳимоя тизимлари самарадорлигининг миқдорий асослантирилган кўрсаткичини олишга имкон беради. Хавфсизлик таҳлилини кўп мезонли маqбуллаштириш усули сифатида кўриш мумкин.

2. Мазкур усул ёрдамида жисмоний ҳимоя тизимлари хавфсиз ишлашининг моделини қуриш, тизимдаги заиф жойларни аниқлаш ва уларни хавфсизлик даражалари бўйича таснифлаш имконини беради.

3. Мантиқий-эҳтимолликлар усулларининг қўлланилиши жисмоний ҳимоя тизимининг ички тузилмасини аниқлаб олишга имкон беради.

4. Мураккаб сценарийларни таҳлил этганда сермашаққатли мантиқий ўзгартиришнинг катта сиғимда мавжудлиги ушбу усулнинг камчилиги ҳисобланади.

2. Эҳтимолли-вақтли таҳлил.

Ҳозирги вақтда жисмоний ҳимоя тизимларининг самарадорлигини баҳолашда қўлланиладиган асосий усуллардан бири ҳисобланади. Бу ерда жисмоний ҳимоянинг самарадорлиги техник кўриқлаш воситаларининг сигналлари бўйича ҳаракатланадиган кўриқлаш кучлари тартиббузарни ушлаб қолишига улгуриши тўғрисидаги эҳтимолли катталик сифатида кўриб чиқилади. Усулнинг моҳияти қуйидагидан иборат: ташқи тартиббузарнинг ҳаракатини тўсиб қолиш учун аниқ бир тезкор вазият учун $DT = T_o - T_n < 0$ шартининг бажарилиши текширилади. Бунда, заифликни таҳлил этиш босқичида аниқланган мақсадларнинг ҳар бири учун тартиббузарлар ва кўриқлаш кучларининг ҳаракат йўналишлари таҳлил этилади. Улар ҳаракатининг турл і босқичларига тааллуқли бўлган ҳаракатланиш вақтлари t_{i_n} ва t_{i_o} баҳоланади. Тартиббузар учун бу жисмоний тўсиқларни енгиб ўтиш, объект ҳудуди бўйича ҳаракатланиш, ҳаракатни содир этиш вақтлари, кўриқлаш кучлари учун бу йиг‘ин, воқеа жойига ҳаракатланиш, периметрдаги ҳудудни кузатиш вақтлари ҳисобланиши мумкин. Ушбу вақтлар тасодифий ҳисобланади. Шунингдек, улар тақсимланиши қонуниятлари номаълум. Бироқ, агарда t_i мустақил бўлса, 1 босқичларнинг миқдори етарлича катта бўлса, унда марказий чегаравий теоремага мувофиқ уларнинг миқдори қуйидагича нормал қонун бўйича тақсимланади:

$$T = \sum_{i=1}^{l} t_i \qquad 2)$$

Бу ифода қуйидагиларни англатади:

$m[T] = \sum_{i=1}^{l} M[t_i]$ – қўриқлаш кучларини ва тартиббузарни математик кутиш вақти;

$D[T] = \sum_{i=1}^{l} D[t_i]$ – қўриқлаш кучларини ва тартиббузар вақтларининг дисперсияси.

Мазкур қонун бўйича қўриқлаш кучлари заҳирасининг вақти ҳам тақсимланади: $R(\Delta T < 0)$. Мазкур g‘ояни 1-расмда тасвирлангандай намойиш этса бўлади. Қўриқлаш кучлари тартиббузарни ушлаб қолиши эҳтимоллиги $R_{per}=R\ (T_o< T_n)$, $f(T_o)$ ва $f(T_n)$ эгри чизиқлар остидаги майдон билан ифодаланади, қаерда $f(T_o)$, $f(T_n)$ – вақт эҳтимолликлари T_oва T_n тақсимланишининг зичлиги.



1 -расм. Жисмоний ҳимоя тизимида тартиббузар ҳаракатларини чеклаш эҳтимоллигининг $П(Т_{он})$ намойиш этилиши

Самарадорликнинг интеграл кўрсаткичини шакллантириш учун, ҳар бир таҳдидга тегишли коэффициентини бериш орқали, маълумотларга ишлов беришнинг турли усуллари қўлланилиши мумкин.

Демак,

1. Дифференциал кўрсаткичлар физик табиатининг бир хиллигидан келиб чиқадиган уларнинг умумлаштирилиши мазкур усулнинг афзаллигини асослантиради.

2. Баҳо натижаларининг объективлиги ва ҳаққонийлиги техник воситалар томонидан тартиббузарни аниқлаш эҳтимолликлари бўйича таянч маълумотларнинг аниқлигига, қўриқлаш кучлари ва

тартиббузарнинг ҳаракатланиш, жисмоний тўсиқларни енгиб ўтиш вақтларига боғлиқ бўлади. Умуман айтганда эксперт баҳоланиш характерига эга бўлган таянч маълумотларнинг априор ноаниқлиги ҳисоблар натижаларига эҳтиёткорлик билан қарашни талаб қилади.

3. Мазкур усулнинг яна бир камчилиги сифатида реал объектларда жисмоний ҳимоя тизимларини таҳлил этганда амалга оширилиши лозим бўлган мураккаб ҳисоблар ўтказилишининг лозимлигини кўрсатиб ўтиш мумкин, фақатгина содда объектларга татбиқ этиш тавсия этилади. Қўриқланадиган ҳудудларнинг мураккаб конфигурасиясига, кўплаб қўриқланадиган нишонлар ва тартиббузар ҳаракатланиши мумкин бўлган йўналишларга эга объектларнинг баҳоланиши фақатгина махсус компьютерлаштирилган дастурларни қўллаш орқали амалга оширилиши мумкин. [4; 112-114 б.]:

Иммитацион моделлаштириш

Бу ҳисоблар олиб бориладиган эксперимент ҳисобланиб, шундай машҳур омилга таянадики, n синовларнинг миқдори ошганда нисбий частота эҳтимолли воқеа содир бўлишига тенг бўлади, яъни частота W=m/n. Синовлар сериясида эса якка синовдаги эҳтимолликка талпинади, яъни n⇒∞ тенг бўлганда W⇒p(A) га тенг. Эҳтимолли сонлар генератори ёрдамида маълум математик кутишлар ва дисперсия билан машҳур бўлган қонун бўйича эҳтимолли катталиклар олинади.

Боровский А.С. объектнинг таҳдидлардан ҳимояланганлик даражасини моделини таклиф этди, у орқали лойиҳалаштириладиган муҳандислик-техник ҳимоянинг танланган объект учун ҳимояланганлик талабларига қанчалик мос келишини аниқлаш мумкин [65].

Усул математик, жумладан ноаниқлик шароитларида эксперт маълумотларини қайта ишлаш усулларини кетма-кет қўллашга асосланади.

1. Жисмоний ҳимоя тизимларига қўйиладиган талабларни асослантириш.

Жисмоний ҳимоя тизимларининг синтез қилиниши вазифасини қуйидагича ифодалаймиз: жисмоний ҳимоя тизими амалга

оширилишининг шундай варианти (қоида тариқасида, ўз ичига бир нечта аниқлаш, ушлаб қолиш ва йўқ қилиш бўйича кичик тизимларни киритадиган)ни танлаш керакки, у обекнинг тоифаси ва аҳамиятига мос бўлиши керак ҳамда жисмоний ҳимоя тизимларига йўл қўйиладиган сарф-ҳаражатларни эътиборга олган ҳолда мазкур объектга мувофиқ бўлувчи ҳимоя даражасини таъминлаши лозим.

Мазкур вазифани ечиш учун жисмоний ҳимоя тизимлари ишлаши сифатининг кўрсаткичини ифодалаймиз, ушбу кўрсаткич сифатида объект ҳимояланганлиги эҳтимоллиги P_z олиниши лозим, у эса объект муҳимлигига мос бўлиши керак. Шубҳасиз, ушбу кўрсаткич қуйидаги нисбат билан аниқланади:

$$P_z = P(0 > \frac{N}{A}) \qquad 3)$$

бу ерда N – тартиббузарнинг имкониятлари (тартиббузар модели); О – объект қўриқлаш кучларининг имкониятлари; А – объектнинг ҳолатини, яъни муҳандислик-техник мустаҳкамлигини, ҚМТБ билан жиҳозланганлигини таърифловчи вектор.

Агарда юқоридаги кўрсаткич мураккаб воқеа сифатида учта таркибий қисмга декомпозирланса, қуйидагига эга бўламиз:

$$P_z = P_o \cdot P_{zad} \cdot P_n \qquad 4)$$

бу ерда P_o – тартиббузарларни ўз ватида аниқлаш эҳтимоллиги техник қўриқлаш воситалари томонидан тартиббузарларни аниқлаш эҳтимоллигига P_d; оператор томонидан етказилган сигналнинг ҳақиқийлигини ёки соҳталигини аниқлашнинг эҳтимоллигига Р га боғлиқ ; P_{zad}– тартиббузарларни ушлаб қолиш эҳтимоллиги ҳимоя сарҳадлари орасида ҳаракатланадиган тартиббузарларни z_1 ушлаб қолиш t вақти ўртача қийматлари функцияси ҳамда ҳимоя сарҳадлари орасида жисмоний тўсиқларни енгиб ўтишда z_2 ушлаб қолиниш t vaqti; P_n – тартиббузар йўқ қилинишининг вақти қўриқлаш кучларининг тайёргарлик эҳтимоллигига P_{got}, уларнинг тизим танқидий элементига ўз вақтида етиб келиши эҳтимоллигига P_{prib},

керакли жойда қўриқлаш кучларининг ёйилиши эҳтимоллигига P_{razv}, шунингдек томонларнинг тўқнашиш эҳтимоллигига боғлиқ .

Демак, объект ҳимояланганлигининг эҳтимоллиги P_z ифодадаги (1) А векторини ташкил этувчи тавсифларнинг қийматларига боғлиқ . Вектордан (А) энг аҳамиятли омилларни, яъни объектнинг муҳандислик-техник ҳимояланганлигини $P_{itz}=P_o\ P_{zad}$ ажратиб оламиз. Айнан ушбу омил тартиббузар йўқ қилинишининг сифатли бажарилишини белгилайди.

Ҳозирги вақтда жисмоний ҳимоя тизимларининг самарадорлигини аниқлашда асосий усул сифатида эҳтимолли-вақтли усулнинг қўлланилиши махсус дастурий мажмуаларнинг ривожланишига туртки берди. Бироқ, мазкур вазифа ҳал этилишининг объективлиги ва ҳаққонийлиги тартиббузарларнинг аниқланиши эҳтимолликлари бўйича таянч маълумотларнинг аниқлигига, уларнинг ҳаракатланиш ва жисмоний тўсиқларни енгиб ўтиш вақтларига боғлиқ.

Мазкур вазифанинг ҳал этилиши ноаниқлик доирасида ётканлиги боис, аниқлашнининг ноодатий усуллар билан қўшилган тарзда айнан эксперт усуллари бериши мумкин. Шунингдек, қайд этиб ўтиш керакки, агарда экспертлар тўғри танланган бўлса экспертли усуллар деярли 90 % га миқдорий усулларга мос келади. Объект муҳандислик-техник ҳимоясини аниқлаш учун, унинг сифат кўрсаткичини ифодалаш зарур. Муҳандислик-техник ҳимояни, унинг иккита хусусияти кўрсаткичлари (яхлитлилик ва заифлик) орқали аниқлаймиз. Яхлитлиликни аниқлаш учун қуйидаги кўрсаткичларни киритамиз:

объектни диверсияли-террористик таҳдидлардан жисмоний ҳимоя қилиш ва қўриқлаш бўйича белгиланган ташкилий тадбирларнинг бажарилиш тўлиқлиги;

объектни жисмоний ҳимоя қилиниши ва қўриқланишини таъминлайдиган ходимларнинг малака даражаси;

жисмоний ҳимояда ёки қўриқлашда қўлланиладиган муҳандислик-техник воситалар мажмуасининг жиҳозланиш даражаси ва уларнинг техник ҳолати.

Биринчи иккита кўрсаткич сифатни, охиргиси эса миқдорий сифатни белгилайди.

Заифлик кўрсаткичи сифатида қуйидагиларни қабул қиламиз:

тартиббузар киришининг эҳтимоллиги – сифат кўрсаткичи;

тартиббузарнинг жисмоний ҳимоя тўсиқларни енгиб ўтиб, уни қизиқтирадиган объектгача етиб бориши эҳтимоллиги – миқдорий кўрсаткич.

Муҳандислик-техник ҳимоя баҳоланишининг миқдорий кўрсаткичлари қўлланилганда сифат талаблари белгиланмаслиги мумкин.

Сўзсиз, миқдорий талаблар объект тоифасининг тартиббузар моделига нисбатан эҳтимолли хавфнинг даражаси бўйича дифференцияланиши лозим. Бунда, умумий кўринишда, муҳандислик-техник ҳимоя қуйидагича ёзилади:

$$P_{itz} = F(\alpha_{osn\ i\ j;Pstr\ i\ j}) \qquad 5)$$

бу ерда $\alpha_{osn\ i\ j}$ – QMTBнинг жиҳозланганлиги; $Rstr\ i\ j$ – тузулмавий ҳимоянинг ўлчами.

Яхлитлик хусусиятини аниқлаш учун QMTB j-сонли йўлининг жиҳозланиш тўлиқлигини ёки даражасини талаб этиладиганга нисбатан қуйидагича аниқлаймиз α_{osn} i j = N i j / NT i j , бу ерда N ij – ўрнатилган ҳимоя воситаларининг ҳақиқий миқдори, бундан

$$\text{N ij} = \sum \text{Nk ij}, \qquad 6)$$

бу ерда Nk ij – ўрнатилган ҳимоя воситаларининг ҳақиқий миқдори; NT ij – ҳимоя воситаларининг талаб этиладиган миқдори, бунда NT i j = ∑ NTk i j, бу ерда NTk ij – ҳимоя воситаларининг талаб этиладиган миқдори.

Заифликнинг хусусиятларини аниқлаш учун тузулмавий ҳимояланганлик даражасини кўриб чиқамиз. Қуйидаги тушунча киритилади: тузулмавий ҳимояланганлик даражаси бўлиб объектгача

киришда энг заиф бўладиган йўналиш ҳисобланади ва у қуйидагича аниқланади:

$$P_{th} = P_{aniqlash} \cdot P_{o'shlab\ qolish} \quad 7)$$

бу ерда $P_{aniqlash}$ – бутун йўналиш давомида тартиббузарни аниқлаш эҳтимоллиги, $P_{o'shlab\ qolish}$ – мазкур йўналишда тартиббузарни ушлаб қолиш эҳтимоллиги. P_{th} тартиббузарнинг аниқланиши ва ушлаб қолиниши эҳтимоллиги.

Қуйидаги боғлиқликни ўрнатамиз $P_{itz}(\alpha_{osn})$ і P_{itz} (P_{str}). Шубҳасиз, $P_{itz}(\alpha_{osn})$ боғлиқлигининг ўсиб бориши кузатилади ва $\alpha_{osn} = 0$ қуйидаги келиб чиқади $P_{itz} = P_{iz}$, қаерда P_{iz} фақат муҳандислик воситалари билан таъминланадиган объект ҳимояланганлигининг минимал даражаси.

Агарда $\alpha_{osn} = 1$ bo'lsa $P_{itz} = 1$ келиб чиқади. Агарда $\alpha_{osn} > 1$ (жиҳозланганлик талабдан юқорироқ), унда $P_{itz} > 1$ (мазкур объект учун муҳандислик-техник ҳимоянинг даражаси талаб этиладигандан баландроқ) келиб чиқади. $P_{itz}(P_{str})$ боғлиқлилиги ҳам ўсиб борувчи ҳисобланади. $P_{str} = 0$ нинг минимал қиймати объектда аниқловчи воситаларнинг йўқлиги билан боғлиқ , унда $P_{obn} = 0$ і $P_{str} = P_{obn} \cdot P_{zad} = 0$. Агарда $P_{str} = 0$ бўлса $P_{itz} = 0$ келиб чиқади. Агарда $П_{стр}$ талаб этилганга тенг бўлса – $РТ_{str}$, унда $P_{itz} = 1$ тенг бўлади. $РТ_{str}$ қиймати ҳар доим бирдан, чунки агар талаб этиладиган аниқлаш ва ушлаб қолиш эҳтимоллиги 1 га тенг бўлса, бундай шартни ҚМТБ жиҳозланишининг барча даражаларида бажариб бўлмайди ва $РТ_{str} = 1$ шартида ҚМТВ вариантини излаш ноаниқ қўйилган вазифа ҳисобланади.

Хулоса агарда $P_{str} > РТ_{str}$ бўлса, унда $P_{itz} > 1$. Чунки $P_{str} = P_{obn} \cdot P_{zad}$, унда максимал мумкин бўлган имконият $P_{str} = 1$ га тенг бўлади. $P_{str} = 1$ бўлганда шубҳасиз P_{itz} = мутлақо ҳимояланган, тартиббузарлар учун заифсиз бўлган объект ҳисобланади. Демак P_{itz} аниқлаш учун юқорида таърифланган α_{osn}, P_{str} мезонларнинг қийматини топиш зарур қўриқланаётган ҳарбий объект ҳудуди хавфсизлигини таъминлаш имконини берувчи қўриқлаш муҳандис техник воситалари билан жиҳозланганлик даражасини аниқлаш модели ишлаб чиқилди ва буни амалиётга қўллаш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёэвнинг 2018 йил 11 январдаги Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи.
2. . Мирошников А. В. Анализ методов оценки эффективности охраны // Армавирский машиностроительный техникум. 2011 г. [https://www.informio.ru/publications/id69/Analiz-metodov-ocenki-yeffektivnosti-ohrany] (мурожаат санаси 06.04.2022).
3. Магауенов Р.Г. Системы охранной сигнализации: основы теории и принципы построения. Учебное пособие – М., 2008.
4. Мовлонкориев К., Волхонский А. Қўриқлаш тизимларнинг сигнализация комплекслари – Т.- 2008.

МАХСУС МАҚСАДЛАРДАГИ ҚЎРИҚЛАШ ТИЗИМЛАРИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

Парсиев Саидахад Солиходжаевич
Жамоат хавфсизлиги университети Ахборот технологиялари кафедраси техника фанлари доктори., доцент
Очилов Истам Набиевич
Жамоат хавфсизлиги университети Қўриқлашни муҳандислик-техник таъминоти кафедраси доценти, доцент;

Ҳозирги кунда бутун дунё бўйлаб объектлар хавфсизлигини таъминлашда кўплаб тизимлардан фойдаланилмоқда ҳусусан махсус мақсадлардаги қўриқлаш тизимларининг хавфсизлигини таъминлашда ҳам. Қуйида биз бир нечта самарали, замон талабларига жавоб берадиган ва истиқболли тизимларни кўриб чиқамиз.[1]

Қўриқланаётган махсус ҳарбий объектлар орқали узатилаётган маълумотлар оқимларини таҳлил қилиш ушбу объектларнинг

самарадорликларини баҳолаш ҳисобланади. Бу масала тадқиқ қилинмасдан ва мос математик моделлар қурилмасдан ва шунга мувофиқ бошқарув тизимининг эҳтиёжларига жавоб берадиган махсус қўриқланадиган ҳарбий қисм объектлар моделини ишлаб чиқиш мумкин эмас. Махсус мақсадлардаги қўриқланадиган ҳарбий қисмлар тизимларини қуйидаги модел сифатида ифодалаш мумкин. [2; 111-113 б].



1-расм. Махсус мақсадлардаги алоқа тизимининг тузилмавий модели

Махсус қўриқланадиган ҳарбий қисм объектларининг замонавий телекоммуникация техник воситаларнинг бир бирлари билан функционал боғланган дастурий-техник воситалар тўплами бўлган мураккаб тақсимланган тизим ҳисобланади ва маълумотлар узатиш ва қабул қилиш тизимларидан ташкил топган. Қўриқланадиган махсус мақсадларга мўлжалланган ҳарбий қисмларнинг ажралмас қисми давлат аҳамиятидаги муҳим вазифаларини бажарадиган муассасаларнинг жойлашган объектлари орасида турли хил

маълумотларни етказиб бериш бўйича функцияларни бажарадиган махсус мақсадлардаги маълумотларни узатиш тармоғи ҳисобланади.

Махсус мақсадлардаги алоқа тизимининг тақдим этилган тузилмавий модели (1-расм) истиқболли махсус мақсадлардаги алоқа тармоғини қуриш соҳасида янги ечимларни асослаш учун ишлатилиши мумкин. Тармоқ модели замонавий ахборот ва телекоммуникация хизматларини тақдим этишни ҳисобга олиш билан махсус мақсадларда қўриқланаётган ҳарбий қисмлар хавфсизлигини тизимининг ўзига хос хусусиятларини ўз ичига олади. [3; 43-49 б].

Қўриқланаётган махсус ҳарбий объектлар тизими модели бўйича кириш параметрлари X вектори орқали берилади, у агрегатлар тўплами билан қуйидагича ифодаланиши мумкин:

$$X^k = \left(Q^{k,q}, Y_{ij}^m\right), \qquad (1)$$

бу ерда: Q^{k-q} - қ-турдаги **к**-синфдаги тизимга уланган охирги қурилмалар сони;

Y_{ij}^m - **и** ва **ж** тармоқ тугунлари орасидаги чақирувлар интенсивлиги, чақирув/соат.

Алоқа тизимининг ҳолати параметрлари таъминланадиган алоқа йўналишларининг сони, улардаги таъминланадиган алоқалар турлари ва сони, алоқа тизимининг хусусиятлари кўрсаткичлари (жанговар тайёргарлик, барқарорлик, ўтказиш қобилияти, мобиллик, разведка хавфсизлиги, фойдалана олишлиги ва бошқарилиши) ва бошқа параметрлар бўлиши мумкин.

Алоқа тизимининг ҳолати параметрлари қуйидаги вектор билан ифодаланиши мумкин:

$$W^k\left(G, Z, H_h^k, V_q, P_{ij}^{osh}\right), \qquad (2)$$

бу ерда Г вектори билан алоқа тизимининг тузилмаси тури кўрсатилган ва уни қуйидаги тузилмалар тўплами билан тавсифлаш мумкин:

$$G = (G^*, U_s), \quad (3)$$

бу ерда G^*- алоқа тизимининг функционал модуллари (нимтизимлар, элементлар) тузилмалари тўплами;

U_s - тегишли тугунлар орасидаги алоқалар тўплами.

$$G^* = (G_d, G_a, G_a, G_V, G_V, G_P, G_G), \quad (4)$$

бу ерда **Гд** - амаллар тузилмаси, **Гф** – функциялар тузилмаси, **Га** - абстракт тузилма, **Гв** - виртуал тузилма, **Гв** – вариантли тузилма, **Гп** – фазовий тузилма, **Гг** – геометрик тузилма.

З алоқа тизимининг хусусиятлари алоқа тизимига хос хусусиятлардан кўп жиҳатдан фарқ қиладиган Z^l функционал модулнинг (нимтизимлар, элементларнинг) таркибий қисмларининг хусусиятлари орқали аниқланади.

Бунда алоқа тизимининг хусусиятлари қуйидагича тавсифланади:

$$Z^l = \left(Z^l_{BG}, Z^l_{ustoych}, Z^l_{PS}, Z^l_D, Z^l_M, Z^l_{RZ,}, Z^l_{Upr}\right), \quad (5)$$

бу ерда $Z^l_{BG}, Z^l_{ustoych}, Z^l_{PS}, Z^l_D, Z^l_M, Z^l_{RZ}, Z^l_{Upr}$- l-нчи модулнинг (нимтизимлар, элементларнинг) мос равишда функционал хусусиятлари (жанговар тайёргарлик, барқарорлик, ўтказиш қобилияти, мобиллик, разведка хавфсизлиги, фойдалана олишлик ва бошқариш) тўплами.

$H^k_h = \left(H^k_{ph}, H^k_L, H^k_N, H^k_\gamma\right)$ протоколлар кичик вектори даражалар протоколларнинг турларини тавсифлайди (масалан, АТМ технологиялари бўйича ИР-ҚоС ёки Х технологиялари бўйича пакетли ИКТ учун).

Маълумотларни етказиб бериш сифатини аниқлайдиган параметрлар, шунингдек алоқа тизимининг параметрлари қуйидагилардан иборат:

V_{ij} – рақамли трактдаги узатиш тезлиги, бит/с;

$P_{ij}^{ош}$ - рақамли трактдаги хатоликлар эҳтимоллиги.

Бошқарув таъсирларининг параметрлари алоқа тизимининг у(т)∈У бошқарилувчанлик ва кузатилувчанлик (мониторинг) кўрсаткичлари бўлиши мумкин. Бошқарув таъсирларининг параметрлари маъмурий тизимнинг турини акс эттирадиган U^k вектор билан ифодаланиши мумкин.

$$U^k = \left[A^k, S_h^k(M_h)\right], \qquad (6)$$

бу ерда A^k - бошқарув тизимини тавсифлайди;

$S_h^k(M_h)$ – мантиқий тузилманинг ҳ-даражасидаги М-ҳимоя механизмлари орқали амалга ошириладиган асосий С-хавфсизлик хизматлари.

Юқорида келтирилган махсус мақсадлардаги алоқа тизимининг тузилмавий модели махсус қўриқланаётган ҳарбий қисм объектларига кириш, чиқиш, ташқи ва бошқарув параметрларининг характеристикаларини ифодалайди. Ушбу параметрларни ҳисоблаш, таҳлил қилиш мақсадида математик модел ишлаб чиқилди. Ишлаб чиқилган математик модел асосида ушбу параметрларнинг қўриқланаётган махсус объект холатига, яъни жанговар тайёргарлик, барқарорлик, ўтказиш қобилияти, мобиллик, разведка хавфсизлиги, фойдалана олишлик ва бошқариш параметрларига таъсири аниқланди. Ушбу натижалар 2- расмда келтирилган.



2-расм. Қўриқланаётган махсус ҳарбий объектнинг самарадорлик холати

Хулоса сифатида юқорида келтирилган махсус мақсадлардаги алоқа тизимининг тузилмавий модели махсус қўриқланаётган ҳарбий қисм объектларига кириш, чиқиш, ташқи ва бошқарув параметрларининг характеристикаларини ифодалайди. Ушбу параметрларни ҳисоблаш, таҳлил қилиш мақсадида математик модель. ишлаб чиқилган математик модел асосида ушбу параметрларнинг қўриқланаётган махсус объект холатига, яъни жанговар тайёргарлик, барқарорлик, ўтказиш қобилияти, мобиллик, разведка хавфсизлиги тизимларида фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёэвнинг 2018 йил 11 январдаги Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи.
2. Очилов И.Н. Объектларнинг қурилмалараро боғланишга тасир этувчи омиллари // Хавфсизлик технологияларининг ривожланиш тенденциялари: қўриқлаш жараёнини роботизасиялаш масалалари” мавзусидаги халқаро онлине илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Т.: ЖХУ, 2022, 111-113 б. (ЎР ЖХУ кутубхонаси)
3. И.Н.Очилов. Комплекс хавфсизликни таъминлашда замонавий ахборот тизимларининг босқичлари // “Хавфсиз пойтахт концепциясида ахборот-коммуникасион технологиялар муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Т.: ҲТИ, 2020,

ҚЎРИҚЛАШНИНГ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ВОСИТАЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МОДЕЛИ

Очилов Истам Набиевич
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
Қўриқлашни муҳандислик- техник таъминоти кафедраси доценти

Ўзбекистон Республикаси суверен давлат ва халқаро муносабатларнинг субъекти сифатида ўз мудофаа сиёсатини тинч-тотув яшаш, бошқа давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик, уларнинг суверенитетларини ва ҳудудий бутлигини ҳурмат қилиш тамойили асосида қурмоқда, барча баҳсли масалаларни тинч келишув йўли билан ҳал қилишга, ўз ҳаракатларини барча давлатлар билан кўп томонлама ўзаро манфаатли ҳамкорликни ўрнатиш ва уни ривожлантиришга қаратмоқда. Қуролли Кучлар ҳар доим давлат мустақиллигини ишончли кафолати бўлган ва бундан кейин ҳам шундай бўлиб қолади, демократик қайта қуриш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш, тинчликни, ўз еримизда тотувликни таъминлашни амалга оширмоқда.

Қўриқланаётган объектларни ҳудудий хавфсизлигини таъминлаш тизимида замонавий бошқарув тизимлари қўриқлашни ташкил этиш давомида янгича ёндашувлар ҳамда мазкур соҳада мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни такомиллаштириш масалалари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғри сида” ги Фармонида республикани ривожлантириш учун бешта устувор йўналишлари ва кенг кўламли комплекс чора-тадбирлар белгилаб қўйилганлиги ҳам давлат сиёсати халқ манфаатларига қаратилганлиги кўрсатади.

Жамиятимизда кейинги йилларда рўй берган сиёсий ва иқтисодий улкан ўзгаришлар ҳуқуқий демократик жамият парпо этилганлигининг исботлаб турибди. Ҳозирги кунда жамиятимизнинг

барча объектларида Ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналишлари бўйича ислоҳотлар амалга оширилиб келинмоқда. Ўзбекистон халқи учун муҳим бўлган миллат хавфсизлиги соҳасида, яъни мамлакат ичкарисида миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ва ташқарисида хавфсизликни таъминлаган ҳолда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритишга йўналтирилган давлат бошқарувини амалга ошириш масаласи ҳисобланади.

Давлатимиз мустақиллиги ва суверинитетини мустаҳкамлаш, мамлакатимизнинг халқаро нуфузини ҳамда унинг халқаро муносабатларнинг тенг ҳуқуқли субъекти сифатидаги ролини ошириш, ривожланган демократик давлатлар қаторига олиб чиқиш Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган давлат сиёсатида ўз аксини топган.

2017 йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан Миллий гвардия ҳарбий тузилма сифатида ташкил этилганлиги. Унга мамлакатимизнинг ташқи ва ички хавфсизлигини таъминлаш, замонавий таҳдидларга қарши курашиш самарадорлигини ошириш, жамоат тартибини ва жамоат хавфсизлигини таъминлашда ички ишлар органлари билан ҳамкорликда ўзбек ҳалқининг фаровон ҳаёти учун хизмат қиладиган профессионал жанговар тайёргарликка эга бўлган ҳар мамлакатда содир этилиши мумкин бўлган террористик ҳаракатларнинг оқибатларини бартараф этиш вазифаларини бажариш юклатилади.

Хавфсизлик тизимлари баҳоланганда одатда аниқ бир объект учун хавфсизликнинг умумий концепцияси томонидан қўйиладиган талабларга тўлиқ жавоб берилиши аниқланиши керак бўлади ва қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади. [2; 11-19 б.]

қўриқлашнинг техник воситалари – қўриқланадиган объектларни тажовузлардан ҳимоя қилиш учун фойдаланиладиган, мустақил вазифаларни бажарадиган, конструктив жиҳатдан якунланган қурилмалар;

техник аниқловчи воситалар – қўриқланаётган объектга ўрнатилиб, муҳандислик тармоқ ва коммуникациялари тизимига бирлаштирилган

ҳамда объект бутлиги бузилишини белгиланган турда намойиш этувчи, маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш, узатувчи техник қўриқлаш сигнализация воситаларининг биргаликда қўлланиладиган йиғиндиси;

қўриқлашнинг техник видеокузатув воситалари – техникавий, ахборотлаштирилган, дастурий ва фойдаланишни бирлаштиришга эга ва телевизион кузатувни амалга оширишни биргаликда қўллайдиган техник воситаларнинг йиғиндиси;

кириш-чиқишни назорат қилувчи ва бошқарувчи тизим – техник, ахборотлаштирилган, дастурий бирлаштиришга эга, инсон ва автотранспорт воситаларини кириш чиқишини электрон ҳисоботини олиб борган ҳолда назорат қилувчи ва биргаликда қўлланиладиган бошқарувчи назорат қилувчи ва бошқарувчи техник воситаларнинг (механик, электро-механик, электрли, электр қурилмалар, конструкцияли ва дастурий воситалар) йиғиндиси;

ташвиш - чақирув сигнализация воситалари – ишлаб турган даврда объектга ҳужум бўлганида ёки объект қўриқланиш тизими бузилишини аниқланганда ташвиш хабари беришга имкон берувчи техник воситаларнинг йиғиндиси;

хабар бериш тизими – шахсий таркибни тревога ёки фавқулодда ҳолатлар ҳақида (авариялар, ёнғин, табиий офат, ҳужум, террористик акт) тезкор хабарлаш ва уларнинг ҳаракатларини мувофиқлаштириш мосламаси;

маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва намойиш этиш воситалари – маълумотларни алоқа канали орқали узатиш, қабул қилиш ҳамда сақлашни амалга оширувчи ўзаро ишловчи техник воситаларнинг йиғиндиси;

электр таъминоти воситалари – қўриқлашнинг техник воситалари ёки уларнинг бир қисмини ишлаши учун электр таъминотини таъминлаш тизимининг бир қисми;

тақиқланган ҳудуд – рухсат этилмаган бегона шахсларнинг бўлиши тақиқланган чегараси белгиланган жой ёки ҳудуд;

тартиботли хона (бино, иншоот) – махфий ишлар олиб бориладиган ва давлат сирига эга бўлган маълумот ташувчилар сақланадиган ва кўрсатилган маълумотларни сақланишини таъминлайдиган жой;

сарҳад – электр занжир билан кетма кетликда бирлашган, ушбу занжирга боғлиқ бўлмаган бошқа техник воситаларнинг қўриқланаётган ҳудудга рухсатсиз кириш хабарини узатувчи қўриқлашнинг техник воситаларининг биргаликда ҳаракатланувчи йиғиндиси.

Агарда видеокузатувни ўрнатиш ҳақида қарор қабул қилган бўлса, дастлаб видеокузатувнинг қайси тури долзарб бўлиши, тизимнинг қайси бири маъқул бюджетда максимал самарадорликни таъминлай олишига аниқлик киритиш керак [3; 191-195 б.].

Тўғри дан-тўғри видеокузатувнинг самарадорлиги

Тўғри дан-тўғри видеокузатув, қоида тариқасида, узликсиз режимида амалга оширилади. Жойларда ўрнатилган кузатув камераларидан келадиган тасвирлар операторнинг мониторига чиқарилади. Самарадорлик қуйидаги бир нечта омилларга боғлиқ : тасвирлари битта оператор томонидан баҳоланадиган кузатув камераларининг миқдори (кузатув камераларининг сони оширилганда самарадорлик пасаяди, уларнинг энг мақбул сони – 4 дан ортиқ эмас); операторнинг психофизиологик аҳволи ҳамда иш давомида унинг мотивасия даражаси; операторнинг ишлаш режими (мониторда вазиятни самарали кузатиш даражаси пасайиб боради, шунинг учун ишни навбатчилик шаклида ташкил этиш тавсия этилади); тасвирнинг сифати – тўғри дан-тўғри қўлланиладиган жиҳозларга, уларнинг тўғри ўрнатилиши (кузатув бурчаги, объектнинг ёритилганлиги ва ҳ.к.)га боғлиқ [4; 147-149 б]

Умуман айтганда, агарда назорат остидаги объектда вазиятнинг ўзгаришига тезкор таъсирланиш талаб этилса тўғри дан-тўғри видеокузатувдан фойдаланиш ўринлидир. Ушбу ҳолатда оператор белгиловчи омил бўлади. Айнан унинг ишлаши сифатидан 90 % гача тизимнинг самарадорлиги боғлиқ .

Ёзиб олиш функциясига эга видеокузатувнинг самарадорлиги

Ёзиб олиш функциясига эга видеокузатув қўриқланадиган объектда содир бўладиган воқеаларни қайд қилиб олишга имкон беради. Самарадорлик биринчи ўринда қуйидаги техник омилларга боғлиқ : ўрнатилган кузатув камераларнинг техник тавсифлари; ёзиб оладиган жиҳозларнинг параметрлари; автономлик; қўшимча

функционалликка эгалиги (вақт бўйича ёзиб олиш, ҳаракат датчиклари ишлаб кетганда кузатув камераларининг қўшилиши).

Бундан ташқари, кузатув камераларининг тўғри ўрнатилиши ва ёзиб олувчи жиҳозларнинг бегона аралашувдан ҳимояланиши самарадорликка таъсир кўрсатади. Қоида тариқасида, кўп ҳолатларда ёзиб олиш функциясига эга видеокузатув объектда мавжуд бўлган хавфсизлик тизимига интеграсияланади.

Сифатли ва тўғри ўрнатилган жиҳозлар қисқа муддатларда тартиббузарнинг шахсини аниқлаш, назорат остидаги ҳудудга кириш вақтини қайд этиш ҳамда амалга оширилган жиноятни тергов қилиш жараёнини тезлаштириш имконини беради. [5; 31-36 б, 35; 114-153 б].

Яширин видеокузатувнинг самарадорлиги

Яширин видеокузатув – энг самарали тизимдир. Унинг асосий афзалликлари: антивандал ҳимоянинг энг баланд даражаси; жиноятчи кузатув камераларнинг жойлашувини ва тегишлича кузатув ҳудудини билмайди; тартиббузар эркин ҳаракатланади ва ўзини яширишга кам эътибор қаратади, бу эса унинг шахсини аниқлаш эҳтимоллигини оширади.

Бироқ, мазкур видеокузатув туридан фойдаланиш бир қатор ахлоқ-одоб омилларга боғлиқ бўлиб, амалдаги қонунчиликка мувофиқ тартибга солинади. Жумладан, давлатнинг махсус хизматлари томонидан фойдаланишга рухсат берилган жиҳозларнинг рўйхати мавжуд. Шу боис, яширин видеокузатув, ўзининг самарадорлигига қарамасдан, хавфсизлик тизимларида камдан кам қўлланилади.

Видеокузатув самарадорлигини баҳолаш мезонлари

Видеокузатув самарадорлигининг баҳоланиши қуйидаги мезонларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади:

Иқтисодий. Тайёр тизимнинг ҳақиқий қиймати эҳтимолий йўқотишлар даражасига нисбати билан баҳоланади. Масалан, кичик объектда тўғри дан-тўғри видеокузатувдан фойдаланиш мақсадлими (штатли операторга тўланадиган ойлик маошга сарф-ҳаражатлар) ёки ёзиб олиш функциясига эга видеокузатувдан чекланса бўладими.

Функционал. Тизимнинг функционал имкониятлари ишлаб чиқилган хавфсизлик концепцияси томонидан қўйиладиган талабларга қанчалик мос келади (кузатув камераларнинг сони, ёзиб олиш давомийлиги, онлайн-кузатувни ташкил этиш имкони ва ҳ.к.).

Эҳтимолий. Таҳдидлар аниқланишининг талаб этиладиган эҳтимолликларига эришиш мақсадида қўлланиладиган жиҳозларнинг умумий хавфсизлик тизимига мослиги. Масалан, кузатув камералари тартиббузарлик пайтини аниқлаб олиши ёки оператор қўриқланадиган объектга киришни аниқлай олиши эҳтимолликлари. [26].

Ушбу омиллар қўшимча мезонлари (объектнинг жойлашуви, ёритилганлик даражаси, ўрнатилган жиҳозларнинг барча техник тавсифлари)ни ҳисобга олгна ҳолда профессионал баҳолашни талаб этади.

Хавфсизлик даражасига паст талабларга эга нопрофессионал тизимларнинг самарадорлигини баҳолаш учун функционал мезонлардан фойдаланишнинг ўзи кифоя. Масалан, қулай ИП видеокамераларнинг оммабоплиги ва онлайн-сервисларнинг кенг тарқалаши иқтисодий омилларни чиқариб ташлашга имкон беради [3; 191-195 б.].

Юқоридагиларга мувофиқ қўриқланадиган объектларда видеокузатув тизимларининг самарадорлигини ошириш мақсадида қуйидаги усулларни амалга ошириб бориш таклиф этилади [6; 4-8 б.]**:** жиҳозларнинг янги намуналарини ҳарид қилиб, мавжуд тизимни янгилаб бориш; турли тизимларнинг комбинасиясидан фойдаланиш. Масалан, тўғри дан-тўғри видеокузатувни ёзиб олиш функциясига эга видеокузатув билан қўллаш; тўлақонли хавфсизлик тизими кўринишини ҳосил қилиш учун кузатув камераларининг муляжларидан фойдаланиш (статистика бўйича муляжлар тартиббузарликларнинг фоизини сезиларли даражага пасайтиради); узлуксиз электртаъминот манбаидан фойдаланиш (электр энергиянинг умумий учиши видеокузатувнинг ишлашига таъсир кўрсатмаслиги керак, сифатли узлуксиз электртаъминот манбаи (УПС) маълум бир вақт ичида тизимнинг автоном ишлашига имкон

беради); Интернет-технологияларидан фойдаланиш (тоифаланмаган объектлар учун). ИП камерасига дунёнинг эҳтимолий нуқтасидан кириш ва тизимни масофавий бошқариш имконияти, унинг самарадорлигини сезиларли оширади; ёзиб олиш жиҳозларининг яширин ўрнатилиши. Тартиббузарлар 90 % ҳолатда кузатув камераларини аниқлаб олганидан сўнг видеорегистраторни топиш ва йўқ қилишга ҳаракат қилишади.

Хулоса яширин ўрнатилиш видеомаълумотларни ва жиҳозларни сақлаб олишга кўмаклашади; видеорегистраторлар учун янги дастурий таъминотини ишлаб чиқиш ва ўрнатиш; операторлар штатини ошириш ва уларнинг малакасини ошириш. Тўғри дан-тўғри видеокузатув учун долзарб ҳисобланади, айниқса катта майдонларга эга қўриқланадиган объектларга ўрнатиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гарсиа М. Проектирование и оценка систем физической защиты. Под ред. Р.Г. Магауенова. − М.: Мир, 2002. стр. 11-19. (ЎР ЖХУ электрон адабиётлар кутубхонаси).

2. Ачилов Ф.Б. Қўриқлашнинг видеокузатув тизимлари: Дарслик. ХДФУ – Т.: ҲТИ, 2019. 191-195 б. (ЎР ЖХУ ХДФУ кутубхонаси).

3. Очилов И.Н., Ҳарбий шаҳарчалар хавфсизлигини таъминлашда техник қўриқлаш видеокузатув воситаларининг таъминот масалалари. ХДФУ // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Жамоат хавфсизлиги университетининг “Жамоат хавфсизлиги илмий-амалий журнали Ахборотномаси. 2-сон. Т.: ҲТИ, 2022. 147-149 б. ЖХУ ХДФУ кутубхонаси.

4.Давлетов Д.В. Проблемы и решения при оценке надежности системы безопасности охраняемых объектов // “Қўриқланадиган объектлар хавфсизлик тизимининг ишончлилигини баҳолашда муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Т.: ҲТИ, 2021, 31-36 б. (ЎР ЖХУ кутубхонаси).

5. И.Н.Очилов. Объектларни қўриқлашда видеокузатув тизимини лойихалашда ечилиши лозим бўлган масалалар // “Ўзбекистон Республикасида интеллектуал хавфсизлик тизимларининг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. т.: ҳти, 2019, 11-13 б. (ЎР ЖХУ кутубхонаси).

СИМСИЗ ТАШВИШ-ЧАҚИРИҚЛИ СИГНАЛИЗАЦИЯ ВОСИТАСИ ҚУРИЛМАСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Парсиев Саидахад Солиходжаевич
Жамоат хавфсизлиги университети Ахборот технологиялари кафедраси техника фанлари доктори., доцент
Очилов Истам Набиевич
Жамоат хавфсизлиги университети Қўриқлашни муҳандислик-техник таъминоти кафедраси доценти, доцент;

Бугунги кунда ҳарбий қисмнинг ҳудудий хавфсизлигини таъминлашда сигнализация қоровул ва суткалик навбатчини хабардор қилиш муаммоси долзарб бўлиб қолмоқда, чунки бу юзага келган таҳдидни тезда бартараф этишга ёрдам беради, қоровул ва суткалик навбатчини ўз вақтида хабардор қилиш назорат тизимининг асосий омилларидан бири ва барча даражадаги назорат органларининг асосий вазифаларидан бири бўлиб, тинчлик ва уруш даврида фавқулодда вазиятларда ҳимоя қилишни ташкил этади. Ҳар қандай таҳдидга жавоб бериш ҳар қандай хавфнинг пайдо бўлиши ёки таҳдиди ҳақида хабар бериш ва хабардор қилишдан бошланади[1].

Симсиз сигнализация қурилмасини тақдим этилади у объектдаги фавқулодда вазият ҳақида тегишли хизматларни хабардор қилиш учун сигнални қабул қилувчи консолга ўз вақтида узатиш учун ишлатилади. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида қўриқлаш ва патрул хизмати учун намуна сифатида саноат ишлаб

чиқаришига киритилиши мумкин бўлган мобил симсиз ташвиш-чақириқли сигнализация қурилмасини келтирилган.

Бу мақсадни амалга ошириш учун хорижда АЛТОНИКА PP-701T русумли қурилма асосида ишлаб чиқилган сигнализация тизимлари, техник мақсадига ўхшаш тизимлар, ёнғин содир бўлганда огоҳлантириш тизимлари, турли ташкилот ва корхоналарнинг сигнал бериш тугмалари таҳлил қилинди ва ҳарбий қисмларнинг комплекс хавфсизлигини таъминлаш учун ишлаб чиқилган фавқулодда вазиятларда шахсий таркибга юкланган барча вазифаларни бажариш учун ушбу қурилмадан фойдаланиш шарт.

Симсиз ташвиш-чақириқли сигнализация воситаси қурилмасининг тузулмавий схемаси ишлаб чиқилиб, унинг бирламчи элементлари танланган ва асослантирилган ҳамда ишлаш алгоритми тузилган.

Маълумки, қўриқланадиган объектларда ҳам электр таъминоти ўчиб қолиш ҳолатлар кузатилиб турилади. Юқорида кўрсатиб ўтилган муаммонинг ечими сифатида ҳарбий объектларнинг қўриқлашда “Ҳарбий шаҳарчалар ҳавфсизлигини таъминлашда хизматда жалб этилган ҳарбий хизмачилар учун ташвиш чақириқли сигнализация воситалари” ишлаб чиқилган [2; 27-30 б.].

Мазкур қурилма “Симсиз ташвиш чақириқли сигнализация воситаси” ЭҲМ учун дастур (маълумотлар базаси) ёрдамида ишлайди [3;16733-сон гувоҳномаси.].

Ўзбекистон Республикаси ҳарбий қисмларининг ҳудудий хавфсизлик тизимини таъминлаш мақсадида симсиз сигнализация қурилмасини айни пайтда Ўзбекистон ҳарбий қисмларида мавжуд эмас.

Симсиз ташвиш чақириқли сигнализация қурилмаси тизими объектдаги назорат остига олинган ҳудудда фавқулодда вазият ҳақида йиғин ахборотли сигнални тегишли хизматларни хабардор қилишда марказлаштирилган тизимга узатиш учун мўлжалланган. Ташвишли сигнализация қурилмасининг тузилмавий схемаси 1-расмда тақдим этилган. [4].



1-расм. Қўриқлаш тизимида симсиз ташвиш чақириқли сигнализация тизими қурилмасининг тузилмавий схемаси

Қурилманинг асосий функциялари:[5]

- қурилманинг олд панелида жойлашган тугмани босиш орқали сигнал сигналини шакллантириш, кейинчалик уни мобил алоқа тармоғи орқали марказлаштирилган тизимга узатиш. Қурилма НРФ 250л + антенна (Радиомодуль) орқали автоматик равишда тақдим этилганлиги сабабли тармоқда одатий тарзда аниқланади [6; 54-55 б]

- жойлашувни (ёки фойдаланувчининг жойлашувини) аниқ автоматик аниқлаш ва маълум координаталарни ГПС навигацияси орқали сигнал сигнали билан марказлаштирилган тизимга узатиш. Ўрнатилган ГПС-қабул қилувчининг сезгирлиги чекланган ва ёпиқ жойларда, ҳатто подваллар ҳам барқарор жойлашишни таъминлайди;

- қурилма фойдаланувчиси ва марказлаштирилган тизим оператори (масофавий оператор билан) ўртасидаги икки томонлама алоқа сифатида ҳам хизмат қилади;

- соқчи ва патрул томонидан вазиятдан қарор чиқариб тугма босилганда сигнал автоматик равишда узатишни таъминлайдиган геоофенсэ режими ("геофенсе") мавжуд;

- бошқарув панелидаги ўрнатилган журналга маълумотларни автоматик киритиш билан фойдаланувчи билан боғлиқ координаталар ва ҳодисаларни кузатиш.

Симсиз ташвиш-чақириқли сигнализация воситаси қурилмасини асосий техник хусусиятлари қуйидагилардан иборат [7; 114-116 б].

Қўриқлаш тизимида симсиз ташвиш чақириқли сигнализация тизими қурилмаси ишлашининг алгоритмини ишлаб чиқиш:

Қурилма уч блокларнинг йиғиндисидан иборат.

1-қадам. Ҳолат юзасидан қурилма тугмаси босиш лозим.

2-қадам. Натижа маълумотларни узатиш блоки (ГСМ модуль), орқали мониторинг марказига юборилади.

3-қадам. Учинчиси – маълумотларни намоён этиш блоки (ЛМ016Л русумли ЛСД дисплей), у микроконтроллёрга келиб тушган ва ишлов берилган маълумотларни намоён этади ҳолат бўйича қарор қабул қилинади..

Қўриқлаш тизимида симсиз ташвиш чақириқли сигнализация тизими қурилмаси ишлашининг алгоритмини 2.2-расмда тақдим этилган.



2-расм. Қўриқлаш тизимида симсиз ташвиш чақириқли сигнализация тизими қурилмаси ишлаш алгоритми

Қурилманинг бирламчи элементларини танлаш ва асослаш усуллари

Турли лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва уларни автоматлаштириш билан боғлиқ техник вазифаларни ҳал қилиш учун ҳозирги вақтда қуйидаги иккита машҳур платформалар қўлланилади:

1) Ардуино;

2) Распберрй Пи.

Шуни айтиш жоизки, Ардуино ва Распберрй Пи – бу бир биридан техник тавсифлар бўйича фарқланадиган платалардир. Масалан, “Распберрй Пи” даги протсессор Ардуино дан 40 баравар тезроқ ишлайди. Шунингдек, тезкор хотирада ҳам 100 бараварга фарқланиш мавжуд (“Распберрй Пи” – 1 Гб, Ардуино – 32 Кб).

Қурилманинг ишлаши Университет ҳарбий шаҳарчаси ҳамда Миллий гвардия бўлинмаларида ҳарбий объектларнинг комплекс қўриқлаш тизимининг даражасини аниқлаш мисолида синаб кўрилди ҳамда соҳа мутахассислари томонидан қўриқлашда симсиз ташвиш чақириқли сигнализация тизимларидан фойдаланиш ижобий натижалар олинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёэвнинг 2018 йил 11 январдаги Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи.

2. Очилов И.Н., Ҳарбий шаҳарчалар хавфсизлигини таъминлашда хизматда жалб этилган ҳарбий хизматчилар учун ташвиш чақириқли сигнализасия воситаларининг ўрни ва аҳамияти. ХДФУ // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Жамоат хавфсизлиги университетининг “Жамоат хавфсизлиги илмий-амалий журнали Ахборотномаси. 2-сон. Т.: ҲТИ, 2022. 27-30 б. ЖХУ ХДФУ кутубхонаси.

3. Очилов И.Н., Абдурасулов А.А., Иботов Қ.Н. “Симсиз ташвиш чақириқли сигнализасия воситаси. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлигининг 2022 йил 09 июндаги ДГУ 16733-сон гувоҳномаси.

4. И.Н.Очилов Кириш-чиқиш жараёнини назорат қилувчи ва бошқарувчи тизимлар. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси объектларини ҳимоялаш тизимига юз идентификасияли биометрик терминалларни жорий етиш масалалари // “Ўзбекистон Республикасида қўриқланадиган объектларни қўриқлашда инновасион ечимлар” мавзусидаги республика илмий-амалий (онлине) конференцияси материаллари тўплами. т.: ҲТИ, 2020, 69-74 б. (ЎР ЖХУ кутубхонаси).

5. Очилов И.Н., Абдурасулов А.А., Иботов Қ.Н. “Симсиз ташвиш чақириқли сигнализасия воситаси. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлигининг 2022 йил 09 июндаги ДГУ 16733-сон гувоҳномаси.

6. Очилов И.Н., Ҳарбий шаҳарчалар хавфсизлигини таъминлашда бонг номли ташвишгох сигнал тизими. ХДФУ // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Жамоат хавфсизлиги университетининг “Жамоат хавфсизлиги илмий-амалий журнали Ахборотномаси. 4-сон. Т.: ҲТИ, 2022. 54-55 б. ЖХУ ХДФУ кутубхонаси.

7. Очилов И.Н., “Авторское беспроводное устройство тревожного оповешения” Тошкент ахборот технологиялари университетининг Муҳаммад Ал-Хоразмий авлодлари номили илмий журнали 2023 йил 2-сон Т.: 114-116.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ ҚЎРИҚЛАШ БОШ БОШҚАРМАСИ “ҚЎРИҚЛАШ СЕРВИС” ДУК ТОМОНИДАН ҚЎРИҚЛАШНИ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИДА УСТАХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Очилов Истам Набиевич
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
Қўриқлашни муҳандислик- техник таъминоти кафедраси доценти
Рейпназаров Махмуд Байназарович
Жамоат хавфсизлиги университети Магистратура тингловчиси

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида қўриқланадиган объектлардаги **Техник қўриқлаш воситаларининг эксплуатация қилиш жараёнида** таъмирлаш устахоналарининг фаолияти эътибордан қолиши шунингдек биринчи навбатда, техник воситалари ва уларнинг иш унумдорлигини, уларга техник хизмат кўрсатиш таъмирлаш масалалари, хавфсизликга қаратилган тизимли механизм йўқлиги. Маълумки, жанговар хизматни олиб боришда бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлигини Миллий гвардия тузилмасига юклатилган бўлиб, ушбу йўналишдаги техник воситаларини эксплуатация этиш ва назорат қилиш, таъмирлаш ва МТҚВ мутахассислар хизматининг оғирлигини баробар тақсимлаш ва юкламаларнинг ўз йўналишлари бўйича тўғри хисоб китоб этилиши талаб қилмоқда. Демак, хозирги вақтда кўплаб объектларимизнинг техник воситалари замонавий техник воситаларига алмаштирилмоқда.

Бугунги кунда, мазкур соҳада Ўзбекистон Республикасидаги Қуролли Кучлар тизимида хавфсизлигини таъминлаш масаласи қўриқлашни ташкиллаштириш ва таъминлаш бўлимлар зиммасига юклатилган бўлиб, ушбу вазифаларни бажаришда техник воситаларини ўрни беқиёсдир. Бироқ техник воситаларини қўриқлаш объектларида таъминланиши бир қанча ҳарбий тузилмалар ҳамда

хокимликларнинг МТҚВни эксплуатация этишда даврий қийинчиликларни юзага чиқармоқда. Бунга Қуролли Кучлар тизимидаги объектларни қўриқлашни техник воситаларини эксплуатация этишда, уларнинг техник талаблари бўйича нотўғри фойдаланишлари яни ўз вақтида техник хизмат кўрсатиш яни кунлак, режали ва режадан ташқари техник хизмат кўрсатиш ишлари олиб борилмаслиги шунингдек ушбу техник воситаларининг тўлиқ таъминланмаганлигини ва муқаддам таъминланган техник воситалари ўз вақтида таъмирлаш регламент хажмидаги техник хизмат кўрсатиш ва таъминоти масалалари кўриб чиқилмаганлигидан далолат беради. [1]

Қоидага кўра қўриқлашни техник воситалар механизимини ташкиллаштиришда қўриқланаётган объектнинг табиатини тафсифланишда қуйидагиларни кузатишимиз мумкин:

Қўриқлашнинг техник воситалари (ҚТВ) – қўриқланадиган объектларни тажовузлардан ҳимоя қилиш учун фойдаланиладиган, мустақил вазифаларни бажарадиган, конструктив жиҳатдан якунланган қурилмалар;

Қўриқланадиган объект – белгиланган тартибда қўриқлашга олинган жисмоний ва юридик шахсларнинг бинолари, иморатлари, иншоотлари, уларнинг ҳудудлари, жойнинг участкалари, транспорт воситалари, транспортда ташиладиган юклари, пул маблағлари, моддий бойликлари ва бошқа мол-мулки, шунингдек жисмоний шахс тушунилади [2].

ТҚВ ишончлилиги – маълум бир техник маҳсулотнинг белгиланган муддат ичида, талаб қилинадиган вазифаларини сақлаш, техник хизмат, таъмирлаш, сақлаш талабларига жавоб берадиган хусусиятлари тушунилади. ТҚВнинг ишончлигига таъсир қиладиган омиллар қуйдагича:

ишлашдан рад этиш – воқеа ҳисобланиб, техник маҳсулотнинг иш фаолиятини бузилиши деб ҳисобланади.

ишлашдан рад этишнинг бир тури;

сигнал йўқотиш – датчик аниқлаш ҳудудида тартиб бузар пайдо бўлганида тревога сигналининг берилмаслиги;

яроқли ҳолат (яроқлик) – техник маҳсулотнинг меъёрий-техник ҳужжатлардаги талабларга жавоб берадиган хусусияти ҳисобланади;

яроқсиз ҳолат (яроқсизлик) – техник маҳсулотнинг меъёрий - техник ҳужжатлардаги талабларга жавоб бермаслик хусусияти ҳисобланади;

ишчи ҳолат – техник маҳсулот ишига таъсир кўрсатмаган ҳолда, унинг барча параметрлари меъёрий-техник ҳужжатлар талабларига қисман жавоб бериши;

ишсиз ҳолат – техник маҳсулотнинг барча параметрлари меъёрий - техник ҳужжатлар талабларига тўлиқ жавоб бермаслиги;

оҳирги ҳолат – объектнинг ҳолати бўлиб, ушбу ҳолатда ундан ўз вазифаси бўйича фойдаланиш ёки унинг яроқли ҳолатини тиклаш мақсадга мувофиқ эмас;

дефект – маҳсулотнинг белгиланган талабларга ҳар бир алоҳида жавоб бермаслиги;

шикастланиш – маҳсулот ишчи ҳолатини сақлаган ҳолда, яроқли ҳолатдаги бузилиш;

техник ресурс – маҳсулот фойдаланиш ёки таъмирдан кейинги вақтдан сўнг ишлаш вақти; хизмат вақти – маҳсулот фойдаланишга киритилган вақтдан бошлаб календар иш вақти. [3. 30-33]

ТҚВ билан фойдаланганда унинг ишончлигига таъсир қиладиган омиллар қуйидагича:

фойдаланиш шароити; ТҚВ билан фойдаланишнинг ташкил этиш даражаси;

муҳандислик-техник қўриқлаш воситалари мутахассислари малакаси. Қуйдагилар ТҚВ ишончлилигини оширишда асосий йўллар ҳисобланади:

техник хизмат ишларини сифатли ва ўз вақтида ўтказиш;

ТҚВ мутахассисларининг малакасини ошириш;

ТҚВни ўз вақтида таъмирлаш;

ТҚВга техник кўриклар ўтказиш;

ТҚВ ишончлилигини кўтариш тавсияларини ишлаб чиқиш;

ТҚВ отказ ва бузилишлари ҳақида маълумотларни йиғиш;

датчикларнинг ёлғон маълумот бериш сабабларини аниқлаш ва бартараф этиш. ТҚВнинг фойдаланилиш ишончлиги бўйича маълумотларни йиғиш ва жамлаш қуйдаги мақсадларда ўтказилади: ишлаб чиқарувчи ва таъмирловчи ташқилотларга ТҚВнинг сифатини ошириш, ишончсиз блок ва радиоэлементларни алмаштириш ҳақида тавсиялар бериш; ТҚВ бузилиши, датчикларнинг сигнал йўқолиш сабабларини аниқлаш ва уларни бартараф қилиш; ТҚВ билан фойдаланилиш, таъмирланиш, сақланилиш тадбирларини такомиллаштириш ҳақидаги тавсияларни ишлаб чиқиш; захира қисмлар меъёрларини аниқлаш; фойдаланиш ва таъмирлаш ҳужжатларининг тўлиқлигини аниқлаш; ТҚВ билан ўтказиладиган техник хизмат учун жалб қилинадиган шахсий таркиб меъёрини аниқлаш. ТҚВнинг ишончлилигини баҳолаш ва унинг сифатини ошириш йўлларини аниқлаш учун тажрибали ва назорат фойдаланилиш ишлари ташкил этилади.

Техник хизмат кўрсатиш ишлари-техник қўриқлаш воситаларининг мажмуавий техникавий тадбирлари, эксплуатация этиш даврида техник хужжатларда келтирилган барча талабларни йиғиндиси тушунилади.

Техник хизмат кўрсатиш ишларининг асосий васифаси қуйидагилардан иборат: [4]

Ушбу тадбирни ўтказиш давомида ТҚВнинг бузилишлари ва уларни бартараф этиш йўллари ҳақидаги маълумотлар йиғилади. ТҚВдан тажрибали фойдаланилиш иши норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган талаблар асосида ташкиллаштирилади.

МТҚВ хизматининг мажбуриятларидан, яъни шахсий таркиб жанговар хизматини енгиллаштириш, хизматга жалб этиладиган ҳарбий хизматчиларнинг сонини камайтириш, шунингдек жанговар хизматга сарфланаётган куч ва воситаларни тежаш, уларнинг ҳаракатлари қонунийлигини келиб чиққан ҳолда ёндашиш мақсадга мувофиқ. Аммо, ҳозирги вақтда ҚТВнинг таъминоти масалаларида бир қатор муаммолар мавжудлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш керак.

Жанговар хизматни олиб боришда ҚТВ таъминот масалаларининг муаммолари қаторида қуйидагиларни келтириб ўтиш

мумкин:

Энг авалло, шуни таъкидлаб ўтиш керакки, ҳозирги вақтда объект хавфсизлигини таъминлаш учун ҚТВнинг таъминоти босқичма-босқич амалга ошириб борилмоқда, бироқ уларни эксплутациясига штатли МТҚВ мутахассислари жалб этилмаяпти. Сабабини ўрганиш вақтида кўпгина Қуролли кучлар тизими техник қўриқлаш воситалари хизматидан файдаланиб келиш баробари ҚТВ аппаратураларни жанговар хизматга жалб этилиб, юқоридаги эксплуатация талаблари учун устахоналар ташкиллаштирилмагани, уларга жавобгар шахслар бириктирилмаганлиги ёки бириктирилган харбий хизматчиларнинг мутахасисслиги умуман бошқа сохага тегишлилиги аниқланган. Юқорида ном олган ҳарбий тузилмаларда ҚТВ билан техник фойдаланиш масалаларини, яъни техник хизмат кўрсатиш ишларини олиб боришда, аппаратураларни ҳисобдан чиқаришда ва уларнинг техник ҳолатига хулоса бериш ишларини ташкил этишда фуқаролик ташкилотларга шартнома асосида мурожаат этилиши [5].

Қуролли Кучлар ҳарбий тузилмаларида ҚТВ билан техник фойдаланиш тадбирларнинг ташкил этилиши МТҚВ мутахассислигига эга бўлмаган, турдош мутахассисларга юклатилиши;

МТҚВ билан техник фойдаланиш тадбирларнинг моҳиятини тегишли мансабдор шахслар томонидан тўлақонли тушунмаслиги, яъни ҚТВни фойдаланиш муддатидан олдин ҳисобга чиқаришга ҳаракат қилиниши, пул маблағларининг ортиқча сарфланишига сабаб бўлмоқда;

Бугунги кунда XXI аср технологиялари даврида жоҳон бозорида қўриқлаш технологияларнинг энг такомиллашган турлари ишлаб чиқилишини кузатиб боришимиз мумкин, бироқ, ҳарбий тузилмаларнинг тегишли мансабдор шахсларида ушбу технологиялар чиқиши туфайли мавжуд аппаратлар эскириб қолиши ҳақида тушунчалар юзага келиши, уларни янгиларга алмаштиришга интилишлари пайдо бўлмоқда;

ҚТВнинг ишлаб чиқаришда маҳаллийлаштириш масаласи йўлга қўйилмаганлиги, уларни хориждан ҳарид қилинишига, бу эса давлатимиз бюджетидан катта ҳажмда валюта маблағларини сарфланишига олиб келмоқда. ҚТВнинг сотуви билан шуғулланувчи фуқаролик ташкилотлари буни бизнесга айлантириши натижасида, ҳарбий тузилмаларда бу масала катта муаммо сифатида вужудга келиб, техник воситаларни тўлақонли эксплуатация этиш тизимини яратишга тўсқинлик қилмоқда.

Шунингдек тоифаланган объектларимиз учун юқорида келтириб ўтилган моммолар сабабини ўрганар эканмиз биринчи навбатда объект хавфсизлигининг ишончлилиги фуқоролик ташкилотларига қараганда штат бирлигида МТҚВ харбий мутахассисларда экани бунинг яққол мисоли сифатида кўришимиз мумкин.

Демак, МТҚВ билан техник фойдаланиш тадбирларини сифатли ташкил этишга тўсқинлик қилувчи юқорида келтириб ўтилган муаммолар юзасидан хулоса чиқариб, бир қатор таклифларни илгари суришни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман:

Ҳозирги вақтда Қуролли Кучлар тизимидаги қўриқланадиган объектларида техник воситалар фаолиятининг аппаратураларни таъмирлаш ва қайта тиклаш шунингдек техник хизмат кўрсатиш, таъмирлаш ишлари хусусий тадбиркор субъектларининг устахоналари томонидан ўтказилмоқда.

Қўриқлашнинг техник воситалари ҳолатини назорат қилиш ва тўғри эксплуатация этиш этиш давомида мазкур технологик жараённи соддалаштирувчи рақамли технологиялар, жумладан қўриқлашнинг техник воситаларини назорат қилиш ва таъмирлашда, таъмирлаш оғирлик коэффициентини аниқлаш усулининг дастурий алгоритмлари қўлланилмаслиги [6].

Қўшинларда аппаратларнинг ишлашида камчиликларни аниқлаш, уларни келгусида бартараф этишда тезкорликни таъминлаш учун қўриқлашнинг техник воситалари ҳолатини назорат қилиш ва таъмирлаш тадбирини таъмирлаш оғирлик коэффициентини аниқлашга асосланган рақамли технологияларни ишлаб чиқиш ҳисобига такомиллаштириш зарур.

ҚТВ билан техник фойдаланиш тадбирларини сифатли амалга ошириш учун ҳарбий тадқиқот марказларини ягона тизимга келтириш мақсадида;

ҳозирда мавжуд бўлган ҳарбий тузилмаларнинг штат бирликлари учун автоматлаштирилган алгоритм ишлаб чиқиш, объектлардаги аппаратуранинг техник фойдаланишига бевосита масъул бўлган мутахассисларнинг таъмирлаш устахоналар лавозимларини жорий этиш.

МТҚВ хизматини доимий эксплуатация этишда, унинг хаёт-фаолиятининг ички механизмларини юқори турувчи қўмондонлик ва бошлиқларнинг буйруқ кўрсатмаларига мос равишда ташкиллаштириш ва назоратни тўгри йўлга қўйиш айни долзарб масала сифатида инобатга олинишини исботлаш талаб этади.

Фикримча, ҚТВ билан техник фойдаланиш давомида юзага келаётган муаммоларни ўз вақтида ҳал этиш, мазкур соҳада сифатли илмий-амалий тадқиқотларни олиб бориш, шунингдек юқорида келтирилган тизимли муаммоларни ҳал этиш мақсадида Республикамизнинг Қуролли Кучлар тизимида хавфсизликни таъминловчи техник воситаларнинг таъмирлаш жараёнида назарий ва амалий механизимларини ушбу соҳаси учун ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман.

Хулоса ўрнида қўриқланадиган объектларда техник воситаларнинг таъмирлаш жараёнида назарий ва амалий механизимларининг фаолиятини такомиллаштириш талабларига тўлақонли роия этиш масаласини хам кўриб чиқган бўламиз ва объектнинг жангаовар хизмат фаолияти учун фойдаланилаётган ҚТВ устахоналари орқали ишончилилик масаласига ҳам ечим топа олган бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ачилов Ф.Б., Ёқубов У.А. Объектга кириш-чиқиш жараёнини назорат қилувчи ва бошқарувчи тизимлар: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2019. – 211 бет.

2 Ф.Б. Ачилов, Ш.Т. Шакиров, Ш.Қ. Нематиллаев, Ш.Х. Эшкуватов. Жанговар хизматни муҳандислик техникалари билан таъминлаш: Дарслик. – Т.: ҲТИ, 2019. – 178 бет.

3 Ачилов Ф.Б., Очилов И.Н., Мастанов Н.Т., Таджитдинов Г.Б., Фёдоров А.Б., Бозоров А.А., Муракаев И.И. Техник қўриқлаш воситалари: Дарслик. – Т.: ҲТИ, 2020. – 400 бет.

4. 225-сонли буйруқ 22.07.2022 йил кунидаги. ЎР МГ Бўлинмаларида объектларини техник қўриқлаш воситалари билан жихозлаш ва улардан фойдаланишни ташкиллаштириш тўғри сида

5 Ўзбекистон Республикаси ИИВ 88-сонли буйруқ 2004 йил кунидаги. ЖИЭМ ва ҚҚББ объектларини техник қўриқлаш воситалари билан жихозлаш ва улардан фойдаланишни ташкиллаштириш тўғри сида

6. Ф.Б. Ачилов, А.Б. Фёдоров, Н.Т.Мастанов, И.Н. Очилов. Техник қўриқлаш воситаларига техник хизмат кўрсатиш: Дарслик. – Т.: ҲТИ, 2019. – 85 бет.

“QO‘RIQLASH SERVIS” DAVLAT UNITAR KORXONASI USTAXONASI XIZMATINI TASHKILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Reypnazarov Maxmud Baynazarovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya: Maqolada “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasining faoliyati va asosiy vaziyfalari jismoniy va yuridik shaxslar mulkining xavfsizligini samaradorli ta’minlanishda tutgan o‘rni, korxona faoliyatining asosiy maqsadi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi, qo‘riqlash va yong‘in signalizatsiyasi, qo‘riqlov texnik vostitalari, kirib-chiqishni nazorat qilish.

Аннотация: В статье рассматривается рол деятельности и основные задачи Государственное унитарное предприятие “Qo‘riqlash Servis” в эффективном обеспечении безопасности имущества физических и юридических лиц, основная цель деятельности предприятия.

Ключевые слова: Государственное унитарное предприятие “Qo‘riqlash Servis”, охранно-пожарная сигнализация, технические средства охраны, пропускной режим.

Annotation: The article examines the role of the activity and main tasks of the state unitary enterprise “Qo‘riqlash Servis” in the effective provision of the security of the property of individuals and legal entities, the main purpose of the enterprise.

Key words: “Qo‘riqlash Servis” state unitary enterprise, security and fire alarm, security technical equipment, access control.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi va uning hududiy filiallari obyekt va xonadonlarda qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiya vositalari, videokuzatuv tizimlari va kirishni nazorat qilish, boshqarish tizimlariga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkillashtiradi. Bu shuni anglatadiki, qo‘riqlash xizmati elektromontyorlari muntazam ravishda jadvalga muvofiq ushbu obyekt va fuqora xonadonlarga o‘rnatilgan barcha qo‘riqlash tizimlarini tartibga solish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi, bu esa qo‘riqlanayotgan obyektlarning uzluksiz va ishonchli qo‘riqlashni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, qo‘riqlash va yong‘in signalizatsiya tizimlari, videokuzatuv tizimlarini, kirib-chiqishni nazorat qilish va boshqarish tizimlari (turniketlar)ni o‘rnatish uchun turli tashkilotlar va muassasalar bilan shartnomalar tuzadi.

“Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasidagi xodimlar o‘z vazifalarini malakali bajarishlari uchun “Qo‘riqlash Servis” korxanasi negizida Milliy gvardiya qo‘mondonligi tashabbusi bilan boshlang‘ish tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun o‘quv markazi

tashkil etilgan. Bu yerda noyob o‘quv-uslubiy materiallar yaratilgan, tajribali va yuqori malakali o‘qituvchilar xizmat olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi PQ-4060-sonli “Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta’minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Quyidagilar korxonaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korxona tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlarda o‘rnatiladigan qo‘riqlov texnik vositalari va tizimlarini montaj, demontaj qilish, tamirlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish ishlarini amalga oshirishda ushbu vositalarda parametrlar diagnostikasi, sozlash va reglament ishlarini o‘tkazish;

qo‘riqlov texnik vositalari, tizimlari va qurilmalarining zaxira qismlari hamda butlovchi qismlarini sotib olish;

qo‘riqlov texnik vositalari, tizimlarini va qurilmalarining texnik holati bo‘yicha dalolatnomalarini tayyorlash;

qimmatbaho va rangli metallarni hisobdan chiqarish, saralash va ikkilamchi qayta ishlab chiqarish korxonalariga topshirish uchun dalolatnomaga muvofiq qo‘riqlov texnik vositalari, tizimlari va qurilmalarini utilizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish;

foydalanish bo‘yicha o‘z resurslari tiklanmaydigan va qayta ishlanmaydigan qo‘riqlov texnik vositalari, tizimlari, qurilmalari (telefon, mobil aloqa, vositalar, radiotelefonlar va h.k.) hamda analog raqamli IP videokuzatuv vositalari uchun ekspert xulosasini berish;

video kuzatuv tizimi qurilmalarini montaj (demontaj) qilish, ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;

aloqa vositalarini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;

kabel aloqa liniyalarini montaj (demontaj) qilish, o‘tkazish, ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini amalga oshirish;

antenna-fider inshootlarini montaj (demontaj) qilish, ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, koaksial antenna kabellarini o‘tkazish ishlarini amalga oshirish;

qo‘riqlov texnik qurilmalari va tizimlarining turli standartdagi vositalari, uskunalari, moslamalari, o‘lchov asboblariva shu kabilarni yaratish, ishlab chiqish, yig‘ish, ishga tushirish va tatbiq qilish;

qo‘riqlov texnik vostitalari, tizimlari va qurilmalarining yangi tizmilari va qurilmalarini joriy etish;

qo‘riqlov texnik vositalari, tizimlari, qurilmalari va telekommunikatsiya hamda uzatish tizimlarini, ofis texnikalarini ta’mirlash va sozlash;

barcha turdagi maishiy texnikalarni (konditsioner, televizor, muzlatgich, chang yutgich, audio-video texnika va h.k.) montaj (demontaj) qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;

kompyuter texnikasini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;

ovozli xabar berish, qo‘riqlash va yong‘indan xabar berish tizimlarini montaj (demontaj) qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;

bino va avtoturargohlarga kirish va chiqishni nazorat qilish tizimi qurilmalarini (turniketlarni) montaj (demontaj) qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;

innovatsion texnologiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq qilish;

murakkab maishiy va boshqa texnikalarni montaj qilish, ta’mirlash, ishga tushirish va ularga xizmat ko‘rsatish;

ilmiy-texnik, konstruktorlik, loyiha ishlanmalarini ishlab chiqish, joriy etish va ularni tayyorlashda texnik yordam ko‘rsatish;

ilmiy-tekshirish, izlanish, tajriba ishlarini tashkil etishva o‘tkazish.

Korxona muassisnin roziligi bilan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga zid bo‘lmagan boshqa faoliyat turlari bilan ham shug‘ullanishi mumkin.

Korxona qonun hujjatlariga ko‘ra litsenziya olish talab etiladigan faoliyat turlari bilan faqat tegishli litsenziya olgandagina shug‘ullanishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar va ularning narxlari muassis bilan kelishilgan holda korxona tomonidan belgilanadi.

Korxona faoliyatini boshqarish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga hamda

“Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi Ustaviga muvofiq amalga oshiriladi. Korxona o‘z faoliyati to‘g‘risida muassis oldida hisobdordir.

Korxona daromadi xizmat ko‘rstishdan olingan daromadlar va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar hisobidan shakllantiriladi.

Korxona o‘z tasarrufida qoladigan sof foyda hisobiga korxona Ustavida nazarda tutilgan tartibda va muassis tomonidan tasdiqlangan miqdorda zaxira fondi va boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin.

Daromad (foyda)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi: Sof foyda barcha soliqlar hamda budjetga va byutdjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy to‘lovlardan keyin korxona tasarrufida qoladi va undan muassis qaroriga ko‘ra foydalaniladi.

Korxona o‘z moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘ri yuritilayotganligini tahlil qilish maqsadida tekshirish uchun auditorlarni taklif qilish huquqiga ega.

Korxonaning xo‘jalik yurituvchi subekt sifatidagi faoliyatini nazorat qilish Vazirlik nazorat-taftish inspeksiyasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Korxonaning javobgarligi: Korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi.

Korxona muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Korxona filiallari: Korxona muassis bilan kelishgan hamda amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek uning tashqarisida filiallar tashkil etishi mumkin.

Korxona xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatich korxonaning moliyaviy daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Xodimlarni mukofatlash tartibi va shartlari Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va saylangan kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda Korxona bosh direktori tomonidan tasdiqlangan jamoa shartnomasi va mokofatlash Nizomda belgilanadi hamda ularda Korxonaga yuklatilgan vazifalar va aniq belgilangan shartlardan kelib chiqib, mukofatlarni to‘lash davriyligi, mukofatlash ko‘rsatkichlari, xodimlarni mukofotlashga tavsiya etilmaydigan shartlari va mukofot miqdori ko‘rsatiladi.

Korxona xodimlariga bir yilda bir marotaba kuz-qish mavsumida qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini sotib olish uchun qanunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n borobarigacha bo‘lgan miqdorda to‘lovlar amalga oshiriladi.

Korxona xodimlariga har oyda transport xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir barobarigacha;

har oyda ovqatlanish harajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobarigacha to‘lovlar amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda xavfsizlik masalasi asosiy vazifalardan biriga aylandi. Bu o‘z o‘rnida “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi taraqqiyotining zamonaviy yutuqlari va mavjud turli xil texnik qayd etish vositalarini keng qo‘llash imkonini beradi. Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, hayotiy asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi PQ-4060-sonli “Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta’minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. 2021-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarich chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4997-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qomo‘ndonining 2023-yil 14-aprel kungi “Qo‘riqlash bosh boshqarmasi “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi 92-sonli buyrug‘i.

O‘TA MUHIM VA TOIFALANGAN OBYEKTLARNI QO‘RIQLASHNING UMUMIY TAVSIFLARI

Saipov Batirjon Baxtiyorjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘ta muhim va toifalangan obyektlarning toifalari, shuningdek, ularni qo‘riqlash va mudofaa qilishda qo‘llaniladigan kuch hamda vositalar, muhandislik va texnik qo‘riqlash tizimlari, qo‘riqlash usullari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘ta muhim obyekt, 1-toifali obyekt, 2-toifali obyekt, xususiy xavfsizlik kompaniyalari, toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi, qo‘riqlash tizimi, muhandislik qo‘riqlash vositalari, texnik qo‘riqlash vositalari.

Аннотация. В данном тезисе даются сведения о категориях особо важных и категорированных объектов, а также о способах и средствах, используемых при их защите и обороне, системах инженерно-технической защиты, способах сушки.

Ключевые слова. Особо важный объект, объект 1 категории, объект 2 категории, частные охранные предприятия, командование войск охраны категорированных объектов, система охраны, инженерные средства охраны, технические средства охраны.

Annotation. This thesis provides information about the categories of particularly important and categorized objects, as well as about the methods and means used for their protection and defense, engineering and technical protection systems, and drying methods.

Keywords. Particularly important object, object of category 1, object 2 categories, private security companies, command of troops protecting categorized objects, security system, engineering security equipment, technical security equipment.

So‘nggi vaqtlarda o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni mudofaa qilish hamda qo‘riqlash ishonchliligini oshirishda integrallashgan xavfsizlikni ta’minlovchi tizimlardan keng qamrovda foydalanilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida xavfsizlik darajalariga bo‘lgan talablarni doimiy ravishda oshib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu talablarni qondirish va masalalarni yechish uchun esa integratsiya qilinadigan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlar hamda yangi informatsion texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi.

Bu texnologiyalar toifalangan obyektlar xavfsizligiga taxdid soladigan xavf-xatarlardan himoya qiluvchi yong‘in-qo‘riqlash tizimlari, texnik qo‘riqlash vositalari nazorat-tartiboti boshqaruv tizimlari, videokuzatuv kameralari, shuningdek qo‘shimcha tizim osti dasturiy ta’minotlaridan iboratdir. Mazkur tizimlar katta va kichik masshtabdagi o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni xavfsizligini ta’minlashda keng qo‘llaniladi.

Mazkur tezisning dolzarbligi shundan iboratki, so‘nggi yillarda jahonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishdagi o‘zgarishlar, iqtisodiy muhim obyektlarga bo‘layotgan tajovuzlar mamlakatimizdagi harbiy va yirik sanoat obyektlarini, birinchi navbatda yoqilg‘i-energetika komplekslari, kimyo sanoati, atom energetikasi, tog‘-kon metallurgiya zavodlarni xavfsizligiga tahdidlar ko‘lamining keskin oshishiga olib kelmoqda.

Shu o‘rinda o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni kuchaytirilgan qo‘riqlashdan ko‘zlangan maqsad nima?, O‘ta muhim va toifalangan obyektlar sirasiga qanday obyektlar kiradi? Avvalo shu to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak.

Davlat muhofazasining alohida muhim obyektlari deganda davlatning asosiy funksiyalarini bajarishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan va davlat tomonidan maxsus ruxsat etilgan harbiy bo‘linmalar tomonidan jismoniy himoya qilinadigan inshootlar yoki iqtisodiy obyektlar tushuniladi.

Bunday obyektlarni qo‘riqlash va mudofaa qilish jangovar vazifa hisoblanib, bu qo‘riqlash bo‘linmasi shaxsiy tarkibidan bukilmas matonat, yuksak harbiy intizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli

kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari nizomining barcha talablariga qat’iy rioya qilinishini talab etadi[2].

Kuchaytirilgan qo‘riqlanuvchi obyektlar 3 xil toifaga ajratilgan bo‘lib, bular:

O‘ta muhim toifali obyekt;

1-toifali obyekt;

2-toifali obyekt kabi turlariga bo‘linadi.

Mazkur toifadagi obyektlar o‘zining toifasidan kelib chiqib, muhandislik texnik qo‘riqlash vositalari bilan jihozlanadi.

Bu turdagi obyektlarni qo‘riqlash va mudofaa qilish qo‘riqlash bo‘linmasi shaxsiy tarkibi tomonidan nazorat-o‘tkazish joylarida, perimetrda, tartibot binolarida hamda hayotiy muhim hududlarda amalga oshiriladi.

O‘ta muhim va toifalangan obyektlarni ishonchli qo‘riqlashda inshootning qo‘riqlash tizimini to‘g‘ri tashkil qilish va mohirona qurish, jangovar xizmatni oqilona olib borish, xushyorlik bilan xizmat qilish, shuningdek qo‘riqlash bo‘linmasi shaxsiy tarkibining professionalligi, halolligi kabi me’zonlar eng asosiy talablardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan talablardan biri obyektning xavfsizlik tizimiga ta’rif beradigan bo‘lsak, inshootning tabiati hamda xususiyatlaridan kelib chiqib, muhandislik texnik qo‘riqlash vositalarining kompleksi bilan jihozlanadi hamda zarur vaqtlarda jangovar vazifalarni bajarish uchun yetarli darajada kuch va vositalardan samarali foydalanish tushuniladi.

O‘ta muhim va toifalangan obyektlarning xavfsizlik tizimi qo‘riqlash bo‘linmasining rahbariyati hamda inshoot ma’muriyati a’zolaridan tuzilgan idoralararo komissiyaning dalolatnomasida aks ettiriladi.

Xavfsizlik tizimini tashkil qilishda quyidagilar belgilanadi:

Toifalangan obyektlarni himoya qilish usuli;

qo‘riqlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy tarkibning soni, ularning tarkibi va tartibi;

qorovulxonalar, komendaturalar va ruxsatnomalar byurosining joylashgan joylari;

nazorat-o‘tkazish joylarining soni va turlari;

kuzatuv postlarning soni va maqsadi, bo‘linmalarning joylashuv joyi;

perimetr, tartibot binolari va nazorat-o‘tkazish joylarini muhandislik texnik qo‘riqlash vositalari bilan jihozlanishi hamda joylashuvi;

xizmat itlarining soni, saqlash va ulardan foydalanish tartibi shular jumlasidan.



1-rasm. Toifalangan obyektlarning umumiy ko‘rinishi.

Obyektlarni qo‘riqlash tizimi texnik qo‘riqlash vositalari bilan jihozlangan taqdirda uni himoya qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

Nazorat va xavfsizlik guruhlari yordamida;

perimetr bo‘ylab kuzatuv minoralariga soqchilarni qo‘yish orqali;

aralash tarzda.

Ba’zi hollarda toifalangan obyektlarni xavfsizligini kuchaytirish uchun jangovar xizmat davomida xizmat itlaridan ham foydalanish mumkin.

Jangovar xizmat olib borayotgan shaxsiy tarkibga qulay sharoit yaratish, shuningdek, qo‘riqlanayotgan obyektlarga tartibbuzarlarni noqonuniy kirishlarini oldini olish maqsadida muhandislik texnik qo‘riqlash vositalari jihozlanadi.

Muhandislik texnik qo‘riqlash vositalari bu, turli hildagi muhandislik inshootlari, to‘siqlar, shuningdek, xavfsizlikning ishonchliligini oshirish va qo‘riqlash bo‘linmalari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va maxsus yuklarni qo‘riqlash davomida qo‘llaniladigan texnik vositalar hamda qurilmalarning yig‘indisi tushuniladi.

Ushbu kompleks obyektning qo‘riqlash ishonchliligini oshirishda qo‘riqlash bo‘linmasiga amaliy yordam berib, jismoniy kuchlarning sonini qisqartirish bilan bir qatorda, quyidagilarni ta’minlashi kerak:

Texnik qo‘riqlash vositalari o‘zining texnik hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlariga muvofiq tartibbuzarni o‘z vaqtida aniqlab, soqchi operatorga tashvish xabarini berishi;

qurilmalar ob-havoning tashqi omillariga bardoshli bo‘lishi;

toifalangan obyektning butun perimetri bo‘ylab uzluksiz qo‘riqlash chizig‘ini ta’minlashi kerak bo‘ladi.

Muhandislik qo‘riqlash vositalari kompleksi o‘z ichida muhandislik hamda texnik qo‘riqlash vositalariga bo‘linib, quyidagilardan tashkil topadi:

Obyektning asosiy devori;

ichki va tashqi taqiqlangan hudud devorlari;

nazorat-iz yo‘lagi;

naryadlar yo‘lagi;

MTQV mutaxassislari yo‘lagi;

xizmat itlari yo‘lagi;

xizmat itlari posti;

kuzatuv minoralari, post soyabonlari va kabinalar;

ogohlantiruvchi, chegaralovchi belgilar;

muhandislik to‘siqlari;

xandaqlar;

nazorat-o‘tkazish joylaridagi muhandislik qurilmalari.

Shu bilan bir qatorda obyektlarni xavfsizligini ta’minlashda texnik qo‘riqlash vositalari ham keng qo‘llanilib, bu mustaqil funksiyalarni bajaradigan signalizatsiya, kirishni nazorat qiluvchi hamda boshqaruvchi qurilmalar, qo‘riqlash yoritish hamda videokuzatuv tizimlari nazarda tutilib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:



2-rasm. Shaxsiy qo‘riqlash bo‘linmalarining (CHOP) xizmatchilari.

Aniqlash vositalari;

kirish-chiqishni nazorat va boshqarish tizimlari;

ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va ko‘rsatish tizimlari;
yong‘in-signalizatsiya tizimi;
aloqa vositalari va tezkor-chaqiruv signalizatsiyalari;
videokuzatuv tizimlari;
kabel tarmoqlari, yordamchi uskunalar[3].

Shuningdek hozirgi kunda chet davlatlarida xususiy xavfsizlik kompaniyalaridan yordamida o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni qo‘riqlashda keng qo‘llanilib kelinmoqda hamda dunyo bozorida ham mazkur xizmat turi kundan-kunga rivojlanib bormoqda.

Dunyo miqyosida xususiy xavfsizlik bo‘linmalari birinchi martta 20-asrning 80-yillarida AQSH da, keyinroq Yevropaning g‘arbida tashkil etilgan.

Dastlab ushbu qo‘riqlash bo‘linmalari asosan soqchilik vazifasini bajarib, obyektni kuzatish, o‘z vaqtida politsiyani yoki yong‘in xizmatini chaqirish vazifalarini bajardilar.

Keyinchalik bu xizmat turi takomillashib borishi natijasida ommalashib bordi. Bunga asosiy sabab, mazkur kompaniyalar katta chegirmalar e’lon qilganligi qilib ko‘rsatiladi. Bugungi kunda global xavfsizlik sanoatida minglab xususiy korxonalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda, shuningdek, ularning tarkibida millionlab xususiy qo‘riqchilar o‘z mamlakatlari xavfsizligiga katta hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Zamonaviy xorijiy xususiy xavfsizlik kompaniyalari keng ko‘lamli ya’ni, fuqarolarni shaxsiy himoyasini va eng muhim davlat va xususiy obyektlarni xavsizlgini ta’minlash, shahar hududlarini qo‘riqlash, shaxsiy tekshiruvlar o‘tkazish kabi xizmatlarni taqdim etib kelmoqdalar.

Xususan, xususiy xavfsizlik xizmatlari to‘g‘risidagi qonunchilikdagi eng tub o‘zgarishlar yirik teraktlardan so‘ng – 1986-yilda Fransiyada, 2002-yil 11-sentabrdan keyin – AQSH va Kanadada amalga oshirildi. Qoida tariqasida, ular xususiy xavfsizlik kompaniyalarining vakolatlari va



3-rasm. Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi harbiy xizmatchilari jangovar xizmat vaqtida.

imkoniyatlarini kengaytirishga olib keldi [4].

Biroq mamlakatimizda xususiy xavfsizlik kopmaniyalarining faoliyati qonunlarda ko‘zda tutilmagan bo‘lib, o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari va qarorlariga muvofiq bir qator bo‘linmalarga yuklatilgan.

Ushbu bo‘linmalar o‘zlariga biriktirilgan obyektlarda jangovar xizmatni tashkil qilib, ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz ta’minlash, inshoot hududiga tartibbuzarlarni kirishini oldini olish, moddiy tovar boyliklarni ruxsatsiz olib chiqib ketilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun mas’ul bo‘lib hisoblanishadi.

Mazkur bo‘linmalarning faoliyatini tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida” gi qonuni 2022-yil 1-fevralda qabul qilingan bo‘lib, Senat tomonidan mazkur yilning 28-aprelida ma’qullangan. Ushbu qonunning maqsadi qo‘riqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Bundan tashqari qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subektlar bir qator huquqlarga egadirlar, ya’ni:

qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning hayotiga va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish;

qo‘riqlanadigan obyekt hududida jismoniy va yuridik shaxslardan qonunchilikka rioya etishni, qonunga xilof xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni bepul olish, bundan qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar mustasno;

radioaloqani amalga oshirish uchun radiochastotadan (radioto‘lqindan) belgilangan tartibda foydalanish;

buyurtmachidan qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, axborotni olish;

qo‘riqlanadigan obyektlarni ko‘zdan kechirish.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subektlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin[1].



4-rasm. Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi harbiy xizmatchilari shartli dushmanning hujumini qaytarish vaqtida.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkinki, har bir davlatda o‘zining qonunchiligidan kelib chiqib o‘ta muhim va toifalangan obyektlar mavjud. Mazkur obyektlar davlatlarning muhim iqtisodiy bo‘g‘ini hisoblanib, mamlakat byudjetiga juda katta foyda keltirishi bilan tavsiflanadi. Bu kabi obyektlarning bir lahza o‘z faoliyatini to‘xtatishi, ishdan chiqishi yoki tabiiy hamda texnogen ofatlarni yuz berishi nafaqat davlat iqtisodiyotiga balki aholining hayotiga xavf tug‘diruvchi ofatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 2022-yil 28-aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Qorovullik va garnizon xizmatlari nizomi.

3. Руководство основы эксплуататсии инженерно технических средств охраны на особо важных объектах.

4. www.ktso.ru.

VIDEOKUZATUV TIZIMLARINI YARATISHDA QO‘YILADIGAN TEXNIK TALABLAR

Saipov Batirjon Baxtiyorjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli va analog videokuzatuv tizimlarini tashkil qilish davomida qo‘llaniladigan qo‘shimcha komponentlarni tanlash, ularning elektr ta’minoti texnik xususiyatlari hamda qo‘llanilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli videokuzatuv , analog videokuzatuv, PoE, PoC, kommutator, koaksial kabel, UpLink port, GigabitEthernet port, kanal tezligi, SFP modul, Turbo HD.

Barchamizga ma’lumki videokuzatuv tizimlarini qo‘riqlanayotgan o‘ta muhim va toifalangan obyektlarning perimetrining taqiqlangan hududiga nazorat-o‘tkazish joylariga, tartibot binolariga, shuningdek, xonadonlarga jihozlash davomida uning fizik muhitda foydalaniladigan qurilmalariga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi[1].

Chunki nafaqat obyektning, balki xonadonlarning joylashgan joyini relefi, iqlimi, shart-sharoitlaridan kelib chiqib oraliqda bog‘lovchi sifatida qo‘llaniladigan qo‘shimcha, yordamchi qurilmalar tanlanadi. Biroq hozirgi vaqtda qo‘riqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalar tomonidan mudofaa qilinayotgan obyektlarda bu kabi jihatlar inobatga olinmasligi natijasida, videokuzatuv tizimlarini ishlashi davomida bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda.

Misol tariqasida loyihalashtirish ishlarini noto‘g‘ri tashkillashtirilishi, videokuzatuv tizimini perimetrdagi magistral kabeli sifatida binoning ichki qismida qo‘llaniladigan kategoriyali kabellardan foydalanish, videokuzatuv kameralarini tarmoq qurilmalariga bog‘lash vaqtida ta’minot quvvatini hisobga olmaslik hamda chaqmoqdan himoya qilmaslik shular jumlasidan.

Hozirda qo‘riqlash tizimlarida har bir idoraning, obyektlarning moddiy imkoniyatidan kelib chiqib, raqamli IP va analog (HDCVI, HDTVI, AHD) kameralaridan foydalanib kelinmoqda.

Xo‘sh, ushbu tizimlardan qo‘riqlash faoliyatida foydalanishda qaysi omillarga diqqatimizni qaratishimiz kerak? Endi har bir tizimga va uning qo‘shimcha komponentlariga to‘xtalib o‘tsak.

Agar biz qo‘riqlash tizimida raqamli IP-kameralardan foydalansak, shovqinsiz hamda kengaytirilgan funksionalli 4K formatli tiniq tasvirga ega bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek qo‘riqlanayotgan obyekt kuzatuv nazorat pultidan bir necha kilometr uzoqa masofada joylashgan taqdirda, raqamli kameralarni eng optimal yechim sifatida qo‘llashimiz mumkin. Bunday hollarda tizimni fizik muhitida optik tolali kabel ma’lumotlarni yuqori tezlikda shovqinlarsiz va buzilishlarsiz uzatish imkoniyatiga ega.



1-rasm. Raqamli videokuzatuv tizimining umumiy tuzilishi.

Yuqoridagilardan tashqari raqamli videokuzatuv kameralari bir qator muammolarni hal etuvchi afzalliklarga ega:

Uzatish vaqtida signallar buzilishini mavjud emasligi;

video va audio ma’lumotlarni cheksiz uzatish masofasi;

4K formatda va undan yuqori tasvirni sifati;

ko‘p foydalanuvchilarga bir vaqtning o‘zida bir nechta videoma’lumotlarni uzatish imkoniyati mavjudligi;

IP-kameralar va IP videoregistratorlarni mavjud mahalliy tarmoqlarga (LAN) integratsiya qilish imkoniyati;

WEB interfeysi orqali ko‘p sonli sozlamalar va funksiyalar mavjud;

videokameraning ichki xotira kartasiga kdrdagi harakatga qarab uzluksiz videoma’lumotni yozib olish imkoniyati;

ko‘pgina IP-kameralarda o‘rnatilgan PoE moduli mavjud bo‘lib, u ma’lumotlar bilan birga UTP kabeli orqali olish imkonini beradi. Bunday holda, PoE portlari video oqimlarni almashtirish uchun ishlatiladi.

raqamli videokuzatuv va interkom tizimlarini birlashtirishning aniq sxemasi mavjudligidir.

Qo‘riqlash faoliyatida analog tizim tanlangan bo‘lsa, arzonroq narxdagi 4K formatdagi sifatli videotasvirga ega bo‘lishimiz mumkin, biroq ulanishlardagi mavjud eng kichkina xatoliklar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, videotasvirda qora chiziqlar paydo bo‘lishi yoki IQ-yoritgich ishlagan vaqtda videosignalning yo‘qolishi kabi kamchiliklar nomoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari analog tizimi raqamli tizimga qaraganda jihozlash uchun bir muncha ko‘proq vaqt talab qiladi.

Videokuzatuv tizimlarini jihozlashda hisobga oladigan yana bir jihat kamera va videoregistrator qurilmalari orasidagi masofadir.

Raqamli videokuzatuv tizimida PoE *(Power over Ethernet)* kommutatori bilan NVR *(Network video recorder)* videoregistratoridan foydalanilganida, ular orasidagi masofa maksimal 100 metrni tashkil qiladi. Agar PoE kommutatorining High PoE portidan foydalanilgan taqdirda ma’lumot uzatish masofasini 250 metrgacha uzaytirish mumkin.

Shuningdek tarmoq qurilmalarida Extended PoE texnologiyasi ham mavjud bo‘lib, bunda bitta Gigabit Uplink porti va bitta Gigabit SFP porti mavjud. Ushbu portlar ustuvor hisoblanib, ma’lumotlar paketini boshqalarga qaraganda tezroq qayta ishlab, uzatadi. Qolgan sakkizta portlar ham PoE texnologiyasini qo‘llab-



2-rasm. Analog videokuzatuv tizimining umumiy tuzilishi.

quvvatlaydi hamda 10 Mbit tezlikda ma’lumotlarni uzatish bilan bir qatorda elektr quvvati bilan ta’minlaydi. Mazkur qurilmalarning yana bir xususiyati 4 kVt gacha bo‘lgan induksiya potensialidan himoyaning mavjudligi va quvvati 30 Vt gacha bo‘lgan qurilmalarning ulash imkoniyati mavjudligidir.

250 metrdan ortiq masofalarga ma’lumot uzatish talab etiladigan bo‘lsa, oraliqqa qo‘shimcha kommutator qo‘shish yoki optik tolali kabeldan foydalanish talab etiladi.

Analog videokuzatuv tizimlarida ham PoE texnologiyasiga uxshash PoC texnologiyasi mavjud bo‘lib, 2017-yilda Turbo HD kameralarida qo‘llanila boshlagan. PoC *(Power over Coaxial)* texnologiyasi bu analog videokuzatuv tizimida koaksial kabel yordamida videoma’lumotlar bilan bir vaqtning o‘zida quvvat manbai bilan ta’minlashga yordam beradi. Bunda videoregistratorning ichida PoC moduli mavjud bo‘lib, doimiy DC 48 V tok manbaida ishlaydi. Quyida analog videokuzatuv tizimining ulanishi bo‘yicha variantlari keltirib o‘tilgan.



3-rasm. Analog videokuzatuv tizimining ulanish variantlari

Yuqoridagilardan tashqari videokuzatuv kameralarini jihozlashda ularning ta’minot manbalarini ham hisobga olish zarur. Bunda quyidagilarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi:

faqat barqarorlashtirilgan quvvat manbaidan foydalanish;

tizimning quvvat manbalariga beriladigan yuklamadan kelib chiqib, ikki barobar zahirani inobatga olish.

Bundan tashqari agar tunda IQ-yoritilish yoqilgan bo‘lsa, videokuzatuv kamerasi o‘chirilgan vaqtdagiga nisbatan ko‘proq oqim sarflaydi. Shuning uchun elektr kabelining kesimini shunday tanlash kerakki, kameraning quvvat kiritishdagi kuchlanish DC 12V bilan quvvatlanganida ruxsat etilgan og‘ish chegarasiga tushadi. Bunday hollarda uzluksiz bir tok bilan ta’minlashni barqarorlashtirish uchun DC 24V elektr quvvatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi[3].

Yuqoridagi kabi holatlarga tushmaslik uchun har bir texnik mutaxassislar kabeldagi kuchlanishning pasayishini hisoblashni o‘zlashtirishlari talab etiladi. Bu esa quyidagicha hisoblanadi.

Faraz qilaylik, 12V quvvat manbaidan videokameragacha bo‘lgan masofa 50 metrni tashkil qilib, UTP kabeli orqali ulangan. Kameraning quvvat sarfi 6 Vt. Ishlatilgan kabel mis o‘tkazgichli UTP 4x2x0,5 bo‘lib, bitta o‘tkazgichning qarshiligi 100 metr uchun R_{pog}=11 Ohm yoki 1 metrda 0,11 Ohm.

Endi ushbu berilganlardan kelib chiqib hisoblashni amalga oshiramiz. Kamera tomonidan ist’emol qiladigan oqim I_{kamera}=P/U=6/12=0,5 A.

“Ijobiy” o‘tkazgichning qarshiligi (oq/yoki+to‘q sariq) 50 metr uzunlikdagi (Rpog * L) / N (bu erda N = 2 simli) = (0,11 * 50) / 2 = 2,75 Ohm.

“Salbiy” o‘tkazgichning qarshiligi (oq/ko‘k + ko‘k + oq/jigarrang + jigarrang) 50 metr uzunlikdagi - (Rpog * L) / N (bu erda N = 4 simli) = (0,11 * 50) / 4 = 1,38 Ohm.

Umumiy qarshilik R_{pad} jami = 2,75 + 1,38 = 4,13 Ohm.

Berilgan 50 metrli elektr kabelidagi kuchlanishning pasayishi Upad = I_{kamera} * R_{pad} jami = 0,5 * 4,13 = 2,07 V.

Ushbu kuchlanishning pasayishi kechasi IQ-yoritgichi yoqilganda sodir bo‘ladi. Kun davomida kamera taxminan 5 barobar kamroq iste’mol qiladi, shuning uchun tushish 2,07/5 = 0,42 V bo‘ladi.

Agar kamera zo‘riqishida +25% bardoshlikni belgilasa, u holda 12V da +3V bo‘ladi. Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, o‘tkazgichlarning parallel ulanishidan foydalanib, biz ma’lum bir kabel uzunligi va ma’lum bir kamera uchun bardoshlik chegaralaridan tashqariga chiqmadik va biz videoregistrator yonida o‘rnatilgan tartibga solinmagan stabillashgan 12 V quvvat manbaidan foydalanishimiz mumkin.



4-rasm. Videokuzatuv kameralari uchun elektr ta’minotini bog‘lanishi.

Bunday holatda agar videokuzatuv kamerasi 100 metr yoki undan ortiq masofada bo‘lganida kattaroq quvvatli kabeldan foydalanish, kabelni kameraga ulanuvchi tomonida 24-12 V konvertorni o‘rnatish hamda PoC texnologiyasiga ega uskunasidan foydalanish kerak bo‘ladi[3].

Misol uchun 12 V IP kamera 24 V quvvat manbai bilan quvvatlansa ishdan chiqishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda videokuzatuv tizimlarini qo‘shimcha komponentlarini tanlashda boshqariladigan, boshqarilmaydigan, PoE kommutatorini quvvati, portlar soni, tezlik, kabel turi va boshqa komponentlar hisobga olinadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 2022-yil 28-aprel.

2. www.ktso.ru., www.Hikvision.com.

ЭЛЕКТРОШОКОВЫЕ УСТРОЙСТВА

Очилов Истам Набиевич
Университет общественной безопасности Республики Узбекистан,
доцент кафедры “Инженерно-техническое обеспеченние охраны”
Ахмадхонов Афзалиддин Абдувосивович
Университет Общественной Безопасности Республики Узбекистан,
курсант 4-курса

Аннотация. “Электрошок” можно вполне смело называть оружием самообороны, так как он имеет все его признаки и является оружием самообороны ближнего боя. Действие шокера по цели - это лишение противника сознания на определенный промежуток времени. Как признался один из пострадавших от этого изделия, свет выключили, а через два часа его включили, и ничего не помню. Правда существует возможность “выключить” человека навсегда, если у него нелады с сердцем или еще что.

Ключевые слова: Электрошок, аккумулятор, напряжение, электрическая плата, источник питания.

“Электрошок” можно вполне смело называть оружием самообороны,



так как он имеет все его признаки и является оружием самообороны ближнего боя. В отличие от ножа, электрошокер оружие не летального действия, однако, он имеет все те же недостатки что и в случае с холодным оружием. Для того чтобы использовать электрошокер, необходимо подпустить противника на расстоянии вытянутой руки, в этом случае, у Вас есть шансы, не только лишится своего оружия, но и им же и получить, если Ваш противник более подготовленный, чем Вы. Конечно, у Вас есть преимущество, однако если его неправильно применить, оно обратится против Вас самих. Действие шокера по цели, это лишение противника сознания на определенный промежуток времени. Как

признался один из пострадавших от этого изделия, свет выключили, а через два часа его включили, и ничего не помню. Правда существует возможность “выключить” человека навсегда, если у него нелады с сердцем или еще что. В общем итоге на территории Узбекистана электрошокеры запрещены, даже для использования в МВД.

В основном все электрошоковые устройства “западного производства” однотипны с одинаковым принципом действия. Питание осуществляется от батареи 9 вольт “Крона”, или двух батарей. Подразделяются они по мощности выходного заряда. Противника поражает электрический удар напряжением примерно 40000, 80000, 100000 и т.д. вольт, однако сила тока очень мала для того, чтобы убить, всего 0,6 мА. Этого достаточно, чтобы парализовать нервно-мышечную реакцию, и вывести из строя противника.

В отличие от других видов не летального оружия самозащиты,



электрошоковое устройство более надежно при локализации противника находящегося в алкогольном, наркотическом опьянении или не в себе, в любом случае действие по цели 100%, чем не может похвастаться ни газовое оружие, ни пневматическое, кроме травматического, заряженного эластичной пулей (резиновой).

Существует в США дальнобойное электрошоковое устройство, рассчитанное на поражение противника с 5, 10 метров. Принцип действия тот же, как и у всех шокеров, однако, с этой моделью можно сдерживать противника на безопасном расстоянии. Устройство стреляет двумя шипами, соединенными проводами с электрошокером, и при попадании в тело человека, происходит разряд, после чего противник нейтрализуется. Устройство снабжено лазерным прицелом, и быстросменным блоком стрельбы с двумя шипами.

У электрошокового оружия есть много положительных сторон. Это почти идеальное оружие самозащиты со сто процентной гарантией поражения противника, если конечно правильно его

применять, поэтому на его недостатки можно было бы закрыть глаза, если бы не самый существенный недостаток, касающийся всего электрошокового оружия самообороны – это запрет на его использование на территории Узбекистана. Причем этот запрет касается даже работников правоохранительных органов! Так что уж извините! А ношение “электрошокеров” незаконно!

Оперативно-тактические характеристики. Ниша, занимаемая ЭШУ в сегменте рынка средств самообороны, определяется оперативно-тактическими характеристиками ЭШУ, основными из которых являются следующие:

ЭШУ — оружие не летального воздействия, как и газовое оружие самообороны, т.е. средство, при правильном применении которого злоумышленник будет остановлен на некоторое время и нейтрализован (обезврежен), однако при этом он останется жив (это сильный положительный психологический фактор);

ЭШУ — оружие локального и безопасного для владельца действия, оно может быть эффективно применено как на улице при сильном встречном ветре или снеге, так и в подъезде, лифте, автомобиле, т.е. в случаях, когда газовое оружие либо малоэффективно, либо небезопасно для владельца из-за возможности самопоражения. Телесный контакт злоумышленника с владельцем ЭШУ также безопасен для владельца, поскольку воздействию подвергается лишь область тела злоумышленника, находящаяся между выходными электродами ЭШУ;

ЭШУ — экологически чистое оружие, не загрязняющее атмосферу, костюм, карманы или сумку владельца (газовое оружие всегда оставляет следы ирританта, то есть раздражающего вещества, на ладонях, в кармане, на одежде владельца и т.п.);

ЭШУ — оружие контактного действия, оно может быть применено только в "ближнем бою" — это одновременно и достоинство (ЭШУ малоэффективно к качестве оружия нападения), и недостаток (для увеличения дистанции поражения необходимо использовать так называемый "эффект удлинения руки", т.е. применения ЭШУ в форме "дубинки", линейные размеры которой

превышают размеры стандартного газового оружия), компенсируемый, к счастью, отпугивающим эффектом звукового сопровождения искрового разряда, связанным с извечным страхом человека перед электричеством;

ЭШУ — оружие, доступное по цене большинству граждан, не требующее особых (специальных) навыков его применения кроме личного достоинства и гражданской ответственности.



Классификация электрошокеров. Спектр ЭШУ, отличающихся тактико-техническим и характеристиками производителями и ценой, очень широк.

Миниатюрные разрядники *1-го класса*, умещающиеся на ладони — это скорее сувенирные изделия, производящие отпугивающее действие при незначительном болевом эффекте.

Малогабаритные разрядники *2-го класса* – это изделия с более высокой электрической мощностью, которые при воздействии обеспечивают вполне ощутимый болевой эффект, проявляющийся в течение 2...10 секунд после прекращения воздействия. Достоинствами изделий данного класса являются: миниатюрность (умещаются в кармане), надежность, отсутствие необходимости перезаряжать источник питания (достаточно сменить батарейку), относительно низкая стоимость (от 30 до 60 $). Недостатки: отсутствие эффекта "удлинения руки": отсутствие “нейтрализующего” воздействия.

Еще один недостаток большинства ЭШУ 2-го класса – наличие так называемого остаточного напряжения на выходных электродах после отключения прибора, что небезопасно для владельца.

Малогабаритные разрядники *3-го класса* (их еще часто называют "электрошоковыми дубинками") станут самыми популярными среди основного контингента пользователей гражданского населения и сотрудников частных охранных агентств.

Главные их достоинства – обеспечение нейтрализующего воздействия и эффекта "удлинения руки" при габаритах и массе, позволяющих носить изделия в кейсе, сумке или в руке (будучи упакованными в капроновый чехол, они не отличаются по внешнему виду от мужских или женских складных зонтиков).



Эти изделия снабжены встроенной аккумуляторной батареей и зарядным устройством (встроенным или внешним). Используемые аккумуляторные батареи обеспечивают от 100 до 200 циклов воздействия (каждый цикл воздействия, то есть "выстрел", обычно не превышает трех секунд), после чего их необходимо перезарядить (процесс перезаряда составляет от 8 до 14 часов). Предполагаемая их цена— от 60 до 150 $ вместе с зарядным устройством, в зависимости от выходной мощности, применяемых аккумуляторов и некоторых других факторов. Примером ЭШУ 3-го класса являются хорошо известные изделия серии "ЯНА" и искровые разрядники АИР-107 "Скорпион" и АИР-140 "Мальвина".

Особым представителем ЭШУ 3-го класса является разрядник "Эйр Тэйзер". Это изделие принципиально отличается от всех других наличием выбрасываемых на расстояние до 4-х метров внешних электродов, электрическое напряжение на которые подается с помощью миниатюрных токоведущих проводников (аналогичных леске, "выстреливаемой" катушкой спиннинга), что позволяет защищаться на дистанции. Такой "выстрел" можно произвести один раз, после чего следует либо сменить картридж, содержащий барабан с токоведущими проводами и средство выброса – пружину или пневматическое устройство, либо пользоваться устройством, как обычным разрядником. Это несомненное достоинство изделия "компенсируется" и соответствующей ценой (350...450 $ плюс 25...40 $ за сменный картридж).

ЭШУ *4-го класса* — это изделия с повышенными массогабаритными характеристиками и выходной мощностью, предназначенные для применения сотрудниками организаций с

особыми уставными задачами (вместо резиновых и пластиковых палок - "демократизаторов").

ЭШУ *5-го класса* — это оружие специального назначения.



Принцип работы электрошокеров. При снятии устройства с предохранителя и нажатии активаторной кнопки на контактных электродах возникает серийный электрический разряд тока высокого напряжения, импульсно воздействующий на объект.

(1) Колцо для ремня. Хорошо подогнанный ремень, входящий в комплект поставки, предотвращает выхватывание или выбивание прибора из руки обороняющегося.

(2) Задняя крышка. Под ней располагается клемма для подключения зарядного сетевого шнура, входящего в комплект поставки.

(3) Защитная гарда с активаторной кнопкой. Рельеф кнопки разработан с учетом того, что прибор применяется в камуфляжном чехле, и она должна легко находиться на ощупь.

(4) Механический предохранитель. Исключает любую возможность случайного снятия с предохранителя. В то же время обеспечивает мгновенную разблокировку активаторной кнопки.

(5) Сверхударопрочный корпус. Изготовлен по новейшей технологии из стеклопластика с применением легких композитов.

(6) Токоведущий пояс. Разработан и служит для предотвращения выхватывания или блокировки прибора нападающим.

(7) Контактные электроды. Их конструкция такова, что они обеспечивают контакт прибора с телом нападающего, одетого в любую одежду, от майки до дубленки.



Рекомендуемые точки и принцип воздействия

Перед вами потенциальный нападающий:

Красными кружками отмечены целевые точки:
- верхняя часть груди;
- солнечное сплетение;
- низ живота;
- верхняя часть бедер.

Биофизический принцип воздействия ЭШУ достаточно прост и состоит в следующем: при протекании электрического тока между выходными электродами ЭШУ через живые ткани при непосредственном контакте ЭШУ с телом злоумышленника происходит раздражение нервных окончаний, расположенных в мышечной ткани под кожей. При этом злоумышленник испытывает сильную боль и стресс (психологическое или болевое воздействие), продолжающиеся некоторое время после выключения ЭШУ и приводящие к потере агрессивности, вялости мышц и заторможенности реакции (приборы малой мощности называют ЭШУ с психологическим воздействием).

Более мощные ЭШУ вызывают при воздействии судорожные сокращения мышц (временную парализацию), нарушение ориентации в пространстве (головокружение, временная потеря дееспособности, "отключение" от действительности), в некоторых случаях потерю сознательных действий (изделия такой мощности называют ЭШУ с нейтрализующим воздействием).

В обоих случаях воздействие ЭШУ — это лишь временное поражение злоумышленника (аналогичное воздействию газового оружия), называемое в медицине поражением от электротока первой степени, которое не ведет к серьезным и долговременным расстройствам организма человека и не представляет опасности для его жизни (в этом смысле ЭШУ как оружие можно считать вполне гуманным).

Защита с помощью ЭШУ от нападения животных (например, агрессивных собак) гораздо эффективней применения большинства газовых баллончиков, поскольку нервная система собак даже более чувствительна к воздействию электрического тока, чем нервная система человека.

Если человек находится в возбуждённом состоянии (после принятия алкоголя/наркотиков/психотропных веществ и т.п.) эффективность воздействия электрошокера значительно возрастает (в отличие от газовых и пневматических средств), когда их воздействие менее эффективно, так как тело находится в возбуждённом состоянии и имеет пониженную чувствительность. А ведь большая часть нападений производится именно в состоянии алкогольного опьянения!!



Отличная защита от собак! Собакам для отправки в мир иной может быть достаточно одного мощного разряда (не советуем лишний раз экспериментировать).

Кроме этого, животные очень чувствительны к озону, а электрические разряды данного устройства вырабатывают достаточное большое количество этого газа.

Отогнать собаку? Не проблема – достаточно произвести разряд перед собакой, и Вы увидите, как она изменит свои планы, которые были у неё, относительно Вас, первоначально. Несильный характерный запах можно почувствовать, сделав длительный разряд (1-2 сек.). Запах будет таким же, как и после грозы (природная молния, выделение озона).

Устройство электрошокеров

Электрическое оружие представляет собой носимое малогабаритное (миниатюрное) устройство, выполненное в виде цилиндрической "дубинки" (трубки) или прямоугольного параллелепипеда с профилированной поверхностью для удобного удержания в ладони.



В передней части ЭШУ располагаются выходные ("боевые") электроды — металлические (иногда заостренные) штыри, между которыми возникает высоковольтный электрический разряд в виде голубоватой или желтоватой искры, сопровождаемый характерным

"потрескиванием". В задней части устройства обычно размещен источник питания: алкалиновая или аккумуляторная батарея (обычно рассчитанная на напряжение 9...12 вольт).

В средней части ЭШУ находятся пусковая кнопка и механический блокиратор (предохранитель), необходимый для предотвращения случайного срабатывания устройства. "Коробочка с кнопочкой" — да и только. Тем не менее, эта "коробочка" имеет высокую эффективность воздействия на злоумышленников.

Тактика применения служебных ЭШУ

Тактические приемы должны учитывать особенности реакции человека при контакте с электрическим током. В любой ситуации при использовании ЭШУ необходимо максимально продлить время контакта устройства с нарушителем (но не более 3 с).

ЭШУ, как и любым другим оружием нельзя угрожать раньше времени и без необходимости. Исключение составляют агрессивные животные, большинство из которых пугается разряда импульса. Что же касается воздействия на людей, то при внезапном применении устройства эффективность будет выше в два раза.

Тактические приемы использования ЭШУ строятся на следующих основных правилах:

- Нельзя доставать и угрожать ЭШУ без крайней необходимости, особенно если есть возможность преодолеть конфликтную ситуацию другими, более щадящими методами.
- Применение должно быть внезапным, чтобы не дать преступнику возможность мобилизоваться и психологически подготовиться к электроудару. Несмотря на все усилия разработчиков из-за гуманных и медицинских ограничений этим фактором не следует пренебрегать.
- При использовании ЭШУ первоначально рука должна быть полусогнута для того, чтобы, разгибая руку, можно было бы продлить время и плотность контакта ЭШУ с телом злоумышленника.
- Ни в коем случае не следует недооценивать противника и не переоценивать возможности оружия. Будьте готовы к любым неожиданностям, так как психическое возбуждение, алкогольное или

наркотическое опьянение, а также индивидуальные особенности конкретного человека могут существенно повлиять на характер и качество воздействия ЭШУ.

- Не пренебрегайте тренировками, совершенствуйте тактические приемы. Помните, что решения могут быт самыми неожиданными, чем иногда, кажется, не все и не всегда можно предусмотреть заранее.
- Следите за тем, чтобы ЭШУ было всегда исправно, и блок электропитания был заряжен. Проверяйте работоспособность ЭШУ после сильных ударов по корпусу изделия и в других подобных ситуациях.
- Необходимо помнить, что, если контакт будет непродолжительный, не удастся использовать в достаточной мере все преимущества нового специального средства.

Необходимо помнить о следующих основных ограничениях:

- Не прикасайтесь к включенному электрошоковому оружию рядом с боевыми электродами. Можно получить электроудар через "противозахватную" зону или по воздуху.
- Запрещается использовать электрошоковое оружие против человека, находящегося в водной среде.
- Запрещается использовать электрошоковое оружие во взрывоопасной среде (на бензоколонках и т.п.).
- Запрещается применять электрошоковое оружие против лиц с явными признаками инвалидности, лиц, не достигших 16-летнего возраста, и беременных женщин, кроме случаев, когда они вооружены или нападают группой.
- При применении электрошокового оружия следует избегать длительного (более 3 с) контакта боевых электродов с областями жизненно важных органов (шеи, сердца, солнечного сплетения и т.п.).

ЭШУ, даже повышенной мощности, остается не летальным оружием. Его применение предпочтительнее, чем использование огнестрельного оружия, а значения останавливающей силы при условии повышения мощности ЭШУ вполне сопоставимы.

Заключение. У электрошокового оружия есть много положительных сторон. Это почти идеальное оружие самозащиты со сто процентной гарантией поражения противника, если конечно правильно его применять, поэтому на его недостатки можно было бы закрыть глаза, если бы не самый существенный недостаток, касающийся всего электрошокового оружия самообороны это – запрет на его использование на территории Узбекистана.

Список литературы

http://ultra.tamb.ru/electroshock.html
http://www.f12.ru/shoker/index.html
http://gunroom.chat.ru/elektro.htm
Axborot xavfsizligi obyekti – “axborot”, kiberxavfsizlik obyekti – “tizim” hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining hozirgi tahdidlarini axborot xavfsizligi tushunchasi, kriptovalyutalar yordamida jinoyatlarni moliyalashtirish, ijtimoiy muhandislik orqali axborotni qo‘lga kiritish, “fishing-smishing-voice mishing-farming” orqali firibgarlik, bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlarni, “fake” xabarlarni tarqatish, “deepfake” turidagi shaxs, jamiyat va davlat faoliyatiga zarar yetkazuvchi ma'lumotlarni

tayyorlash va tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda maxfiy guruhlar tashkil etish, botnetlar orqali axborot obyektlarini noqonuniy egallash kabilarni to‘liq tushuntirib murakkabroqdir. Ushbu zararli axborot hodisalarini kiberxavfsizlik tushunchasi orqali tushuntirish samaralidir.

Axborot xavfsizligini ta'minlashda kiberxavfsizlik ham katta ahamiyatga ega. shaxs yoki biznes “deepfake” kiberhujum ostida. Deepfake - bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda uning raqamli qiyofasini yaratish va shu tariqa shaxs haqida yolg'on ma'lumot tarqatish orqali haqiqiy inson hayotiga tahdiddir. Bunda axborotning yaxlitligi, maxfiyligi va mavjudligi axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan buzilmaydi. Kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan, deepfake bu odamning turmush tarziga ta'sir qiladi. Bu insonning ijtimoiy, iqtisodiy va hayotiy manfaatlariga zarar yetkazadi.

Shunday qilib, deepfake kiberhujumni kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan baholash, axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan aholashdan ko'ra ko'proq ilmiy asosga ega bo'ladi.

Zamonaviy dunyoda axborot tizimlari jamiyat hayotining muhim va ajralmas qismiga aylandi va bu uni kiberxavfsizlikni ta'minlashda birinchi o'ringa olib chiqadi. Davlat va jamiyat uchun ushbu axborot tizimlarining mavjudligi zarur bo'lib qoladi, bu esa kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun resurslarni sarflashni talab qiladi. Sarflanadigan resurslar moddiy, ilmiy va insoniy resurslarga bo'linadi. Inson resurslari ta'lim darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu sohada kiberxavfsizlik muammolarining mohiyatini va ularni qanday hal qilishni biladigan mutaxassislar ishlashi kerakligini anglatadi.

Adabiyotlar

1. Wiener N . Cybernetics or Control and Communication in the Animal and the Machine. — New York: The Technology Press and John Wiley & Sons, Inc. — Paris: Hermann et Cie, 1948.

2. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurash: muammolar va yechimlar, Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami, (24 fevral 2022 yil), Toshkent: MALIK PRINT CO, 2022. -482 b.

3. Акбаров D.E., Криптографические методы обеспечения информационной безопасности и их применение, “Ташкент, издательство “O‘zbekiston markasi”, 2009 – 432 с.

4. Акбаров D.E, Мусаев А.И. Исследование основ существующих алгоритмов поточного шифрования и их классификация, Ташкент, Axborotkommunikatsiyalar: tarmoqlar, texnologiyalar, yechimlar, “UNICON.UZ”, 2009. С. 36-45.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA OBYEKTLAR XAVFSIZLIGINI RFID TEXNOLOGIYASI ORQALI TA’MINLASHNING AHAMIYATI

Bozorov Abdimannon Abduroimovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o‘qituvchisi
Suvonov Shahboz Nuriddin o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
4-bosqich kursanti

Bugungi tahlikali zamonda obyektlar xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda esa obyektlarga kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlarning to‘g‘ri va aniq ishlashi muhimdir. Hozirgi kunda esa RFID texnologiyasini takomillashtirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish orqali bir vaqtning o‘zida bir necha xodimlarni identifikatsiyalash mumkin.

RFID (inglizcha Radio Frequency Identification, radiochastota identifikatsiyasi) - transponderlar yoki RFID teglari deb ataladigan ma’lumotlar radio signallari yordamida o‘qiladigan yoki yoziladigan obyektlarni avtomatik identifikatsiyalash usuli.

Har qanday RFID tizimi o‘qish moslamasidan (foydalanuvchi, yoki so‘rovchi) va transponder (RFID yorlig‘i)dan iborat.

Bunga eng yaqin texnologiya 1937 yilda AQSh dengiz tadqiqot laboratoriyasi tomonidan ixtiro qilingan IFF (Identification Friend or Defence) tanib olish tizimidir. U Ikkinchi Jahon urushi davrida ittifoqchilar tomonidan osmondagi obyektning do‘stona yoki begona ekanligini aniqlash uchun faol foydalanilgan. Shunga o‘xshash tizimlar hali ham harbiy va fuqaro aviatsiyasida qo‘llaniladi. Amerikaliklar RFID texnologiyasining kelib chiqishi mumkin bo‘lgan dushman samolyotlarini kuzatish uchun “radar” deb nomlangan texnologiyani ixtiro qilganda paydo bo‘lgan.

1948 yilda Oksford universiteti professori X.Stokman birinchi marta RFID konsepsiyasini taklif qildi. 1960-yillarda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli RFID uskunalari mumkin bo‘ldi, ammo analog va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi hali amalga oshirilmadi, bu esa RFID rivojlanishini cheklaydi.

1970-yillarda integral mikrosxemalar texnologiyasi va mikroprotsessor texnologiyasining rivojlanishi bilan raqamli RFID tizimlari paydo bo‘la boshladi. Uning amaliy qo‘llanilishi 1980-yillarning oxirida boshlandi va tez rivojlandi. O‘sha paytda RFID texnologiyasi asosan sanoatni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va transport vositalarini identifikatsiyalashda qo‘llanilgan.

21-asrning boshlarida RFID texnologiyasi kiyimlarni kuzatish, inventarizatsiyani boshqarish, logistika taqsimoti, inventarizatsiya va boshqa ilovalarda keng qo‘llanilgan. Texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi bilan RFID tobora kengroq qo‘llanila boshlandi, ayniqsa simsiz tarmoq orqali Internetga ulangan RFID tarmog‘i. Bugungi kunda RFID texnologiyasi logistika, ishlab chiqarish, chakana savdo, sog‘liqni saqlash, sport, harbiy va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi

O‘qish diapazoni asosida RFID tizimlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:
qisqa masofali identifikatsiya (o‘qish 20 sm gacha bo‘lgan masofada amalga oshiriladi);
o‘rta masofani aniqlash (20 sm dan 5 m gacha);
uzoq masofali identifikatsiya (5 m dan 300 m gacha)

Aksariyat RFID teglari ikki qismdan iborat. Birinchisi, axborotni saqlash va qayta ishlash, radiochastota (RF) signalini modulyatsiya qilish

va demodulyatsiya qilish va boshqa ba’zi funktsiyalar uchun integral sxema (IC). Ikkinchisi - signallarni qabul qilish va uzatish uchun antenna.RFID teglarini kundalik hayotga kiritish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud.

RFID an’anaviy teglarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

1. Tezlik va samaradorlik: RFID teglari hatto masofadan turib qadoqda, yoki to‘siqlar orqali tez va aniq o‘qilishi mumkin. Bu logistika va ta’minot zanjiri operatsiyalarining tezligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

2. Avtomatlashtirish: RFID teglari qo‘lda skanerlash yoki ma’lumotlarni kiritishsiz RFID o‘qish moslamalari tomonidan avtomatik ravishda o‘qilishi mumkin. Bu inson xatosi ehtimolini kamaytiradi va boshqa vazifalar uchun xodimlar vaqtini bo‘shatadi.

3. Ma’lumot sig‘imi: RFID teglari an'anaviy teglarga qaraganda ko‘proq ma’lumotlarni saqlashi mumkin, shu jumladan noyob identifikatsiya raqamlari, mahsulot tafsilotlari va ishlab chiqarish ma’lumotlari.

4. Chidamlilik: RFID teglari odatda an'anaviy teglarga qaraganda ancha bardoshli bo‘lib, og‘ir muhitlarga, haddan tashqari haroratlarga va suv yoki kimyoviy moddalar ta’siriga bardosh bera oladi.

5. Xavfsizlik: RFID texnologiyasi shifrlash va autentifikatsiya funktsiyalarini ta’minlaydi, bu esa kengaytirilgan xavfsizlikni ta’minlaydi va etiketli mahsulotlarni qalbakilashtirish yoki buzishning oldini oladi.

6. Haqiqiy vaqtda kuzatish: RFID texnologiyasi yorliqli obyektlar yoki aktivlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi, inventarizatsiyani boshqarish va aktivlarni kuzatish

RFID texnologiyasi hayotda tobora ko‘proq foydalanilmoqda, quyida ba’zi umumiy hayot ilovalari mavjud:

1. Logistika boshqaruvi: RFID texnologiyasi omborlarni boshqarish, logistika taqsimoti, inventarizatsiya va boshqa korxonalarda qo‘llanilishi mumkin.

2. Qalbaki kontrafaktga qarshi kuzatuv: RFID texnologiyasi zararli kontrafaktning oldini olish uchun ba’zi yuqori qiymatli va soxta mahsulotlarni oson aniqlashii mumkin. Masalan, RFID teglari soxta va

past mahsulotlarning aylanishini oldini olish uchun ishlatilishi mumkin. Kontrafakt mahsulot – bu intellektual mulk huquqlarini buzgan holda ishlab chiqarilgan va sotiladigan tovarlar.

3. Hayvonlarni boshqarish: Hayvonlarni kuzatish va boshqarish RFID texnologiyasidan foydalanishi mumkin. Misol uchun, fermer xo‘jaliklari hayvonlarning salomatligi va ovqatlanish sharoitlarini kuzatish uchun RFID teglaridan foydalanishlari mumkin.

4. Aqlli kirishni boshqarish: RFID texnologiyasidan kirishni aqlli boshqarish tizimida foydalanish mumkin. Foydalanuvchi faqat kirishni boshqarish kartasini o‘qish moslamasiga yaqinlashishi kerak va tizim avtomatik ravishda identifikatsiyani aniqlaydi va shu bilan eshikning avtomatik ochilishini va xodimlarni identifikatsiyalashni amalga oshiradi.

5. Metro, avtobus: RFID texnologiyasi metro avtobuslarining chiptalarini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Foydalanuvchilar faqat kartani o‘qish moslamasidan o‘tishlari kerak, tizim avtomatik ravishda ularning shaxsini aniqlab, to‘lovni amalga oshiradi.

6. Antiqa san'at asarlarini aniqlash: RFID texnologiyasi antiqa san'at asarlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Antikvarlar ichiga teglar qo‘yish antiqa buyumlarning joylashuvi va haqiqiyligini a aniqlashni amalga oshirishi mumkin.

7. Sport musobaqalari: RFID texnologiyasi sport musobaqalarida, masalan, futbol va basketbolda ofsaydni baholash va o‘yinchilarning yugurish traektoriyalarini kuzatishda qo‘llanilishi mumkin

Tabiiy ofatlarni kuzatish RFID

Hozirgi kunda zilzila, bo‘ron, siklon, tornado kabi ofatlardan so‘ng qurbonlarni qidirish asosiy muammolardan biridir.

Obyektga biriktirilgan RFID teglari noyob identifikatsiya kodi orqali ma’lumotni saqlaydi va RFID bu ma’lumotni o‘qiydi. Ushbu teglarni aniqlash va qutqaruv guruhi, inqirozni boshqarish bo‘limlari yoki favqulodda vaziyatlar xodimlari oldida ma’lumotni ko‘rsatish uchun FM to‘lqinlarini uzatadi.

Jabrlanuvchi o‘z tegini yo‘qotgan taqdirda ham, qutqaruv guruhi hisoblash ma’lumotlar bazasi orqali ushbu tegning oxirgi joyini aniqlay oladi. Shunday qilib, ma’lumotlar bazasida jabrlanuvchining

ma’lumotlarini nusxalash, saqlash va qayta tiklash agentliklarga jabrlanuvchining o‘rnini masofadan aniqlashga yordam beradi.

Aqlli shahar blogi

Aqlli shaharlar intuitiv va aqlli komponentlarni yagona arxitekturada birlashtirib, turmush darajasini yaxshilaydi. Jismoniy buyumlardagi raqamli ma’lumotlarni tasdiqlash miyasiz narsalarni aqlli mahsulotlarga o‘zgartiradi va ushbu aqlli va raqamli mahsulotlardan foydalangan holda muntazam ishlarni bajarish oson bo‘ladi.

Miyasiz mahsulotlardan aqlli arxitekturaga o‘tish RFID texnologiyasi orqali amalga oshirilishi mumkin . Ushbu blogda biz RFID texnologiyasining aqlli shahar ilovalarini yaratishdagi rolini va ushbu ilovalar insonga har qanday faoliyatni, jumladan, avtoturargoh, o‘g‘irlik yoki o‘g‘irlik jinoyatlarini hal qilish, tabiiy ofatlarni kuzatish, tibbiy muassasalar va boshqalarni oqilona boshqarishda qanday yordam berishini muhokama qilamiz.

Parking boshqaruvida RFID

Shahar jamiyatlarida RFID texnologiyasiga rioya qilish orqali avtoulovlarning katta miqdorini to‘xtash joyida boshqarish mumkin . RFID o‘quvchilari, teglar, teglar nafaqat haydovchilarga avtomobil to‘xtash joyi uchun bo‘sh joyni tekshirishga imkon beradi, balki boshqaruvga shaharlarga ruxsatsiz yoki noqonuniy transport vositalarining kirishini oldini olishga imkon beradi, bularning barchasi shaharlar va odamlar xavfsizligini yaxshilash uchun talab qilinadi.

RFID mashinalar tizimi aqlli to‘xtash joyini boshqarishni bitta eshik o‘quvchi yoki bir nechta eshik o‘quvchiga ajratadi. Avtoturargoh xodimiga va har qanday inson aralashuviga ehtiyoj yo‘q, chunki haydovchilar kirish yoki chiqish darvozalarida ID kartalarini surishmaydi .

O‘g‘irlik jinoyatlarining oldini olishda RFID

Aqlli shaharlar har doim himoyalangan, chunki ularda o‘g‘irlik holatlari past foizga ega. FBI tavsiyasiga ko‘ra , RFID texnologiyasini shaharlarda, savdo markazlarida, restoranlarda, chakana savdo do‘konlarida joylashtirish hokimiyatga aktivlar va shaxslarni imkon qadar tezroq aniqlashga yordam beradi.

Masalan, ushbu RFID tizimlari odamlarning harakatlarini va ularning narsalarini tekshirish uchun obyekt xaritasi orqali real vaqt rejimida vizualizatsiyani ta’minlaydi. Shu sababli, xavfsizlik xodimlari o‘g‘irliklar harakatini tekshirib, o‘g‘irlangan narsalarning o‘rnini, ya’ni sumkalar, cho‘ntaklar, kurtkalar ostida, qalpoqlar ostida yoki paypoq bilan to‘ldirilgan holda aniqlashlari mumkin.

Ular savdo markazlari, ko‘chalar, shiftlar devorlari ichiga yashiringanligi sababli ular jinoyatchilarni, noqonuniy kirishni va bezovta qiluvchi hodisalarni bir zumda aniqlashlari mumkin.

Tibbiyot sohasida RFID

Sog‘liqni saqlash sohasi RFID texnologiyasidan katta foyda olishi mumkin, chunki u istalgan vaqtda biror narsani tekshirish, kuzatish, aniqlash imkoniyatiga ega.

Yaqinda RFID o‘qiydiganlar va sensorlar qo‘l soatlarini yaratish uchun raqamli bantlarga birlashtirildi. Ushbu bantlardagi RFID chiplari hamshiralarga bemorlarning ovqatlanish vaqti, dori berish vaqti, jismoniy mashqlar yoki meditatsiya uchun vaqtni rejalashtirish imkonini beradi.

RFID foydalanuvchilari bemorning kasalligini skanerdan o‘tkazadi va shifokorlarga kasallikning intensivligi haqida xabar beradi, bu esa o‘ziga xos bemorni boshqa bemorlardan ajratib olishga yordam beradi. Bundan tashqari, RFID foydalanuvchilari bemorning yozuvlarini saqlashga, bemorning to‘lovlarini qayta ishlashga, qorincha yordam qurilmasidan (VAD) shpritsgacha bo‘lgan tibbiy muassasalarni aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda RFID texnologiyasidan foydalanish voitalarni va harajatlarni tejashda, obyektlarga kirish chiqish jarayonini hamda ommaviy nazorat qilishda samaralai vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “RFID Inventory Tracking”. CONTROLTEK. February 28, 2014. Archived from the original on May 16, 2021. Retrieved May 12, 2022.

2. Automatic Identification and Data Collection (AIDC) Archived May 5, 2016, at the Wayback Machine

3. Bhise, Kshama S. (February 2016). “Wildlife Animal Tracking Using RFID and GSM Technology” (PDF). International Journal of Scientific & Engineering Research. 7: 1–2 – via IJSER.

4. “USDA Announces Intent to Pursue Rulemaking on Radio Frequency Identification (RFID) Use in Animal Disease Traceability". USDA APHIS. March 23, 2021. Retrieved May 12, 2022.

5. D’Onofrio, Tony (2022-05-01). “Then and Now: RFID, Self-Checkout, and IoT”. Loss Prevention Media. Retrieved 2022-05-12.

6. Angell, I., Kietzmann, J. (2006). “RFID and the end of cash?” (PDF). Communications of the ACM. 49 (12): 90–96. doi:10.1145/1183236.1183237. S2CID 3559353. Archived from the original (PDF) on 2014-02-24. Retrieved 9 November 2013.

7. RFID Forecasts, Players and Opportunities 2019-2029. IDTechEx. 2020-02-27.

8. Hacking Exposed Linux: Linux Security Secrets & Solutions (third ed.). McGraw-Hill Osborne Media. 2008. p. 298. ISBN 978-0-07-226257-5.

9. “What are IFF Technologies?”. BAE Systems - United States. Retrieved 2021-03-29.

10. Stockman, Harry (October 1948), "Communication by Means of Reflected Power", Proceedings of the IRE, 36 (10): 1196–1204, doi:10.1109/JRPROC.1948.226245, S2CID 51643576

11. Jump up to:a b "Genesis of the Versatile RFID Tag". RFID Journal. 10 October 2012. Retrieved 2013-09-22.

12. US 3713148, Cardullo, Mario W. & Parks, William L., “Transponder apparatus and system”, published May 21, 1970, issued Jan 23, 1973

13. Landt, Jerry (2001). “Shrouds of Time: The history of RFID” (PDF). AIM, Inc. Archived from the original (PDF) on 2009-03-27. Retrieved 2006-05-31.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Yusupov Ulug‘bek Abduxalil o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘quv-uslubiy situatsion markazi o‘qituvchi-uslubchisi

So‘nggi yillarda bozorlar, ta’lim va tibbiyot muassasalari, mehmonxonalar, yo‘llar va boshqa jamoat joylariga o‘rnatilgan videokuzatuv uskunalari, zamonaviy signal uzatish kabi turli texnikalar jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi, bu esa huquq-tartibotini ta’minlashda ijobiy natijalarga erishish, mamlakatda jinoyatchilik bilan bog‘liq vaziyatni sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Prezident Farmonini alohida ta’kidlashimiz joiz Farmonda “Jamoat xavfsilzigi”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” tushunchalariga ta’riflar berilgan bo‘lib unda jamoat xavfsizligi—jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4997-sonli qarorida qo‘riqlash xizmatini zarur texnik vositalar bilan ta’minlash va ularni O‘zbekistonda ishlab chiqarish, mahalliylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Hozirgi kunda sahada kuzatilayotgan kamchiliklar:

“Xavfsiz shahar” loyihasini qurishda texnologik jihatidan ortda qolish

“Xavfsiz shahar” kompleksi dasturi doirasida ijtimoiy soha, madaniyat, turizm obyektlari, vokzal va bozorlarda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash uchun 50 mingdan ortiq kuzatuv kamerasi o‘rnatish, umumiy ma’lumotlar bazasi 20 milliondan ortiq bo‘lgan intellektual qidiruv tizimi tashkil etish belgilangan. Buning natijasida jinoyatlarni fosh etish vaqti va huquqbuzarliklar soni 45 % gacha kamayishi maqsad qilib olingan.

“Xavfsiz shahar” kompleksini bunyod etishda, monitoring, prognoz qilish, xavfsizlikka tahdidning oldini olish va bartaraf etishda yagona axborot makonini shakllantirish, favqulodda vaziyatlarda aholi kuch va vositalarni boshqarish, vaziyatni tahlil qilish imkonini beradigan ilg‘or xorijiy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish lozim.

Ma’lumot uchun: Rossiya Federatsiyasining ITV intelektual integratsiyalashgan xavfsizlik va video-kuzatuv tizimlari uchun yetakchi dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchi kompaniyasi, dunyoda xavfsizlik faoliyati yo‘nalishida eng samarali ishlovchi vositalarni ixtiro qilgan asosiy kompaniyalardan biri hisoblanadi.[20] Kompaniya 100 dan ortiq mamlakatlar mijozlarining ehtiyojlarini o‘rganib o‘z mahsulotlarini sun’iy neyron tarmoqlarga asoslangan innovatsion algoritmlarini va video tahlil qilish usullarini yaratadi hamda amalga oshiradi. Ushbu funksiyalar orqali quyidagi afzalliklarga ega bo‘lish mumkin:

neyron tarmoq orqali video tahlillar va bir vaqtning o‘zida 10 000 dan ortiq IP-qurilmalari modellarini qo‘llab quvvatlash;

video arxivdagi aqlli qidiruv va foydalanuvchiga qulay interfeysni birlashtirgan video platforma taqdim etish;

[20] ITV - системы безопасности и видеонаблюдения. Available at: https://www.itv.ru/products/intellect/acfa-intellect/integration.html

video va ovoz eshitgich dachchiklar orqali voqea ssenariysiga qarab insonga bevosita qilingan tahdidlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlari navbatchilik qism manitorlarida aks ettirib berish;

xona ichida yong‘in va tutunni sezuvchi boshqa turdagi texnik vositalardan farqli o‘laroq, tashqi va havo tez aylanib turuvchi joylarda ham yong‘in va tutunlarni video tahlil orqali aniqlash;

ommaviy tartibsizliklarni boshlang‘ich elementlarini aniqlashda tartibbuzar harakatlarini, yuz qiyofasini hamda qo‘l harakatlarini tahlil qilish;

chakana savdo kassalarida noqonuniy harakatlarni sun’iy intelekt yordamida aniqlash;

avtomobillar raqami va yuz qiyofasi orqali insonlarni qidirib topish;

kameralar vertikal o‘q atrofida avtomatik 360 gradus aylanib turadi;

asosiy server bilan aloqa yo‘qolsa, barcha funksiyalarini bajaradigan zaxira server avtomatik ravishda ulanadi;

operator ekranida efirga uzatilgan va arxivga yozib olingan video darhol tiklanadi;

hozirda faoliyat olib boruvchi qo‘riqlash xizmati texnik vositalari va boshqa qurilmalar bilan faol integratsiyalash funksiyasi bilan birga 40 dan ortiq vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagi ko‘p funksiyaviy tizimni yurtimizda joriy qilish uchun faqatgina kampaniya tomonidan ishlab chiqarilgan intelekt-x super serverlarini sotib olish va istalgan turdagi kameralarga integratsiya qilish kifoya.

“Mobil tashvish tugmasi” orqali fuqarolar xavfsizligini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash xizmati tomonidan bugungi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini jumladan, 49 449 ta obyekt va 18 592 ta xonadonni shartnoma asosida qo‘riqlashni tashkil etib kelmoqda. 2022-yil mobaynida xizmat tomonidan fuqarolarning 150 dan ortiq jinoyat sodir etishlari oldi olingan.

Mavjud ijobiy natijalarga qaramasdan xizmat tomonidan fuqarolar xavfsizligini ta’minlash uchun keng turdagi innovatsiyalarni joriy qilish yo‘lga qo‘yilmagan. Jumladan “Pritok-A” integrallashgan qo‘riqlash va

yong‘indan xabar berish tizimi orqali fuqarolar individual foydalanishi uchun “Mobil tashvish tugmasi” loyihasini amalga oshirsa bo‘ladi. Yurtimizda istalgan ta’lim muassasalari, korxonalari yoki tashkilotlari raxbarlari yoxud ixtiyoriy subektlari tomonidan tizimdan foydalanishi, ushbu hududlarda xavfsizlikni ta’minlashda hamda voqea joyiga real, tezkor vaqtda huquqni muhofaza qilish organlari hodimlari yetib borishiga yordam beradi.

“Mobil tashvish tugmasi” ilovasining texnik xususiyatlari:

ilova Android va iOS operatsion tizimida ishlovchi smartfon, planshet va kompyuterlarga o‘rnatiladi;

Pritok-A qurilmasi tizimida foydalaniladigan himoyalangan kanallar orqali ikki tomonlama aloqani ta’minlaydi;

texnik qo‘riqlash markazi bilan zaxira aloqa kanali orqali ham ishlaydi;

foydalanuvchini TQM bilan aloqa yo‘qolish holatlari to‘g‘risida ogoxlantiradi;

tashvish xabarini mobil ilova asosiy menyusida joylashgan tugmacha, vidjet va ovoz ko‘tarish tugmachasi orqali uzatish imkoniyatiga ega;

tashvish xabarlarini TQMga uzatish vaqti 15 sekundgacha;

foydalanuvchiga tashvish xabari TQMlarga yetkazilganligi to‘g‘risida ogoxlantirish beradi;

mobil qurilma akkumulyatori sig‘imi, xabarlar to‘g‘risida foydalanuvchini ovozli va tebranish orqali ogoxlantiradi;

foydalanuvchi joylashgan joyi koordinatalarini TQM dispetcherlari tomonidan aniqlash imkoni mavjud.

Eng asosiy afzalligi: obyekt rahbarlari, fuqarolarni “Mobil tashvish tugmasi” orqali ulashda harajatlarning 0 ga tengligi, ya’ni bepulligi hamda bitta statsionar “tashvish tugmasi”ni o‘rnatish uchun sarflanadigan o‘rtacha 850 ming so‘m qo‘riqlash xizmati mablag‘larini tejab qolinishi hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar yaratish.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ham innovatsiya loyihalari ishlab chiqilmoqda. Biroq, ushbu yo‘nalishda innovatsion g‘oyalar faqatgina muammoli vaziyat sodir bo‘lganda uni bartaraf etish uchun yaratilmoqda. Aslida bu muammolarni kelib chiqish jarayonidan oldin ularga qarshi turish uchun yaratilishi va yetarlicha moddiy resurslar bilan ta’minlanishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jamoat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tizimida samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy ilg‘or xorijiy texnalogiyalarni amaliyotga joriy qilish, xavfsizlik sohasidagi taxdidlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etildi:

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy qilish, jumladan RF ning ITV kompaniyasi ishlab chiqargan mahsulotlarini haridini yo‘lga qo‘yish yoxud o‘zimizda muqobil variantlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

xavfsizlikni ta’minlash sohasida foydalanuvchi texnik vositalarni ishlab chiqarishda innovatsion g‘oyalarga davlat grantini ajratish;

xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi innovatsion g‘oyalarni taqdim etish markazigi MG tarkibiy bo‘linmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

“Mobil tashvish tugmasi” loyihasini amalga oshirish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida innovatsiya loyihalari ishlab chiqish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.06.2022 yildagi O‘RQ-778-son “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.05.2018 yildagi 343-son “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risida
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4997-sonli qarori
6. www.cer.uz; intellect ITV.ru.

TARMOQDAGI ZAIFLIKLARINI OLDINI OLISHDA DUNYO TAJRIBASI

Kamilov M.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Axborot texnologiyalari katta o‘qituvchisi, dotsent
Abulxayev N.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Axborot texnologiyalari o‘qituvchisi

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning barcha sohalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarining ajralmas qismidir. Iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zgarishi, bu jarayonning

raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun’iy intellektning joriy etilishi bilan bog‘liq muhim davrni boshdan kechirmoqda.

2022-yilga kelib dunyo YAIMning qariyib chorak qismi raqamli sektorga to‘g‘ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada oydinlashadi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu — mamlakat kiberxavfsizligini ta’minlashdir.

Hech kimga sir emas, COVID-19 pandemiyasi bizning raqamli dunyoga bo‘lgan ehityojimizni kuchaytirdi, odatdagi ish faoliyatimiz o‘zgardi, xavfsizlik va ishning uzluksizligiga ko‘proq ishonishni, uzoqdan ishlaydigan vositalardan ko‘proq foydalanishga, shu bilan birga mijozlarga xizmat ko‘rsatishda davom etadigan muhim biznes faoliyatini saqlab, xizmatlarni taqdim etishga e’tiborni kuchaytirdi.

O‘tgan 2021-yil bizga chalasavod, xakerlarni (skript-kiddi tayyorlovchi, tayyor dasturlardan foydalanuvchi) davri o‘tganligini ko‘rsatib o‘tdi. Kompyuterdagi ma’lumotlarni shifrlab pul talab qiluvchi dasturlar xakerlar uchun katta biznesga aylandi.

Kiberjinoyatchilar katta kompaniyalarni mo‘ljalga olishdi. Chunki ular biznesi uzoq vaqt to‘xtab qolmasligi yoki butunlay ish faoliyati tugamasligi uchun juda katta miqdordagi to‘lovni to‘lashga majbur bo‘ladida. Endi kiberjinoyatchi xakerlarda o‘zlarining iyerarxiyasi mavjud, xujumlarning stategik yondashuvi, buyurtma olib xujum uyushtirish uchun o‘zlarining xususiy birjalari mavjud, bundan tashqari buzish, suqulib kirish uchun vositalarni sotib olishi yoki vaqtincha foydalanib turishi va hattoki xujum uyushtirish uchun malakali xakerlar jamoasini yollashi mumkin.

Hammamizga ma’lum pandemiya davrida raqamlashtirish bir necha barobar oshdi. Misol uchun videokonferensiyalardan foydalanish bir necha 10 barobar o‘sdi. Bunda albatta ma’lumot almashish ham oshdi. Butunjahon bankining ma’lumotiga ko‘ra 2022-yilda internet trafigining umumiy hajmi 2020 yilga qaraganda taxminan 50%ga oshadi. Va 4,8 zettabay(10^{21})ga yaqinlashadi. Bu raqamni qanday tassavvur qila olasiz? Faraz qilaylik siz 4,8 Zettabaytni DVD disklarda saqlasak, unda ularning soni yer sharini 6 marta qoplashga yetar ekan! 6 MARTA !!! Bu juda katta raqam!

Jumladan qo‘yidagi 10 talik reytingda xakerlar xujumiga duch kelgan yirik kompaniyalarni ko‘rishimiz mumkin



Mutaxassis ekspertlarning prognozi bo‘yicha bundan keyin xam kiberjinoyatchilar fishing xujumlardan faol foydalanishadi. Bekorga inson kiberxafvsizlik zanjirida eng zaif qismi bo‘lib hisoblanmaydi. Biz juda ko‘p xollarda noto‘g‘ri, xato yozilgan domenlarni va boshqa shubhali tafsilotlarni payqamay qolishimiz mumkin va bu holat moddiy zarar ko‘rishga yo‘l ochadi.

Endi biznes uchun asosiy xavflarni ko‘rib chiqamiz:

Zararli dasturlar.

To‘lovni talab qiluvchi dasturlar.

Fishing.

Ijtimoiy injeneriya

Parollarni buzish

Ichkaridan xujum

Vositachi orqali xujum

DDoS (Denial-of-Service) xujumi

Eskirgan yoki kuchsiz kirishni boshqaruv tizimlari

SQL-kodi yordamida xujumni amalga oshirish.

Zararli dasturlar. Juda ko‘p xolatlarda bular kompyuter viruslari. Maxsus yaratilgan zarali dastur axborot tizimiga tushgandan keyin jiddiy zarar yetkazadi. Masalan:

sanoat shpionaji, ya’ni ma’lumotlar bazasini, kompaniya sirlarini o‘g‘irlash,

yetakchi, malakali xodimalarga ov ochish,

ma’lumotlarni shifrlash yoki butunlay yo‘q qilish, almashtirish;

xodimlar nomidan xabar jo‘natish,

kompaniya ish faoliyatini to‘xtatish uchun dastruy ta’minotni ishdan chiqarish, qulflab (blokirovka) qo‘yish va boshqalar.

Himoyalanish usullari:

Eng samarali usul bu foydalanuvchilarga mustaqil dastur o‘rnatish va kompterning ayrim sozlamalarini o‘zgartirishni ta’qiqlash. Bu masala bilan kompaniya administratori yoki maxsus biriktirilgan xodimlari shug‘ullanishi lozim. Bundan tashqari tarmoq resurslariga, jumladan ijtimoiy tarmoqlar, mesendjerlarga ham cheklov qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘lovni talab qiluvchi dasturlar

Zararli dasturning maxsus turi bo‘lib, asosan kriptovalyutada to‘lovni talab qiladi. Misol tariqasida WannaCry, Petya, Cerber, Cryptolocker, Locky zararli dasturlarni kiritish mumkin. Ko‘pchilik to‘lovni amalga oshirishga rozi bo‘ladi, sababi ish to‘xtab qolishi juda qimmatga tushadi, (taxminan 23 marotabaga).

Himoyalanish usullari:

Foydalanuvchilar dasturlarning xar qanday nostandart hatti-xarakati – bu tizim administratoriga murojaat etish uchun sabab ekanligini yaxshi tushinib olishlari lozim. O‘zboshimchalik bilan xech qanday qaror qabul qilishi kerak emas.

Odatda to‘lovni talab qilivchi dasturlar ma’lumotlarni shifrlab yo tarqatib yuborish yoki foydalinib bo‘lmas darajaga yetkazish bilan tazyiq o‘tkazadi. Bu muammo oldindan yaratilgan zahira nusxalarini olish, o‘ta muhim ma’lumotlarni intenrnetga ulanmagan kompyuterlarda saqlash bilan hal etish mumkin.

Fishing

Ya’ni bizni tilda “baliq ovi” deb tarjima qilinadi. Eng keng tarqalgan usullardan bo‘lib. Bunda zarali dastur qurbonlarning kompyuteriga kirib boradi. Odatda elektron pochta, xavolalar, ijtimoiy tarmoqlar, chatlar orqali soxta xabarlar, so‘rovlar sifatida murojaatlar kelib tushadi.

Himoyalanish usullari:

Bunga qarshi turish biroz qiyinroq bo‘lishi mumkin, sababi barcha kiruvchi xabarlarga shubxa bilan qarash noto‘g‘ri, ayniqsa tanish manzillardan kelgan xabarlarga. Lekin shunga qaramasdan jo‘natilayotgan xabarlarda qandaydir kodlangan so‘z yoki ibora bilan kelishib olish, xavolalarga o‘tishda extiyokorlikka amal qilish lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari to‘lovlarni, shartnomalarni va boshqa zaruri amallarni ma’muriy tizimlashtirish yo‘li orqali amalga oshirish maqsadga mufoviq. Xuddi seyflarning ochilishi kalitlarni birgalikda burashi kabi (har bir xodimda bittadan kalit).

Ijtimoiy injeneriya

Bu usulning umumiy ta’sir etishi ko‘proq fishing bilan bog‘liq. Masalan, sotuvchi shartnoma haqida juda yaxshi kutilmagan taklif oladi va o‘ylamay turib fayllarni ochadi va hattoki dasturlarni ham o‘rnatadi (tenderda qatnashish platformasiga kirish kabi, aslida esa bu dastur virus bo‘lib chiqadi), yoki xodimga buxgalteriyadan direktor (rais, raxbar) nomidan tasodifiy xabar(havola), bundan kim o‘zini tiyib tura oladi. Nima ham deyish mumkin bunday holatlarning 30% da hattoki axborot xavfsizligi xodimlari ham bunday xabarlarni ochib ko‘rishadi.

Himoyalanish usullari:

Bunday holatlarda psixologig treninglar o‘tkazish ko‘proq natija beradi, tushuntirish ishlarin olib borish, yolg‘on xabarlarni qanday aniqlash, xabarlar (havolar)ni ochganda (dasturlarni o‘rnatganda) nima qilish lozim ekanligini o‘rgantish darkor.

Ora-chorada kompyuter xavfsizligi bo‘yicha o‘qish mashqlarni olib borish. Ya’ni xodimlarni “sirli xaridor” sifatida tekshirib ko‘rish, parolni (sms kodlarni) etishiga ko‘ndirish. Keyin esa natijalarni tahlil etish. Mabodo mashg‘ulot yaxshi tashkillashtirilgan, sovg‘alari bilan birga bo‘lsa, foydadan holi bo‘lmaydi.

Parolni buzish

Eski lekin xanuzgacha amalda qo‘llaniladigan usullardan biri. Bunda asosan parolning zaifligidan foydalaniladi. Parollar brut-fors, keylogerlar yordamida aniqlanadi.

Himoyalanish usullari:

Parol uzunligini imkon darajasida maksimal qilish;

parolni yozishda belgilar, raqamlar, maxsus belgilardan foydalanish; Masalan #@$% kabi belgilar. Parolni buzishda qiyinchiliklar tug‘diradi;

“Recaptcha” va parolni noto‘g‘ri terishlarni cheklab qo‘yish yaxshi natija beradi. Xuddi bankomatlardagi kabi-uch marta noto‘g‘ri terilgan pin-kod, kartani bloklab qo‘yadi.

Ichkaridan hujum

Afsuski tahdid ba’zan ishlayotgan (ishdan bo‘shagan, norozi bo‘lgan) xodimlaridan kelib chiqadi. Ular kerakli ma’lumotlarni hamkasblaridan o‘g‘irlashadi (yoki parollarini buzgan xolda ko‘chirib olishlari ham mumkin). Buni amalga oshirish uchun hamkasb yonida bo‘lish shart emas, boshqa xonadan turib ham shularni amalga oshirish mumkin. Tizimga kirish uchun ruxsat bo‘lsa yetarli.

Himoyalanish usullari:

Kirish nazoratini boshqarish uchun IDM/IAM/IGA tizimini joriy etish,

amaldagi parollar auditi olib borish, ularni tez-tez yangilab borish,

ma’lumotlarga shubxali murojaatlarni tekshirib turish maqsadida kirish nazorati auditini loglashtirish.

Vositachi (qurilma) orqali xujum

Bunda buzg‘unchi tizimga tashqaridan turib hujum qilishi mumkin. Masalan: Wi-Fi tarmog‘ini buzish, yoki tekin Wi-Fi tarmoq yaratish orqali. Bu jiddiy xavf uyg‘otadi.

Himoyalanish usullari:

Bundan himoyalanishni birinchi yo‘li bu kliyent bilan server orasida shifrlashni yo‘lga qo‘yish,

brauzerlarda maxsus plaginlarni ishlatish mumkin. Masalan: himoyalangan tarmoqni o‘rnatishda ForceTLS dan foydalanish (lekin buni xar doim ham amalga oshirish mumkin emas, qurilmalarga bog‘liq tomoni bor).

eng qattiq va samarali usuli bu ma’lumotlar bilan ishlashda ochiq Wi-Fi tarmoqlardan voz kechish.

DDoS (Denial-of-Service) hujumi

Axborot tizimini shu jumladan uni himoya qilish vositalarini ortiqcha, haddan tashqari ko‘p so‘rovlar jo‘natish bilan ishdan chiqarish. Odatda bir necha ming, ba’zan bir necha yuz ming viruslar bilan zararlarngan kompyuterlardan amalga oshiriladi.Ular botnetlarga birlashib, xakerlar tomonidan tashqaridan boshqariladi.

Himoyalanish usullari:

Bunga qarshi bir qator maxsuslashtirilgan (hattoki bulutli) tizimlar bor. Masalan: Cloudflare, AKAMAI, Anti-DDoS Pro kabi va boshqalar.

tez va jiddiy xujumlar bo‘lgan taqdirda serverlarni qayta takomillashtirish talab qilinadi.

SQL-kodi yordamida hujumni amalga oshirish

Veb-server, saytlardagi ma’lumotlar bazasini o‘rnatishdagi xatolarga asoslangan eski va oddiy usullardan biri. Ba’zan kompaniyalarning axborot tizimida saytdagi qidiruv tizimi maydonida zararli kodni kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Himoyalanish usullari:

kodlarni zararli skriptlardan tozalash uchun funksiyalardan foydalaning.

formalardagi ma’lumotlarni serverdan tashqarida tekshirish,

foydalanuvchi tomonidan yuklanayotgan ma’lumotlarni (dasturlarni) ishlashini ta’qiqlash

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki juda ko‘p holatlarda insonning roliga katta ahamiyatga ega. Biz turli himoya tizimlarini, dasturlarini, vositalarini qo‘llashimiz mumkin, lekin ulardan to‘g‘ri foydalana oladigan, biror bir vaziyatda tezkorlik bilan chora ko‘radigan mutaxassislar bo‘lmasa bularning bari foydasiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun hozirga davrda kiberxafvsizlik, axborot xafvsizligi bo‘yicha mutaxassilarni tayyoralash juda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. S.S.Qosimov. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent.

"Aloqachi", 2006.

2. “Axborot texnologiyasi. Axborotlarni kriptografik muhofazasi. Ma’lumotlarni shifrlash algoritmi” O‘zbekiston Davlat standarti. O’zDSt 1105:2006.

3. Rasulmetov M.A. Saidboyev B.J. Kamilov M.A. “Axborot xavfsizligi”. Darslik.-Toshkent. O‘z Res. MG XTI. 2020

3. https://www.nasa.gov\statistics\
4. https://www.security.uz
5. https://www.cert.uz
6. https://www.uzinfocom.uz
7. https://10guards.com/ru/articles/

AQLLI SHAHARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Saidboyev Bahodir Djalitdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Axborot texnologiyalari kafedra dotsenti, t.f.f.d (PhD)

Annotasiya. Jamoat xavfsizligini ta’minlash dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bu sohada turli tashkilotlar doimiy monitoring olib boradilar, natijada reytinglar e’lon qilinadi, ularning natijalari yashash joyini tanlashga, sayyohlar va investorlarni jalb qilishga va hokazolarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shaharlarda jamoat xavfsizligini nazorat qilishni soddalashtirish uchun sun’iy intellekt tizimlaridan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Bunday tizimlardan foydalanishning ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, inson shaxsiy huquqlarini himoya qilish asosiy muammoga aylanadi. Ushbu maqolada xorijiy olimlarining bunday tizimlarni yaratish natijalari tasvirlangan va ularni mamlakatimizda “aqlli shahar” sharoitida amalga oshirish xususiyatlari muhokama qilinadi. Mavjud “aqlli shaharlar”da jamoat xavfsizligini mustahkamlash uchun sun’iy intellekt tizimlarini joriy etish bo‘yicha bir qator mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinadi. Bunday

tizimlarning faoliyati davomida yuzaga keladigan, ayniqsa, fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini cheklash nuqtai nazaridan yuzaga keladigan huquqiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Respublikamizda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: “aqlli shahar”, sun’iy intellekt tizimlari, jamoat xavfsizligi, video kuzatuv, maxfiylikni himoya qilish.

Ключевые слова: «умный город», искусственный интеллект, общественная безопасность, системы видеонаблюдения, защита секретности.

Kirish. Jamoat xavfsizligi zamonaviy shaharlar uchun muhim bo‘lib, yashash joyini tanlashda, ko‘chirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda, turizm xizmatlarini rivojlantirishda, investitsiyalarni jalb qilishda va hokazolarda muhim sabablardan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotning barcha jabhalariga tarqalishi va keng joriy etilishi aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan “aqlli shaharlar”ning rivojlanishiga olib keldi. “Aqlli shahar” faoliyatining asosiy shartlaridan biri aholi xavfsizligini yuqori darajada ta’minlashdir.

“Aqlli shahar” — shahar tashkiliy mulkini boshqarish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va internet texnologiyalarining integratsiyasidir. “Aqlli shahar” konsepsiyaga ko‘ra “aqlli transport”, “aqlli ta’lim”, “aqlli tibbiyot”, “aqlli energetika tizimi”, “aqlli qurilish”, “aqlli kommunal xo‘jalik”, “aqlli uy”, “aqlli hokimiyat”, “aqlli mahalla” kabi loyihalar “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda xavfsizlik tushunchasi birinchi navbatda fuqarolarning jismoniy xavfsizligini va jamoat infratuzilmasini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

“Aqlli shahar” texnologiyaning “Xavfsiz shahar” tizimi - xavf-xatarlarni, favqulodda vaziyatlarni, hodisalarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni kompleks boshqarish tizimi bo‘lib, davlat tomonidan aholi hayoti va faoliyatini barcha tashqi (tabiiy, texnogen, ijtimoiy-biologik, ekologik, jinoiy va boshqa) tahdidlardan muhofaza qilish bilan

birga, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa ijtimoiy obyektlarni yagona axborot makoniga birlashtiradi.

Misol uchun, barcha davlatlarda bu loyiha ehtimoliy tahdidlarga javob qaytarish va ogohlantirish tizimlarini integratsiya qiladi. Yanada soddalashtirsak, tizim inson hayoti va faoliyati xavfsizligi uchun birlamchi bo‘lgan tuzilmalar — sog‘liqni saqlash (tez yordam), ichki ishlar, o‘t o‘chirish, favqulodda vaziyatlar xizmatlarini o‘zaro integratsiyalaydi. Shu to‘rt tuzilma hamma davlatda mavjud va odamlar uchun juda muhim. Boshqa davlatlar bu ro‘yxatni kengaytirishi mumkin. Masalan, ular safiga ekologiya, qutqaruv, kommunal yoki sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatlarini qo‘shish mumkin. Integratsiyalashgan organlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, “Xavfsiz shahar” ahamiyati shuncha ortadi.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot infratuzilmasi (elektron hukumat va boshqa tarkibiy qismlar) qurilishi bilan ushbu tushuncha odamlar va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini kiberxavfsizlikni ta’minlash masalalariga qadar kengaymoqda.

Huquq-tartibot, ekologik va boshqa xavfsizlikni ta’minlashning an’anaviy masalalari bilan bir qatorda, davlat va alohida obyektning (masalan, shaharda joylashgan korxona) muhim axborotlashtirish obyektlarining uzluksiz ishlashi masalalari birinchi o‘rinda turadi. Shunday qilib, aqlli shahar xavfsizligini ta’minlash muhim obyektlar xavfsizligini ta’minlash kabi muhim masalaga aylanadi.

“Aqlli shaharlar” ishlaganda barcha manbalardan katta hajmdagi ma’lumotlar yig‘iladi (aholining yo‘nalishlari va transporti, geolokatsiyasi, ma’lum xizmatlarga sarflangan mablag‘ miqdori, ma’lum xizmatlardan foydalanish tahlili va boshqalar).

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda “aqlli shahar” ning asosiy elementi turli xil ma’lumot manbalaridan olingan ma’lumotlar oqimini tahlil qilishga asoslangan avtomatlashtirilgan tizim bo‘lib, u real vaqtda ma’lumotlarni qayta ishlash, ko‘p faktorli tahlillarni amalga oshirish va inson qarorlarini qo‘llab-quvvatlash rejimida ham, to‘liq avtomatik rejimda ham tezkor javobni boshlash imkonini beradi[1].

Ushbu ma’lumotlarning aksariyati bugungi kunda “aqlli shaharlar” ning ajralmas qismiga aylanib borayotgan aqlli videokuzatuv tizimlari

Misol tariqasida yuqorida keltirilgan tarkibdan birinchi to‘rtta tizimni texnik qo‘riqlov va himoya tizimi va vositalariga, oxiridan uchtasini

birlashtirilgan (integrallangan) qo‘riqlov tizimi tarkibiga kiritishimiz mumkin. Birlashtirilgan (integrallangan) qo‘riqlov tizimini yong‘inga qarshi xavfsizlikni ta’minlash tizimi va axborot xavfsizligi tizimi bilan bog‘lagan holda xavfsizlik tizimi uchun darajalar belgilanishi mumkin.

O‘z navbatida texnik qo‘riqlov vositalari - bu harbiy obyektlarni qo‘riqlash, tartibbuzarlarni ushlash va qo‘riqlanayotgan obyektga ruxsat etilmaganlarni kirishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun mo‘ljallangan maxsus harbiy texnikaning alohida turi. **Qorovulxona va postlarni texnik qo‘riqlov vositalari bilan ta’minlash, shuningdek, qo‘riqlanayotgan obyekt to‘silishi va ularni qo‘riqlash bo‘yicha yoritilishi tegishli harbiy va davlat obyekti boshlig‘iga (harbiy qism komandiriga) yuklatiladi.**

Qo‘riqlash va mudofaa qilishda xizmat itlaridan foydalanishni rivojlantirish turli harbiy obyektlar muhofazasining ishonchliligini oshirib, bunday maqsadda tayinlanadigan soqchilar sonini qisqartirish imkonini beradi. Xizmat itlari qo‘riqchilik olib borayotganda bog‘lab qo‘yiladigan qo‘riqchilik xizmati davomida postning tashqi tomonidagi begona kishi 40 metrdan qisqa bo‘lmagan masofaga yaqinlashib kelayotganini payqashi va bo‘lanmaydigan qo‘riqchilik xizmati davomida yaqin oradagi qorovullik postini obyektga begona shaxs yaqin kelgani haqida ogohlantirishi, tartibbuzar qo‘riqlanayotgan obyekt hududiga kirib kelganda esa unga tashlanishi, postning orqa tomonidagi odamlarga befarq munosabatda bo‘lishi, qo‘riqchilik xizmatida sergaklik va hushyorlikni sutkaning har qanday vaqtida 10 soatgacha saqlab qolishi, yerdan va begona kishilar qo‘lidan yegulik olmaslikka o‘rgatilgan bo‘lishi kabi qo‘yilgan talablarni o‘rgatadigan mutaxassis-kinologlarni har bir harbiy qism va muassasalarda tayyorlash va ularni samarali faoliyatini olib borish lozim. Shuningdek, xizmat itlarini harbiy qism hududida (dala sharoitida) to‘g‘ri joylashtirish, oziq-ovqat bilan ta’minlashni soddalashtirish va qo‘riqchi it postini talab darajasida to‘liq jihozlash bilan yuqori samaraga erishiladi [8].

Harbiy shaharcha va obyektlarni mavjud qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Sutkalik naryadlarni (qism, NO‘P, park, bo‘linmalar bo‘yicha navbatchilar va boshqa naryadlar tarkibi) va qorovulni (navbatchi bo‘linmani) almashish vaqti ertalab soat 09.00-10.00, naryadga tayyorgarlik ko‘rish va amaliy mashg‘ulotga qatnashish bir kun oldin amalga oshiriladigan etib belgilanishi.

Qism bo‘yicha navbatchi navbatchilikni qabul qilganidan keyin barcha navbatchilar, qorovul boshlig‘i va navbatchi bo‘linma komandiri bilan harbiy shaharchani (obyektlarni) qo‘riqlash va mudofaa qilishda vazifa va harakatlarga aniqlik kiritishida ayniqsa qishki sharoitlarda qorong‘u tushishi, kechki ovqat vaqtiga to‘g‘ri kelishi sababli navbatchilarni uzoq vaqt navbatchilik joyidan tashqarida bo‘lishiga sabab bo‘lib qisman jangovar shaylikning pasayishiga olib kelishi mumkin;

2. Harbiy shaharchadagi (obyektlardagi) kuzatuv kameralarini simsiz kameralarga o‘tkazish, mavjud kuzatuv

3. Harbiy shaharchadagi (obyektlardagi) har bir sektorni tungi sharoitda ham ishlaydigan 360 gradusda butun sektor chegarasigacha kuzatish imkoniyatiga ega zamonaviy kuzatuv kameralari bilan jihozlash;

4. Harbiy shaharcha (obyektlar) tashqi qismini va ichki ko‘rinishi cheklangan joylarini kuzatib ma’lumotlar olish bo‘yicha kichik hajmdagi uchuvchi apparatlardan (dron, kvadrakopterdan) foydalanish;

5. Harbiy qism bo‘yicha navbatchi xonasida barcha kuzatuv kameralaridan kelgan ma’lumotlarni aks ettirib, yozib oluvchi boshqaruv asboblarini jihozlagan holda qism bo‘yicha navbatchining texnik qo‘riqlov vositalarini qo‘llash bo‘yicha yordamchisi (operatorkuzatuvchi) xizmatini joriy etish;

6. Harbiy qism bo‘yicha navbatchi, uning yordamchisi va texnik qo‘riqlov vositalari bo‘yicha yordamchisi (operator-kuzatuvchi) xizmatini olib borish uchun harbiy qism tashkiliy shtat tuzilishiga qo‘shimcha shtatlar ochish;

7. Harbiy shaharchaning taqiqlangan hududida va harbiy shaharcha ichkarisida qo‘lga olingan tartibbuzarni ushlab turish, huquqni himoya qiluvchi organlarga topshirilgunigacha saqlash tartibi va ular

bo‘ysunmagan hollarda muomala qilish tartibi bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqilishi [9,10].

Xulosa sifatida harbiy shaharcha va obyektlarni mavjud qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari bir birini to‘ldirgan holda yagona maqsadga erishishni ya’ni harbiy shaharcha va obyektlarni samarali qo‘riqlash va mudofaa qilish bilan qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalarning doimiy jangovar shayligini ta’minlash uchun belgilanadi. Har qanday buyum, qurilma (majmua) va tizim doim o‘sishda, rivojlanishda davom etadi, shu sababdan harbiy shaharchani (obyektlarni) qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimi ham bundan mustasno emas. Harbiy shaharchani (obyektlarni) qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini takomillashtirib borish va rivojlantirishga faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki mavjud bo‘lgan barcha vositalar, qurilmalar va anjomlarni takomillashtirib borish bilan ham erishiladi. Harbiy shaharchani (obyektlarni) qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha faoliyat harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig‘i), shtabi va barcha mansabdor shaxslar tomonidan o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha izlanib, ilg‘or tajribalardan namunalar olib tahlil qilgan holda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2018-yil fevraldagi “Mudofaa vazirligi qo‘shinlari va boshqarmalarini yangi o‘quv yiliga tayyorlash bo‘yicha tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalari” to‘g‘risidagi D-N2-sonli direktivasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari ichki xizmat nizomi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan, Toshkent-2007.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan, Toshkent-2007.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig‘ining 2017-yil 30-dekabrdagi 383-sonli buyrug‘i bilan kuchga

kiritilgan “Garnizon va harbiy qismlarda qo‘shinlar xizmatini tashkillashtirish bo‘yicha qo‘llanma”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig‘ining 2017-yil 17-noyabrdagi №128-sonli “Mudofaa vazirligi tizimida harbiy shaharchani qo‘riqlash va mudofaa qilishni tashkillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

6. Harbiy qism hududiga kirish chiqishni tashkillashtirish. O‘quv qo‘llanma, Xalilov M. Toshkent-2015.

7. Qo‘shilmada qo‘shinlar xizmatini tashkillashtirish. O‘quv qo‘llanma, Xalilov M. Toshkent-2015.

8. Xizmat jangovar faoliyatni tashkillashtirish. O‘quv qo‘llanma, Kilichov N. Toshkent-2014.

9. Приказ МО РУ № 515 от 05.07.2013 г. “Об утверждении и ведении в действие Положения об организации исполнения и контроля за реализацией руководящих документов в ЦА МО, объединениях, соединениях, частях и учреждениях МО РУ”. 10. Приказ МО РУ № Н10 от 22.04.1999 г. “О введение в действие Наставление по защите государственных секретов в ВС РУ”.

QO‘RIQLANADIGAN OBYEKTLAR XAVFSIZLIGINI AVTONOM DRONLARNI QO‘LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Shukurov Shoxrux Abdulazizovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda dronlardan foydalanish masalalari, qo‘riqlash faoliyati, videokuzatuv vositalari, videokuzatuv kameralarining o‘rnatilishi bo‘yicha statistik tahlillar va obyektlarni qo‘riqlashda dronlardan foydalanish masalalari bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, qo‘riqlash faoliyati, jamoat xavfsizligi, qo‘riqlanadigan obyekt, uchuvchisiz uchish apparatlari.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan **“Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta’minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-4060 sonli qarorida mamlakatimizda faoliyat yurtitib kelayotgan o‘ta muhim, toifalangan obyektlarning hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini ishonchli qo‘riqlanish vazifasi belgilangan. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi tomonidan hududlarda patrullikni hamda toifalangan obyektlar, tashkilotlar va fuqarolar xonadonlarini qo‘riqlanishi olib borilmoqda. Obyektlarning daxlsizligini ta’minlashda qo‘riqlash xizmati tomonidan innovatsion texnologiyalar va texnikalarni qo‘llanishi faoliyatning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Qo‘riqlash bo‘linmasiga tegishli ayrim tushunchalarni keltirib o‘tsak:

Qo‘riqlash faoliyati — qo‘riqlanadigan obyektlarni himoya qilish, shuningdek, yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan obyektlarida nazorat-o‘tkazish va obyektning ichki rejimlarini ta’minlash bo‘yicha faoliyatdir.

Qo‘riqlanadigan obyekt — belgilangan tartibda qo‘riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablag‘lari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxs.

Obyektlar qo‘riqlash xizmatini tashkil etish quyidagi omillarga bog‘liq:

qo‘riqlanayotgan hudud maydoni;

hudud relefi va boshqa obyektlarga nisbatan joylashuvi;

obyektlarning hudud bo‘ylab joylashuvi;

o‘ta muhim va toifalangan obyektlarni himoyalanganligi;

obyektni texnik qo‘riqlash videokuzatuv vositalari bilan jihozlanganligi;

shaxsiy tarkibning soni va texnik vositalar bilan ta’minlanishi;

obyektning muhandislik qurilmalari holati;

obyektning jismoniy qo‘riqlash kuchlarining tarkibi va tayyorlanganlik darajasini;

yordamchi kuchlarning joylashishi va sonini;

obyektning elektr oziqlanishi tarmoqlarining holati va boshqalar.

Aynan bizning mamlakatimizda ham qo‘riqlash bo‘linmalari o‘zining xizmat faoliyatini yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda tashkil etishi hech kimga sir emas. Barchamizga ma’lumki, dunyodagi barcha mamlakatlar qo‘riqlash xizmatini asosan muhandislik-texnik qo‘riqlov vositalarini jismoniy qo‘riqlovga yordamchi vosita sifatida qo‘llashadi. Ushbu vositalar ya’ni muhandislik-texnik qo‘riqlov vositalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

aniqlovchi va xabar beruvchi vositalar;

qo‘riqlash yong‘in signalizatsiya vositalari;

videokuzatuv vositalari va boshqalar.

Mazkur vositalar orasida dunyo texnika bozorini shiddat bilan zabt etib borayotgan vositalar qatorida shubhasiz videokuzatuv tizimlari ham o‘zining alohida ahamiyatiga ega. Ushbu tizimlar mamlakatimiz qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan ham keng va samarali qo‘llanilib kelinmoqda. Albatta ta’kidlash joizki, aniqlovchi va xabar beruvchi vositalar, yong‘in signalizatsiya vositalari ham obyektlar ishonchli qo‘riqlanishiga o‘zining samarali hissasini qo‘shib kelmoqda. Demak videokuzatuv vositalari haqida ayrim ma’lumotlarni diqqatingizga havola etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

VPN asoschisi **“Surfshark”** kompaniyasi tomonidan berilgan tahliliy ma’lumotga ko‘ra, 2021-yil oxiriga kelib, dunyo bo‘yicha milliarddan ortiq videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan bo‘lib, har 7 nafar insonga 1 dona videokuzatuv kamerasi to‘g‘ri kelishi ta’kidlangan. Xususan, dunyo bo‘yicha eng ko‘p videokuzatuv kameralari bilan jihozlangan mamlakatlar etib, Xitoy va AQSh e’tirof etilgan. Mazkur mamlakatlarda 4,1-4,6 kishiga 1 dona videokuzatuv kamerasi to‘g‘ri keladi. Lekin dunyoning boshqa mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich ancha kamligi bois har 7 nafar insonga 1 dona videokuzatuv kamerasi to‘g‘ri kelishi statistika qilingan. Eng ko‘p videokuzatuv kameralari bilan Xitoyning Pekin shahri jihozlangan. Mazkur shaharda 1,15 milliondan

ortiq videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan. Videokuzatuv kameralarini o‘rnatishdagi eng yuqori zichlik esa, Hindistonning Chennay shahriga to‘g‘ri keladi. Ushbu shaharda o‘rnatilgan videokuzatuv kameralarining zichligi 1 km^2 yuzada 657,28 donaga to‘g‘ri keladi. Osiyo mamlakatlaridan keyin ushbu ko‘rsatgich bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Londonga tegishli. Mazkur shaharning videokuzatuv kameralari bilan jihozlanganlik darajasi 1 km^2ga 399,27 donani tashkil etadi.

Yuqorida videokuzatuv vositalarining qanchalik qulay va samarali tizim ekanligining guvohi bo‘ldik. Shuning bilan bir qatorda ushbu vositalardagi asosiy muammo ularning qo‘zg‘almasligidadir. Ya’ni kuzatuv ishlarini belgilangan joyda va belgilangan sarhadda amalga oshiradi. Soddaroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, tartibbuzar belgilangan chegarani buzib o‘tganidan so‘ng, videokuzatuv vositalari o‘rnatilgan joyidan ma’lum masofaga qadar kuzatuvni amalga oshiradi xalos, harakatdagi tartibbuzar esa, mumkin bo‘lmagan hududlarga yetib borgunga qadar kuzatuv ishlari bir muncha qiyinlashib, hatto kuzatuvsiz ham qolishi mumkin.

Ushbu kamchiliklarni to‘ldirish uchun avtomatik boshqaruvga ega dronlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Mazkur vositani tavsiya etishdan oldin qisqacha ma’lumotni e’tiboringizga havola qilamiz.





UUA – masofadan boshqaraladigan yoki avtonom ravishda uchuvchisiz parvoz qiluvchi uchuvchi apparatdir. Bugungi kunda turli vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan propellerli, reaktiv va vint shaklidagi qanotli apparatlar ishlab chiqarilmoqda. Odatda ular quvvatli elektronika, razvedka apparaturalari, xalaqitlardan qudratli ekranlanish bilan jihozlanadi, kichik yoki katta gabarit o‘lchamlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Birinchi UUA sifatida AQShning moliyaviy madadi bilan harbiy muhandis Charlz Ketter tomonidan yaratilgan The Kettering Aerial Torpedo, Kettering Bug deb nomlangan apparatlar bo‘lgan. Ular qanotli bomba sifatida qo‘llanish uchun mo‘ljallangan. Modellar faqat sinovlardan o‘tgan, ammo ommaviy ishlab chiqishgacha ish yetib bormadi.

Bugungi kunda katta qo‘shlarning o‘lchamlaridan oshmaydigan yoki yuqori balandlikgacha uchuvchi katta gabaritli samolyotlargacha UUA ishlab chiqariladi. UUAni ishlab chiqish bo‘yicha jahonda yetakchi mamlakatlardan bo‘lib AQSh, Isroil, Buyuk Britaniya hisoblanadi.

Ushbu turdagi dronlar tartibbuzarlik sodir etilgan vaqtda tashvish signali tushgan hududga avtomatik ravishda borib, real vaqtdagi videoma’lumotlarni uzatish xususiyatiga ega. Bizga esa mazkur vositani qo‘llash qo‘riqlanadigan obyektlarimiz sarhadlarini yanada ishonchliroq himoya qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yurtboshimiz tomonidan barcha sohalarda xususan, qo‘riqlash bo‘linmalari ham xizmat faoliyatini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan amalga oshirishlari vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifalarni ijrosini ta’minlash esa barchamizning burchimizdir. Yuqorida sanab o‘tilgan vositalardan tashqari avtomatik boshqaruvga ega dronlarni qo‘llash obyektlar xavfsizligini yanada yuqori cho‘qqiga olib chiqishi dunyo tajribasida o‘rganib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi 778-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi 647-sonli Qonuni.

Internet sahifalari:

www.lex.uz, dosc.geoscan.aero, gnssplus.ru, aviatest.aero, www.zala.aero, www.ruvsa.com, www.gsm-guard.net, www.uav.ru, www.airwar.ru, www.auvsi.org.

TEXNIK QO‘RIQLASH VIDEOKUZATUV VOSITALARI AXBOROTLARIDAGI SHOVQINLARNI FILTRLASH TAHLILI

E.D.Xursandov[1].,Ye.B.Tashmanov[2]

[1]O‘R Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,

[2]O‘R IIV Malaka oshirish instituti katta o‘qituvchisi, PhD

Hozirgi kunda dunyoda harbiy obyektlarni mudofaa qilish, xavfsizligini ta’minlash va qo‘riqlanuvchi obyektlar videokuzatuv vositalari axborotlarining sifatini oshirish yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Videoaxborotlarga ishlov berishda chiziqli filtrlashning keng qo‘llanilishi tasvirlarni olish, uzatish va qayta aks ettirish jarayonida yuzaga keladigan qator buzilishlarni sezilarli tuzatish imkonini berishiga bog’liq. Bu buzilishlarga, birinchi navbatda, tasvirlar shakllantiriladigan qurilmalarning (uzatish telekameralari, skanerlar, raqamli fotoapparatlarning) nomukammalligi tufayli yuzaga keladigan aperturaviy (diafragma) buzilishlar, shuningdek, suratga olishda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar (obyektivning noto‘g’ri fokuslanishi, harakatlanuvchi obyektlarni suratga olishda yetarli bo‘lmagan qisqa ekspozitsiyalash tufayli tasvirning xiralashishi va boshqalar) kiradi [1].

Nashrlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, filtrlar turlari tarkib yoki ishlash texnologiyasi kabi turli mezonlar bo‘yicha tasniflanmagan. Filtrlash algoritmini yaratish uchun turli mezonlar bo‘yicha filtrlarning yagona tasniflanishini yaratish kerak. Dastlab filtrlarni tasvirdagi ishlash sohalari bo‘yicha tasniflash kerak:

- lokal;
- global.

Agar global filtrlar bir vaqtning o‘zida butun tasvirga to‘liq ta’sir qilsa, lokal filtrlar tasvirning bir qismiga ta’sir qiladi. Filtrning tarkibi filtrlash jarayonining natijasiga bevosita ta’sir qiladi. Bunday holda filtrlar apertura shakli bo‘yicha tasniflanishi kerak:

- kvadrat;

- to‘g‘ri to‘rtburchak;

- markazlashtirilgan chiqishga ega boshqa filtrlar [2].

Shuni tushunish kerakki, aperturaning har qanday shakli uchun filtrning chiqish markaziy element bo‘ladi. Bu hisoblashlarni soddalashtirish va filtrning ishlash sohasidagi markaziy qiymatga piksellarning teng ta’sir etishiga bog‘liq.

Kvadrat va to‘g‘ri burchakli qismlarga bo‘lish filtr oynasi har doim ham gorizontal va vertikal piksellar soniga teng bo‘lmasligi orqali aniqlanadi.

Shakl bilan bir qatorda, filtrlarni tasvir bo‘ylab harakatlanish usuli bo‘yicha tasniflash ham kerak:

- gorizontal;

- vertikal;

- boshqa [3].

niqob shakllarining bir nechta turlari 1-rasmda tasvirlangan, binobarin, ularning barchasi shaklidan qat’iy nazar filtr chiqishi sifatida markaziy elementga ega.



1-rasm. Niqob shakllariga misollar

Bu bo‘lish filtr oynasi tasvirning qaysi satrlari bo‘yicha o‘tishiga bog‘liq. Aperturaning satr bo‘ylab chapdan o‘ngga bir pikselli qadamlar bilan harakatlanishi “klassik usul” hisoblanadi. Bitta satrning oxiriga yetish bilan oyna keyingi satrning boshiga o‘tadi. Skanerlash trayektoriyasi ixtyoriy bo‘lishi mumkin, faqat apertura markazi tasvirning barcha piksellarini skanerlashi talab qilinadi. Keyingi tasniflash oldingi tasniflashlar bilan - filtr tasvirlar chegaralarini tashkil etadigan piksellarda qanday ishlashi bilan o‘zaro bog‘liq. Tasvir chegaralarida ishlash bo‘yicha filtrlarning tasniflanishi quyidagicha:

- “chegaraviy piksellar” bo‘yicha filtrlashni amalga oshirmaslik. Bu usul yakuniy tasvirning yon tomonlarini filtr oynasining radiusini aniqlaydigan piksellar soniga o‘lchamlarga kamayishiga olib keladi;

- tasvir maydondan tashqarida yorqinlik elementlarining aniqlanmagan qiymatlari “chegaraviy piksellar” qiymatlarini takrorlaydi. Bu tasvirning chegaralarida yorqinlikni yo‘qotilishining kamayishiga olib keladi, lekin qo‘shimcha hisoblashlar tufayli filtrlash jarayonini murakkablashtiradi;

- tasvir maydonidan tashqarida yorqinlik elementlarining aniqlanmagan qiymatlari oldindan belgilangan yorqinlik qiymatlarini (doimiy) qabul qiladi. Buning natijasida tasvirning chegaralari tasvirdagi qolgan piksellarning qiymatlariga nisbatan juda katta yoki kichik bo‘lishi mumkin [4].

Chiziqli filtrlash tipografik reproduksiyalarni skanerlash natijasida olingan tasvirlarda rastr tuzilmasining sezilishini kamaytirish uchun ishlatiladi. Chiziqli filtrlash tasvirlarni fazoviy diskretlashtirishda paydo bo‘ladigan yon spektrlarni qoplanishiga bog‘liq halaqitlarni kamaytirish uchun ham qo‘llaniladi. Bu shu yerda ko‘rib chiqilgan fazoviy diskretlashtirishning halaqitlarini kuchsizlantirish usuliga va tasvir kompyuterga kiritilganda tasvir fazoviy spektrining cheklanishiga olib keladigan oddiygina filtrlash usuliga ham tegishli bo‘ladi. Bundan tashqari, chiziqli filtrlashdan foydalanish interpolyatsiyalash xatoliklarini, ya’ni tasvirlarni qayta aks ettirishda, masalan, ularni chop etishda rastr tuzilmasining sezilishini kamaytirishga imkon beradi. Ma’lum chegaralarda chiziqli filtrlash orqali fluktuatsion shovqinning sezilishini, shuningdek, qayta aks ettiriladigan tasvirlardagi boshqa nuqsonlarni kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Борискевич А.А. Цифровая обработка речи и изображений. – Минск, 2007. – 124с.

2. Гонсалес Р., Вудс Р. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2005. – 1072 с.

3. Дворкович А.В., Дворкович В.П. Цифровые видеоинформационные системы (теория и практика). – М.: Техносфера, 2012.

4. Джакониа В.Е. Телевидение. - М.:Горячая линия – Телеком, 2007. – 618 с.

ADAPTIV UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINING OBYEKTLARNI QO‘RIQLASH SOHASIDA QO‘LLANILISHINING ISTIQBOLLARI

Shoxrux Abdulazizovich Shukurov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o‘qituvchisi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha say-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni tahlil etarkanmiz obyektlarni qo‘riqlash, ularning daxlsizligini ta’minlash, unda saqlanayotgan moddiy tovar boyliklarning xavfsizligi uchun javobgarlik davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining **“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”**gi O‘RQ-778 qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Davlat bojxona qo‘mitasining hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy tuzilmalarning tegishli bo‘linmalari davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari hisoblanadi.

Yuqoridagi bo‘linmalarning qo‘riqlash tizimiga nazar soladigan bo‘lsak, qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizligini asosan qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari orqali amalga oshirishining guvohi bo‘lamiz. Boshqacharoq qilib aytadigan bo‘lsak, obyekt qo‘riqlash asoslarini muhandilsik va texnik qo‘riqlash vositalarining majmuasi tashkil etadi.

Qo‘riqlashning muhandislik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan mexanik jihatdan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan qurilmalar va inshootlar.

Qo‘riqlashning texnik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan himoya qilish uchun foydalaniladigan, mustaqil vazifalarni bajaradigan, konstruktiv jihatdan yakunlangan qurilmalar.

Hozirgi texnologiyalar rivojlanib borayotgan zamonda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda xorijiy mamlakatlarning tajribasini tahlil qilib, rivojlangan mamlakatlar ko‘plab yutuqlarga erishganini kuzatishimiz mumkin. Ularning boy tajribasidan foydalanish, o‘zimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo‘nalishlarda so‘ngi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ko‘plab izlanish va tahlillar dunyo mamlakatlari jamoat tartibini saqlash, obyektlarni qo‘riqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, mudofaa va boshqa mamlakatning ustuvor yo‘nalishlari sanaladigan sohalarda, hattoki tirbandliklarni oldini olishda uchuvchisiz uchish apparatlari, ya’ni dronlardan foydalanib kelayotganliklarining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Tarixga nazar

Uchuvchisiz uchish apparatlari (dron, kopter) deb – uchish kemasi bortida komandirsiz uchishni amalga oshiradigan va to‘laligicha masofadan - yerdan turib yoki boshqa havo kemasi bortidan, kosmosdan boshqariladigan yoki dasturlashtirilgan va to‘liq avtonom bo‘lgan uchuvchisiz uchish kemasiga aytiladi.

Ilk dron tarixi eng ko‘zga ko‘ringan aviatsiya kashfiyotaridan biri Nikolay Kifer nomi bilan chambarchas bog‘liq. 1917 yil Kifer dastlabki uchuvchisiz boshqariladigan apparatni yaratib, “Kettering Bug” deb nomladi.

Ushbu inqilobiy mashina o‘zi uchar qurilmalarning birinchi turi hisoblanib, uchuvchisiz tizimlar rivojlanishiga zamin yaratdi. Tashqi tomondan uzunligi taxminan 5 metrlik kichik samolyotga o‘xshash, to‘rt metall g‘ildirak va ichki yonuv dvigateli bilan ishlaydigan parrak bilan jihozlangan bu matoh kichik hajmli o‘q-dori olib yura olar, radio orqali boshqarilardi. Mazkur dron soatiga taxminan 120 kilometr tezlikka erisha olgan. Shu tariqa Kifer Bitl zamonaviy uchuvchisiz samolyotgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

Birinchi marta dronlar fuqarolik xizmatida 2013-yilda Amazon kompaniyasi tomonidan iste’molchilar tovarlarini yetkazib berish uchun qo‘llanila boshlangan.

Drondan qaysi sohalarda foydalaniladi va u qanday ishlaydi?

So‘nggi bir necha yil ichida dronlar fuqarolik aviatsiyasiga tobora ko‘proq joriy etilmoqda, havodan surat va video olish uchun ishlatilmoqda. Bu turli maqsadda, jumladan reklama, ko‘chmas mulk va turizm uchun havodan yuqori sifatli tasvir olish imkonini beradi. Dron yukni yetkazib berishda ham beminnat xizmatchi, ya’ni logistika vaqti va xarajatini kamaytiradi. Amazon dronlari bunga yaqqol misol.

Qishloq xo‘jaligida ham tengi yo‘q texnikaga aylanayotgan dronlar dalaning holatini, hosildorlikni va sug‘orish darajasini kuzatish, baholash orqali fermerga tuproqni o‘g‘itlash, dori purkash va ekinni boshqarish bo‘yicha qulay qaror qabul qilish imkonini beradi. Tabiiyki, ayni usul ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va atrof-muhitga zararni kamaytiradi. Bunday qurilmalar Agrodronlar, deb ham yuritiladi.

Sanoatda zamonaviy dron qurilish maydonchasini tekshirish, elektr stansiyasiga texnik xizmat koʻrsatish, kon qidirish kabi murakkab vazifalarni bajaryapti. Natijada texnik xizmat koʻrsatish xarajati kamayib, ishchilar xavfsizligi ta’minlanyapti.

Dronlar yetkazib berish vaqtini qisqartirish va xodimlar hamda yonilgʻi xarajatini kamaytirish maqsadida yuk va pochta joʻnatmalarini tashishda ham keng qoʻllanmoqda.

Tibbiyotda dron tabiiy ofat sodir boʻlgan joyga dori vositalari va asbob-anjom yetkazib berish, transplantatsiya uchun organlar tashishda ishlatiladi. Tabiiyki, endilikda yetkazib berish vaqti qisqarib, bemor hayotini asrab qolish imkoni oshgan.

Dronning ishlash tamoyili sensorli tizim, avtomatik boshqaruv va dasturiy ta’minot kombinatsiyasiga asoslangan. Kamera, radar, lidar, navigatsiya tizimi kabi sensorlar atrof-muhit va avtomobilning joylashuvi haqida axborot toʻplaydi.

Dronni boshqarish prinsipi va usuli aniq maqsadga qarab farqlanishi mumkin. Ba’zi dronlar butunlay avtonom harakat qiladi va inson aralashuvisiz oʻz-oʻzidan vazifani bajarishga qodir. Ayrimlari masofadan, yerdagi operator boshqaruv pulti yoki kompyuter interfeysi yordamida boshqariladi. Koʻpgina zamonaviy samolyotlar ham fuqarolik, ham harbiy operator tomonidan boshqarilishi, mustaqil ravishda uchishi mumkin.

Kuzatuvchilar dronning harbiy maqsadda qoʻllanishida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni koʻrmoqda. Asosiy afzallik, shubhasiz, xavfsizlik. Ya’ni, qurilma ichida odam boʻlmaydi, insonlar hayoti saqlab qolinadi, harbiylar xizmatchilarning nobud boʻlishi kamayadi. Dron havoda uzoq muddatli missiyani bajarish, uzoq masofada yoki uzoq vaqt davomida kuzatuv, razvedka yoki boshqa vazifani ado etish imkonini beradi. Bundan tashqari dron har doim belgilangan dastur boʻyicha uchadi, qurol ishlatish yoki ishlatmaslik boʻyicha toʻgʻridan-toʻgʻri buyruqni buzish ehtimoli yoʻq.

Salbiy tomoni esa maxfiylik muammosi. Dron harbiy kuchlarga shaxsiy daxlsizlikni buzish, ma’lumotdan notoʻgʻri foydalanish boʻyicha xizmat qilishi ham mumkin. Qonunlar, harbiy maxfiylik meyorlarga rioya qilinishini ta’minlash uchun qat’iy qoida va protokollarga ehtiyoj bor.

Dronlarga nisbatan xakerlik hujumi uyushtirilishi yoki elektron urush uskunasidan foydalanilishi ehtimoli juda yuqori. Natijada dronlar ustidan nazorat yo‘qoladi. Nazoratdan chiqqan apparat qurilmani uchirgan tomonga xavf tug‘dirishi, operator manfaatiga qarshi ishlashi ham mumkin.

Xullas, ayni paytda faol rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan dronlardan foydalanish yanada keng ko‘lam, rang-baranglik kasb etmoqda. Binobarin, bunday qurilmalarning imkoniyati vaqt o‘tgan sayin yana ortib boraveradi. Ayni maqsadlar mamlakatlar uchun harbiy sanoatga, jumladan jangovar dronlar yaratishga yangi-yangi investitsiya jalb qilishni taqozo etmoqda. Nima bo‘lganda ham, taraqqiyotni to‘xtatishning iloji yo‘q. Bu sohada hali yangilik ko‘p qilinadi. Faqat umid shuki, bunday texnika vositalari insoniyatning tinch, yaratuvchanlik maqsadiga xizmat qilsin, aslo mash’um urush ramziga aylanmasin.

Xulosa qilib aytganda, uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish xavfli hududlarni nazorat qilish, boshqaruv organlari oldida turgan vazifalarni bajarishni jiddiy osonlashtiradi, yerdan turib asosiy vazifasi xavfli hududlarni video kamera yordamida kuzatishni ancha foydali taraflarini oqilona foydalanish monitoring qilish, Dron yordamida tog‘li hududlarga, obyektlar (temiryo‘llar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va boshqalar)ni amalga oshirishda va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik imkonini yaratishni soddalashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi 778-sonli Qonuni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 03/22/778/0525-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi. “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27 sonli Farmoni.

3. Z.D. Oxunov., I.Y. Abdullaev. “Fotogrammetriya O‘quv qo‘llanma. T., Cho‘lpon. 2007.

4. И. Обиралов, А.Н.Лимонов, Л.А.Гаврилова, “Фотограмметрия и дистансионное зондирование Учебник. М. Колос, 2006.-334 с.

5. Шевсов Максим Викторович Система мониторинга пожарной и медико-экологической безопасности с использованием анализа видеоданных с беспилотных летательных аппаратов тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 04.10.06, кандидат наук Москва – 2022 г.

6. Муслимов Тагир Забирович Методы и алгоритмы группового управлениуа беспилотными летательными аппаратами самолетного типа тема диссертатсии и автореферата по ВАК РФ 05.13.01, кандидат наук Уфа – 2020 г.

7. В. К. Никишев БПЛА – беспилотный летательный аппарат. Книга 1,2,3. Чебоксар 2020 г УДК 004.92(076.5).

8. Elektron manba: www.wired.com/2012/01/drone-report.

9. Elektron manba: http /www. GIS.ru.

10. Elektron manba: http://fablab-15.ru/dji-phantom-4.

11. Elektron manba: https://uza.uz/oz/posts/dronlar-davri_496054.

12. Elektron manba: https://www.prpchannel.com/uz/sottomarino-poseidon.

QO‘RIQLOVCHI VIDEOKUZATUV TIZIMLARIDA MIJOZ-SERVER ARXITEKTURASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tashmanov Ye.B.

O‘R IIV akademiyasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Hozirgi kunda harbiy obyektlarni terrorchilik, ekstremistik, jinoiy yoki boshqa maqsadlarni ko‘zlovchi qurolli guruhlar ta’siridan ishonchli himoyalashda videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish va ishlatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan harbiy obyektlarning hudud perimetridagi videokuzatuv vositalari axborotlarini joriy vaqt

rejimida uzatish dolzarb hisoblanmoqda.

Joriy vaqt rejimida videoaxborotlarni uzatish tizimlarini ishlab chiqishda asosiy e’tibor videooqimlarga ishlov berish usullari va mijoz qismining dasturiy ta’minotini ulanish arxitekturasini optimallashtirishga qaratiladi.

Uzatilayotgan videoaxborotlarning tez o‘sib borayotgan hajmlarini uzatish uchun aloqa kanallari o‘tkazish qobiliyatining yetarli emasligi ularni uzatishning yangi optimal usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ko‘p foydalanuvchili videokuzatuv tizimlarida bir nechta bir xil videoaxborotlari bir vaqtning o‘zida aloqa seansining barcha ishtirokchilari o‘rtasida uzatilishi kerak, bu oqimlar hajmini va serverga yuklamani nochiziqli oshiradi [1].

Bu kamchiliklarga qo‘shimcha ravishda, yirik tizimlarda foydalanish uchun dasturiy ta’minotlarni joylashtirish muammosi mavjud. Bu muammo barcha mavjud dasturiy ta’minotlar to‘liq dasturiy mahsulot bo‘lganligi va uchinchi tomon tizimlariga integratsiyalash uchun funksionallikka ega emasligi bilan bog‘liq.

Deyarli istalgan axborot tizimida tizimga kiradigan qurilmalar turli huquqlarga ega va ular uchun turli xil vazifalar qo‘yilgan. Ba’zilar protsessorlar, videoaxborotlar bazalari, fayllarni saqlash va boshqalar kabi hisoblash va apparatlar resurslariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqiga ega, boshqalari esa faqat bunday resurslarga (resurs mijozlariga) ulanish imkoniyatiga ega. Resurslarni boshqaradigan qurilma yoki dasturiy ta’minot bu resurs serveri deb ataladi. Shu bilan bir vaqtda ma’lum bir resursning mijozi va serveri ham bitta qurilma yoki tizimda, ham turli qurilmalarda joylashishi mumkin [2].

“Mijoz-server” arxitekturasi deganda serverlar, xizmatlar (xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar) va mijozlar taqdim etilgan tarmoqdagi o‘zaro ta’sirlashishni tashkil etishning asosiy usullari va prinsiplari tushuniladi. “Mijoz-server” texnologiyalari esa bunday “mijoz-server” arxitekturasining amaliy bajarilishi hisoblanadi.

Server to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat o‘z resurslaridan foydalangan holda mijozlar so‘rovlariga to‘liq ishlov beradigan bunday mijoz-server tizimlarida u odatda ikki bo‘g‘inli mijoz-server arxitekturasi deb ataladi.

Bu shuni anglatadiki, tashqi tarmoq xizmatlaridan foydalanilmaydi va server barcha so‘rovlarni o‘zi bajaradi (1-rasm).

Ikki bo‘g‘inli arxitektura mijoz-server o‘zaro ta’sirlashish elementlari uchun eng keng tarqalgani hisoblanadi.



1-rasm. Ikki bo‘g‘inli mijoz-server arxitekturasi

Mijoz va server, ya’ni ikkita tugun o‘rtasida uchta asosiy komponentlar joylashtiriladi, bundan arxitekturaning nomi kelib chiqadi. Ularning bo‘g‘inlar orasidagi joylashuvi ikki bo‘g‘inli arxitekturada o‘zaro ta’sirlashishning asosiy modellarini aniqlaydi.

Mijoz-server texnologiyalaridagi yangi intilishlar dasturiy ta’minotlar serveri modeli asosida amalga oshiriladigan hisoblash imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan. Tarmoq dasturiy ta’minoti bir nechta bo‘g‘inlar orasida taqsimlanadi. Bunday holda uch bo‘g‘inli mijoz-server arxitekturasiga ega bo‘lamiz.

Uchinchi tugun dasturiy ta’minotlar serveri bo‘lib, komponentlarning taqsimlanishi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Videoaxborotlar bazasi serveri so‘ralgan videoaxborotlarni taqdim etish orqali resurslarni boshqarish funksiyasini bajaradi.



2-rasm. Uch bo‘g‘inli mijoz-server arxitekturasi

O‘xshash tarzda yordamchi serverlarni qo‘shish orqali uch bo‘g‘inli arxitekturani *n* bo‘g‘inli arxitekturaga kengaytirish bilan ko‘p bo‘g‘inli arxitekturani olish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Ko‘p bo‘g‘inli mijoz-server arxitekturasi

Ikki bo‘g‘inli arxitekturada barcha kirish so‘rovlariga bitta server xizmat ko‘rsatadi va shu sababli ishonchlilik past bo‘ladi, unumdorlikka talablar esa uch bo‘g‘inli arxitekturaga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Aksincha, uch bo‘g‘inli arxitektura ancha murakkab, lekin asosiy funksiyalar turli darajalar serverlari o‘rtasida taqsimlanganligi sababli, bu arxitektura qator afzalliklarga ega. Birinchi navbatda, bu katta darajada moslashuvchanlik va masshtablanuvchanlikni beradi. Ikkinchidan, har bir daraja alohida aniqlanishi hisobiga xavfsizlik darajasi yuqori va turli serverlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash tufayli yuqori unumdorlikka ega bo‘ladi [3].

Veb-serverlar, dasturiy ta’minotlar serverlari, videoaxborotlar bazasi serverlari, fayllar serverlari mijoz-server arxitekturasidan foydalanadigan ko‘p sonli tarmoq xizmatlarining eng keng tarqalgani hisoblanadi. Mijozlar bunday tarmoq xizmatlariga ulanish va ulardan foydalanishni ta’minlash uchun ishlatiladi. Ularning qobiliyatlari mijozning dasturiy va apparatlar konfiguratsiyasini aniqlaydigan “qalinlik” tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Yupqa mijozli hisoblash arxitekturasida ilovalarga ishlov berish mijoz lokal mashinasida/makonida emas, balki olisdagi serverda amalga oshiriladi. Foydalanuvchi kiritgan videoaxborotlar serverga,

vizuallashtirilgan tasvirlar esa foydalanuvchi qurilmasiga jo‘natiladi. Yupqa mijoz texnologiyasi bilan hisoblashlar umumiy tizim narxini kamaytiradigan hisoblash xizmatlariga soddalashtirilgan texnik xizmat ko‘rsatishni taqdim etadi. Bunday yondashuvda mijoz tarmoq ilovasini ma’lum bir interfeys orqali ishga tushirishi uchun minimal apparatlar va dasturiy resurslariga ega bo‘lish yetarli bo‘ladi va mijoz interfeysining barcha dastur mantig‘i serverda bajariladi [4].

Mijoz-server arxitekturasida qalin mijoz deganda serverdan qat’iy nazar, mijozning avtonom va to‘liq ishlashi uchun barcha kerakli dasturiy muhitni ta’minlaydigan mashina (ishchi stansiya, personal kompyuter va boshqalar) tushuniladi. Bunday texnologiyada serverning tarmoq resurslariga doimiy ulanish zarurati yo‘q va “qalin” mijoz asosan qo‘shimcha xizmatlar va servislarni so‘raydi. “Qalin” mijoz deganda ham mustaqil operatsion tizimga ega mijoz mashinasi, ham lokal operatsion tizimda ishlaydigan tarmoq ilovasi ko‘zda tutiladi. Bunday holda, videoaxborotlarni taqdim etish komponenti (operatsion tizim grafik foydalanuvchi interfeysi) va amaliy komponent birlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Павлов М.С. Реализация сервера для установления соединения и непрерывного обмена между парами компьютер-мобильное устройство // Молодежный научно-технический вестник. 2014. № 10. С. 18.

2. Ричардсон Ян. Видеокодирование. H. 264 и MPEG-4 – стандарты нового поколения // Техносфера. Москва– 2005 С. – 368.

3. Mambetsharipov Yu.R., Saidboyev B.Dj., Kamilov M.A. Videokuzatuv tizimining mijoz va server qismlari orasidagi o‘zaro ta’sirlashish algoritmlari // «Harbiy aloqa va AKT xabarlari» jurnali, №2(10)/2022. –44-50 b.

4. Ye.B.Tashmanov, O.A.Shaymatov Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi videokuzatuv vositalari axborotlarini uzatish usullari // O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi “Yong‘in-portlash xavfsizligi” ilmiy-amaliy elektron jurnali. 2023 yil № 3 (12), 240-244 b.

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARI VA ULARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING QONUNCHILIGI

Shukurov Shoxrux Abdulazizovich
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra o‘qituvchisi

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida qator ustuvor vazifalar qo‘yilgan.[21] Ushbu ustuvor vazifalardan biri mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish hisoblanadi. Davlat chegaralari xavfsizligi, mamlakatimiz fuqarolarining mol-mulkini qo‘riqlash ularni tajovuzlardan himoya qilish, shuningdek boshqa tahdidlardan himoya qilish uchun qator ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

So‘nggi yillarda Respublikamizda davlat obyektlari, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni samarali qo‘riqlashni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini ishonchli himoya qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yaqin sharq va arab mamlakatlaridagi muammolar, Yevropa mamlakatlaridagi siyosiy kelishmovchilik va ommaviy tartibsizliklar natijasida ko‘plab fuqarolar nobud bo‘layotganligining guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Mazkur qurolli to‘qnashuvlarning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, ularda asosiy vosita sifatida qo‘lbola portlovchi moddalar, turli yong‘in keltiruvchi kimyoviy aralashmalardan foydalanilganligini

[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son farmoni.

ko‘ramiz. Lekin so‘nggi besh yillikda dunyo texnika bozorini shubhasiz uchuvchisiz uchish apparatlari egallab borayotganligi hech birimizga sir emas. Oddiy o‘yinchoqlardan tortib, katta hajm va og‘irlikdagi yuklargacha ko‘tara olish, hattoki ko‘plab jangovar vazifalarni bajara olish imkoniyatlarini o‘zida jamlagan ushbu vositalarni turli manbalarda turli so‘zlar bilan ta’riflanganligiga duch kelamiz.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko‘ra, ushbu vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan:

Uchuvchisiz uchadigan apparat — uchuvchisiz parvozni amalga oshiradigan yoki to‘liq boshqa joydan masofadan turib boshqariladigan yoxud dasturlashtirilgan va parvozda to‘liq mustaqil bo‘lgan havo kemasi (samolyot modellari bundan mustasno).[22]Demak uchuvchisiz uchish apparatlarining asosiy xususiyati bu to‘liq inson omilisiz yoki qisman insonning ishtiroki asosida mazkur vositaning masofadan turib boshqarilishida ekanligini tushunishimiz murakkab emas. Ushbu vositalarning foydalanish sohalari kundan-kunga kengayib borganligi sababli, bu vositalardan foydalanishdan oldin ularning huquqiy maqomini tartibga solishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi.

Dunyo mamlakatlarining qonunchiligiga nazar soladigan bo‘lsak, deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vositalardan foydalanish tartibga solinganligining guvohi bo‘lamiz. Mazkur maqolada ayrim xorijiy mamlakatlarning uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchiligini tahlil etamiz. Bundan oldin uchuvchisiz uchish apparatlarini tartibga solish va boshqa ayrim tushunchalar bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari(UUA)ni tartibga solish xavfsizlik talablarini, uchuvchisiz uchish apparatlarining xavfsiz parvozi qoidalarini belgilash va qoidabuzarlarga qarshi choralar ko‘rishni o‘z ichiga oladi.

Taqiqlangan hudud — davlatning hududi yoki hududiy suvlari ustida belgilangan kattalikdagi va chegaralarida havo kemalarining maxsus ruxsatnomalar olmasdan parvoz qilishi taqiqlangan havo hududi.

[22] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 20229yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-son qarori.

Taqiqlangan hududlar havo hududida muhim davlat obyektlari, muhim ahamiyatga ega komplekslarni (atom elektr stansiyasi, kimyoviy jihatdan xavfli obyektlar, shuningdek, mamlakatning milliy xavfsizligi nuqtai nazardan o‘ta muhim bo‘lgan boshqa obyektlar) havo hududidagi ehtimoliy hodisalar natijasida ro‘y beradigan zararli ta’sir va vayronagarchiliklardan muhofaza qilish uchun belgilanadi.

Xavfli hudud — hududida ma’lum vaqt davomida havo kemalari parvozi uchun xavf tug‘diruvchi faoliyat olib borilishi mumkin bo‘lgan belgilangan o‘lchamlardagi havo kengligi.

Uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni tartibga solish maqsadida dunyodagi ko‘plab katta tashkilotlar ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu sohaning tijoratchilari dastavval ishlab chiqilishi rejalashtirilgan va amalga oshgan uchish apparatlarini sertifikatsiyalash, ya’ni xavfsizlik talablari doirasida ma’lum standartlarga keltirish bo‘yicha muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi.

2011-yilda BMTning “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi” tashkiloti uchuvchisiz uchish apparatlari xavfsizlikning talablariga hamda hukumat qonunlariga rioya qilishi kerakligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi.

2014-yilda Yevropa Ittifoqi fuqarolik uchuvchisiz uchish apparatlarining afzalliklari va kelajakda keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganib chiqib, uchuvchisiz uchish apparatlarining inson xavfsizligiga ta’sirini nazorat qilish uchun bir qator qoidalarni taklif qildi.

2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaro aviatsiyasi bo‘limi uchuvchisiz havo vositalaridan xavfsiz foydalanish bo‘yicha global qoidalarni ishlab chiqish bo‘yicha maslahat guruhini tashkil etilgan. Ushbu guruhga AQSH, Fransiya va Xitoy kabi davlatlar hamda global uchuvchilar uyushmasi kabi sanoat tashkilotlaridan vakillar jalb etilgan. Shu tariqa dunyo mamlakatlari UUA keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavflar va ularning afzalliklarini hisobga olib, o‘zining milliy qonunchiligini ishlab chiqdi. Biz quyida ayrim mamlakatlarning qonunchiligiga asosan, ushbu vositalardan noqonuniy foydalanganlik uchun qanday jazo choralari qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz:

Fransiya. Ushbu mamlakatda atom elektr stansiyalari ustidan uchish noqonuniy hisoblanadi. Agar samolyot AESdan gorizontal ravishda 5 km yoki vertikal ravishda 1 km masofada kelsa, bir yillik qamoq jazosi va 75 000 yevro jarimaga tortiladi.

Hindiston. Hindistonga har qanday radioboshqariluvchi uskunasini, shu jumladan dronlarni import qilish uchun maxsus ruxsatini talab qiladi. Og‘irligi 2 kg dan ortiq bo‘lgan uchuvchisiz uchish apparatlari uchun Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlaridan uchish ruxsatnomasi talab qilinadi, shuningdek, kamida 18 yoshga to‘lgan va “Uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarishga tayyorlash” kurslarini tamomlagan shaxslarga ruxsat etiladi.

Indoneziya. Indoneziya Transport vazirligining Fuqarolik aviatsiyasi bosh boshqarmasi uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni 2015-yilda ishlab chiqdi. Qoidaga ko‘ra uchuvchisiz uchish apparatlari 120 metrda yuqori balandlikda aeroportlar va boshqa taqiqlangan hududlarda parvoz etishi taqiqlangan. 120 m dan yuqori parvozlar uchun Fuqarolik aviatsiyasi bosh boshqarmasining yozma ruxsati talab qilinadi. Bundan tashqari, tasvirga olish uskunalari bilan jihozlangan uchuvchisiz uchish apparatlari cheklangan yoki taqiqlangan hudud chegarasidan 500 metr masofada ucha olmasligi, dron tasvirga olish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, operator mahalliy hukumatning yozma ruxsatiga ega bo‘lishi kerak.

Eron. Ushbu mamlakatda 2023-yil may oyidan boshlab Uchuvchisiz uchish apparatlarining importi taqiqlangan. Ayrim viloyatlar, xususan Mozandaronda uchuvchisiz uchish apparatlarining parvozi taqiqlangan. Tehrondagi ruxsatnomalar Islom inqilobi qo‘riqchilari korpusi bazasi tomonidan beriladi. Barcha uchuvchisiz uchish apparatlari havo hujumidan mudofaa maqsadida ro‘yxatga olingan. Kish orolida uchuvchisiz uchish apparatlari orqali pochta yetkazib berish mumkin. Buning uchun 18 ming dron mavjud.

Amerika Qo‘shma Shtatlari. AQSh Federal Aviatsiya boshqarmasi og‘irligi 55 funt(24,95kg)dan kam bo‘lgan aviatsiya tizimlarini tavsiflash uchun kichik bortida parvoz ekipaji bo‘lmagan uchuvchisiz samolyotlar tizimi tushunchasini qabul qilgan. Og‘irligi 250 grammdan ortiq bo‘lgan,

har qanday maqsadda uchadigan barcha uchuvchisiz apparatlar Federal aviatsiya administratsiyasida ro‘yxatga olinishi kerak. 2012-yilda AQSh Kongressi Federal aviatsiya administratsiyasiga uchuvchisiz havo vositalarini tijorat havo hududiga kiritish rejasini ishlab chiqishni talab qiladigan qonun loyihasini qabul qildi. Keyinchalik FAA Fuqarolik uchuvchisiz uchish tizimlarini Milliy havo kosmos tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasini e’lon qilgan.

Singapur. Ushbu mamlakatda ham uchuvchisiz uchish apparatlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun 2015-yilda qonunchilik ishlab chiqilgan. 7 kgdan ortiq, hamda aerodromlardan 5 km radiusda ushbu vositalardan foydalanish uchun ruxsatnoma talab qilinadi. Singapur fuqaro aviatsiyasi boshqarmasining veb-saytida taqiqlangan hududlar, xavfli va cheklash hududlari, aeroport yoki aviabazaga 5 km masofada joylashgan hududlar shuningdek, muhofaza qilinadigan hududlarni belgilovchi xarita taqdim etilgan. Ushbu vositalardan tadqiqot maqsadlarida foydalanayotgan shaxslardan ruxsatnoma talab etilmaydi. Qonunchilikdagi ayrim holatlar bundan mustasno. Bularga asosan 7 kgdan og‘ir, uchish balandligi 200 fut (60,96 m), aerodrom va taqiqlangan hududlarning 5 kmdan yaqin hududlarda parvoz amalga oshirilishida ruxsatnomalarning turli sinflari talab qilinadi.[23]

Yuqorida biz bir qancha mamlakatlarning qonunchiligi, ularning ayrim afzallik va kamchiliklari bo‘yicha qisqacha ma’lumotlarni keltirdik. Bizning mamlakatimizda ham uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, ular bilan turli maqsadlarda ishlar olib borish qonunchilik asosida tartibga solingan.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, – uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;

b) shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalanib;

[23]https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.1de9ea90-654cd887-78d1240a-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Regulation_of_unmanned_aerial_vehicles

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;

g) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, – uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar odam o‘lishiga sabab bo‘lsa, – besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) odamlar o‘limiga;

b) halokatga;

v) boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, – sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o‘z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.[24]

Xulosa o‘rnida mamlakatimiz qonunchiligiga ham mana shu zamonaviy texnik vositalarning rivojlanib borayotganligini hisobini olib, ayrim o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan ko‘plab dunyo mamlakatlarida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni butunlay cheklash emas, balki ulardan foydalanishni tartibga solish, ma’lum me’yor va talablarga amal qilgan holda, alohida belgilangan zonalarda uchirish ijobiy natija berayotganligini ko‘ramiz. Ayrim xorijiy mamlakatlarda esa mazkur vositalardan foydalanish uchun qizil, sariq, yashil hududlarga bo‘lib parvoz uchastkalarini tashkil etilganligining guvohi bo‘lamiz. Xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganib yurtimizda ham uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni mobil dasturlar yoki ajratilgan uchastkalar orqali qonunchilik asosida tartibga solish taklif etiladi.

[24] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994 yilda qabul qilingan, 01.04.1995 yilda kuchga kirgan. (244[4]-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydagi O‘RQ-534-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son — 2019-yil 4-noyabrdan kuchga kiradi)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi 778-sonli Qonuni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 03/22/778/0525-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27 sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994 yilda qabul qilingan, 01.04.1995 yilda kuchga kirgan. (2444-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydagi O‘RQ-534-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 03/19/534/3046-son — 2019-yil 4-noyabrdan kuchga kiradi).
6. Z.D.Oxunov., I.Y.Abdullaev. “Fotogrammetriya O‘quv qo‘llanma. T., Cho‘lpon. 2007.
7. Elektron manba: www.wired.com/2012/01/drone-report.
8. Elektron manba: http /www. GIS.ru.
9. Elektron manba: http://fablab-15.ru/dji-phantom-4.
10. Elektron manba: https://uza.uz/oz/posts/dronlar-davri_496054.
11. Elektron manba: https://www.prpchannel.com/uz/sottomarino-poseidon.
12. Elektron manba: https//www.wikipedia.org.

YO‘LOVCHI TRANSPORTIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Ye.B.Tashmanov
O‘R IIV akademiyasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Hozirgi kunda yo‘lovchi transportida xavfsizlik tizimini tashkil etishda axborot texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Masalan, videokuzatuv tizimlari, raqamli ma’lumotlarni uzatish kanallari va geopozitsiyalash tizimlari.

Yo‘lovchi transportida xavfsizlik tizimining asosiy masalalarini videokuzatuv tizimi hal qilmoqda. Bunga erishishda transport vositasi ichidagi holatni joriy vaqt rejimida sifatli videomonitoringni amalga oshirish kerak. Ushbu imkoniyat xaydovchi va kuzatuv markazidagi mutaxasisga beriladi. Yo‘lovchilar oqimini videofiksatsiya qilish uchun har bir kirish eshigining qarama-qarshi tomoniga yetti dona TS-121 videokameralar o‘rnatilgan. Bundan tashqari, yo‘lovchilarni to‘liq qamrovga olishda ikki kamera salonning qarama-qarshi burchaklariga, shuningdek, bir kamera avtobusning tashqi tomoniga ko‘chadan kirishni nazorat qilish uchun o‘rnatiladi (1-rasm).



1-rasm. Yo‘lovchi transportiga kameralar o‘rnatish

Yo‘lovchi transportiga o‘rnatilgan videokuzatuv vositalari signallarini uzatish va qayta ishlash jarayonida turli xil shovqinlarga duchor bo‘ladi, bu esa ba’zi hollarda vizual ko‘rish sifatining yomonlashishiga va videooqimlar qismlarining yo‘qolishiga olib keladi[1].

So‘nggi o‘n yilliklarda tasvirlarni raqamli filtrlash nazariyasi va usullari katta rivojlanishga erishdi. Filtrlash algoritmini qurish tasvir va shovqinning ehtimollik modellaridan foydalanishga, shuningdek, turli statistik optimallik mezonlaridan foydalanishga asoslangan. Bularning barchasi turli xil filtrlash usullari va algoritmlarini keltirib chiqaradi.

Ko‘p sonli ishlarga qaramay, ko‘plab muammolar hali universal yechimni olmagan, xususan, mavjud shovqinlarni filtrlash algoritmlari tasvirlarning o‘lchamlari va shovqin mavjud bo‘lgan sohalarga bog‘liq ravishda universal foydalanish va moslashishni istisno qilish bilan shovqinlarning faqat ma’lum turlarini filtrlash imkonini beradi.

Shovqinlarni so‘ndirish vizual qabul qilishni yaxshilashga xizmat qiladi. Raqamli tasvirlarni siqishda ham shovqinlarni so‘ndirish muhim rolni o‘ynaydi. Siqish algoritmlaridagi asosiy muammolardan biri bu tasvirning ma’lum bir sohasidagi lokal shovqinlarni aniqlash hisoblanadi. Siqishda kuchli shovqin tasvir detallari sifatida qabul qilinishi mumkin va bu, birinchidan, siqish nuqtai nazaridan jarayonni murakkablashtirishi va ikkinchidan, siqilgan tasvirning natijaviy sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2].

Shovqinlar bilan kurashishning eng keng tarqalgan usullaridan biri filtrlash hisoblanadi. Tasvirlarni filtrlash deganda ma’lum qoidalarga muvofiq natijasi asl tasvirdan olingan o‘sha bir o‘lchamlardagi tasvirga olib keladigan operatsiya tushuniladi. Odatda, natijaviy tasvirdagi har bir pikselning intensivligi (yorqinligi) asl tasvirdagi uning ma’lum qo‘shnilarida joylashgan piksellarning intensivligiga bog‘liq. Filtrlashni belgilaydigan qoidalar filtrlar deyiladi va ular juda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Shuni ham ta’kidlash kerakki, taklif qilingan ta’rifga ko‘ra, ikki yoki undan ortiq filtrlashning ketma-ket qo‘llanilishidan iborat bo‘lgan operatsiya ham filtrlash hisoblanadi. Shunday qilib, tarkibiy filtrlar oddiy filtrlarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Axborotning ikki o‘lchovliligi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda, tasvirlarni filtrlash uchun tekislikda turli xil konfiguratsiyalardagi aperturalar (niqoblar) bo‘lgan ikki o‘lchovli filtrlar ishlatiladi. Aperturaning har bir elementiga vazn ko‘paytuvchisi deyiladigan son mos keladi [3].

An’anaga ko‘ra, filtrlash filtr aperturasini bir piksel chapdan o‘ngga va yuqoridan pastga siljitish orqali amalga oshiriladi. Aperturaning har bir holatida bir xil turdagi operatsiyalar, ya’ni vazn ko‘paytuvchilarini asl tasvirning mos yorqinlik qiymatlariga ko‘paytirish va olingan natijalarni qo‘shish bilan amalga oshiriladi. Olingan qiymat oldindan belgilangan son-normallashtiruvchi ko‘paytuvchiga bo‘linadi, so‘ngra olingan qiymat aperturaning markaziy elementiga tayinlanadi. Bu filtrning “chiqishi” deyiladi.

Apertura o‘lchami markaziy element bir xil aniqlanadigan tarzda olinadi. Eng keng qo‘llanadigan niqob o‘lchamlari 3x3 va 5x5 hisoblanadi. Lokal filtrlash atamasi apertura o‘lchami asl (filtrlangan) tasvirning o‘lchamidan kichikroq ekanligini bildiradi. Aks holda, filtrlash endi global filtrlash deyiladi. Chiziqli filtrlar oddiy matematik tavsifga ega bo‘lgan filtrlar oilasi hisoblanadi. Shunga qaramay, ular turli xil samaralarga erishishga imkon beradi. Faraz qilaylik, $A(x, y)$ piksellar intensivliklariga ega bo‘lgan yarim tonli (kulrang) tasvirga egamiz. Chiziqli filtr rastrda berilgan va filtr yadrosi deyiladigan haqiqiy qiymatli F funksiya orqali aniqlanadi va diskret chamalangan qo‘shish operatsiyasi yordamida filtrlashning o‘zi amalga oshiriladi [4].

$$B(x, y) = \sum_i \sum_j F(i, j) \cdot A(x + i, y + j).$$

Natijada B tasvir olinadi. Bu formulada qo‘shish chegaralari aniqlanmagan. Har bir pikselning $B(x,y)$ qiymati (x,y) nuqtada markazlashtirilgan N oynada joylashgan A tasvirning piksellari orqali aniqlanadi. N to‘g‘ri burchakli atrofda berilgan filtr yadrosiga $mm \times nn$ matritsa sifatida qaraladi, bu yerda tomonlarning uzunligi toq sonlar hisoblanadi.

Filtrlashni bajarish prinsipiga ko‘ra, raqamli filtrlar ikki sinflarga - rekursiv va norekursiv (oddiy) filtrlarga bo‘linadi. Qaralayotgan filtrlash turi filtrining y chiqish qiymatlari faqat filtrining X kirish qiymatlari orqali aniqlanishi va norekursivligi bilan tavsiflanadi. Chiqish y qiymatlari nafaqat x kirish qiymatlari orqali, balki mos chiqish qiymatlari orqali ham

aniqlanadigan filtrlar rekursiv filtrlar hisoblanadi. Eng oddiy chiziqli fazoviy filtrning chiqishi filtr niqobi bilan qoplangan lokal elementlarining o‘rtacha qiymati, filtrning o‘zi esa o‘rtachalashtirish yoki silliqlash filtri hisoblanadi. Tasvirlar elementlarining asl qiymatlarini filtr niqobi bo‘yicha o‘rtacha qiymatlari bilan almashtirish hisobiga yorqinlik o‘zgarishlarining kamayishiga erishiladi. Natijada bunday usulda quyidagi vazifalar bajariladi:

- yorqinlik qiymatlarida keskin sakrash bilan tavsiflanadigan shovqinlarni so‘ndirish;

- yetarli bo‘lmagan yorqinlik sathlari bilan raqamlashtirish yoki o‘zgartirishda yuzaga keladigan xato konturlarni tekislash;

- tasvirdagi “sezilarsiz” detallarni, ya’ni filtr niqobi o‘lchamlari bilan solishtirganda kichik piksellar to‘plamini so‘ndirish.

Bunday filtrlarni ishlashining keraksiz samarasi yorqinlik qiymatlarining keskin o‘zgarishlari bilan ham xarakterlanadigan foydali konturlarning defokuslanishi hisoblanadi.

Shunday qilib filtrlash oynasi qanchalik katta bo‘lsa, shovqinning o‘rtachalashtirilgan intensivligi shunchalik past bo‘ladi, ammo bunda tasvirning muhim detallarining sezilarli xiralashishi ham bo‘lib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гонсалес Р., Вудс Р. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2005. – 1072 с.

2. Дворкович А.В., Дворкович В.П. Цифровые видеоинформационные системы (теория и практика). – М.: Техносфера, 2012.

3. Джакониа В.Е. Телевидение. - М.:Горячая линия – Телеком, 2007. – 618 с.

4. Красильников Н.Н. Цифровая обработка изображений. - М.: Вузовская книга, 2001.-320 с.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI JIHOZLASH TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIIRISH

KAMOLOV ABDULLOH ABDURAZZOKOVICH
O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola favqulodda vaziyatlarda – yer qimirlashlari, suv toshqinlari va yong‘in sodir bo‘lganda, katta hududlarda tezkor insonlarni aniqlash, maydonni xaritalash orqali xavfsiz harakat yo‘nalishlarini uchuvchisiz uchadigan apparatlar yordamida aniqlash hamda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash orqali imkoniyatlarini oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о выявлении быстрых людей на больших территориях при чрезвычайных ситуациях – землетрясениях, наводнениях и пожарах, использовании дронов для определения безопасных маршрутов путем картирования местности, а также повышении возможностей дронов за счет оснащения их современными устройствами.

Abstract: This article is about identifying quick people in large areas in emergency situations - earthquakes, floods, and fires, using drones to determine safe routes by mapping the area, and increasing the capabilities of drones by equipping them with modern devices. considered.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyatlar, uchuvchisiz uchadigan apparat, texnologiya, texnik vosita, tabiiy holat, texnogen holat, avariya, kvadraskopter, termal kuzatuv kamera, **obyekt,** rekonstruksiya**, prognoz,** datchik, monitoring, DJI Matrice, MP130, 3D model, integratsiya.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, дрон, технология, техническое средство, естественное состояние, техногенное состояние, авария, квадрокоптер, тепловизионная камера, объект, реконструкция, прогноз, датчик, мониторинг, DJI Matrice, MP130, 3D модель, интеграция.

Keywords: emergency situations, drone, technology, technical tool, natural state, man-made state, accident, quadcopter, thermal surveillance camera, object, reconstruction, forecast, sensor, monitoring, DJI Matrice, MP130, 3D model, integration.

Dunyo bo‘ylab har yili favqulodda vaziyatlar natijasida minglab insonlar halok bo‘ladi. Afsuski favqulodda vaziyatlarda qarorlar qabul qilish va voqeadan keyin favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda samarali choralar ko‘rish uchun birinchi yordam ko‘rsatuvchilar hamda mahalliy fuqarolar voqeaning xususiyatlari va zarar darajasini aniqlashda ko‘pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek fuqarolarni favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda ogohlantirish va uchuvchisiz uchadigan apparatlarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash orqali imkoniyatlari ko‘lamini oshirish bilan hududlarning batafsil ko‘rinishini olish orqali zararlarni tezkor yechimini amalga oshirish samarali muqobil arzon yechimlardan biridir.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar orqali havodan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash natijasida olingan ma’lumotlar nafaqat qidiruv va qutqaruv faoliyatida balki favqulodda vaziyatlarda insonlarni ogohlantirish maqsadida ham keng foydalanish, obyektlarning tashqi xavfsizligini tekshirish doirasida ham katta imkoniyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Uchuvchisiz uchadigan apparatlar yordamida biz baxtsiz hodisani aniq tasvirlarini real vaqt rejimida ko‘rishimiz yoki jinoyat sodir bo‘lgan joyni suratga olish, eng qisqa vaqt ichida ma’lumotlarni to‘plash, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish operatsiyalarini rejalashtirish uchun zamonaviy xaritalar va 3D modellarni yaratishimiz, favqulodda vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishimiz, qidiruv va qidiruv paytida hamda boshqa turdagi amallarni bajarishda foydalanishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”[1] da favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish borasida ko‘rilayotgan choralar tizimi faoliyati samaradorligining tahlili, Respublika aholisi va xududlarini muhofaza qilish sohasida bir qator muammoli masalalar mavjud.

- Favqulodda vaziyatda professional qutqaruv otryadlari ma’muriy markazlari joylshgani, yani olis tumanlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ular sodir bo‘lganda qutqaruv otryadlarining jalb etilishida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirib, ularni faqat favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish ishlarigina jalb etish bilan cheklanadi.

- Hududlarda favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish, prognozlash, oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish masalalariga jalb etishi lozim bo‘lgan boshqaruv organlari, kuch va vositalarini muvofiqlashtiruvchi ta’sirchan mexanizmlar mavjud emas.

- Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatdan muhofava qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, kelgusida ushbu sohada ishlovchi professional kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi mavjud emas.

Respublikamizda oxirgi bir yil mobaynida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni quyidagi diagrammada ko‘rishimiz mumkin.



Sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning qiyosiy diagrammasi[2]

So‘nggi yillarda tabiiy ofatlarning katta hajmdagi zararlangan hududlarga ta’sirini tahlil qilish sun’iy yo‘ldosh platformalaridan yuqori aniqlikdagi optik tasvirlarni olish orqali amalga oshirilmoqda.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar operator orqali boshqariladi va olingan tasvirlarni tahlil qiladi. Uchish tezligining yuqoriligi, past balandliklarda uchish, turli burchaklardagi yuqori aniqlikdagi fotogrammalarni olish va turli xil kamera va sensor texnologiyalarini olib yurish imkoniyati favqulodda vaziyatlar chog‘ida operatorga qulay kuzatuvlarni amalga oshirishida katta imkoniyat yaratadi. Bu esa favqulodda vaziyat zararlarini minimallashtirishda o‘zining katta samarasini beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha afzalliklarga qaramay, uchuvchisiz uchadigan apparatlar ham bir qancha cheklovlarga ega. Noqulay ob-havo sharoitlarida (ayniqsa, jiddiy shamol sharoitlarida) uchish ko‘lami cheklanadi, yuqori temperaturali maydonlarda (yong‘in o‘choqlarida) uchuvchisiz uchadigan apparat jixozlari nosoz holatga kelishi mumkin.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar ikkita asosiy ko‘rinishga ega bo‘lib: qattiq qanotli va aylanuvchi qanotli tuzilishga ega bo‘lib, ikkalasi ham favqulodda vaziyatlarda ishlatilishi mumkin. Qattiq qanotli uchuvchisiz uchadigan apparatlar katta hududlarni qisqa vaqtda xaritalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Aylanuvchi qanotli tuzilishga ega bo‘lgan uchuvchisiz uchadigan apparatlar imkoniyatlari ko‘lami kengroq bo‘lib, qo‘shimcha texnik vositalar bilan jihozlash orqali imkoniyatlari yanada oshishi mumkin.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar bilan yong‘inni o‘chirishning birinchi tajribasi 2017-yilda Xitoyda qayd etilgan. U yerda DJI Matrice 210 ishlab chiqilgan va hozirgacha muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. Qurilma yong‘inlarni o‘chirish uchun ham, yong‘in shlanglarini kerakli balandlikka ko‘tarish va razvedka uchun ham ishlatilgan. Keyinchalik Nyu-Yorkda to‘rtta shahar yong‘inlari 4-toifadagi murakkablikdagi yong‘inlarni o‘chirish uchun uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanilgan. 2019-yil iyun oyida uchuvchisiz uchadigan apparatlar birinchi marta AQSh o‘rmon xizmati qutqaruv operatsiyasiga jalb qilindi[3].

Oxirgi yillarda bu yo‘nalishdagi imkoniyatlaridan keng foydalanayotgan davlatlar sifatida Ukraina, Hindiston, Janubiy Koreya, Finlandiya, Iordaniya, Shvetsiya, Tunis, Singapur kabi davlatlarni uchratishimiz mumkin. Ko‘p davlatlar bu apparatlardan har xil sohalarda

qo‘llash uchun kichik hajmdagi uchuvchisiz uchish apparatlarini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan bo‘lsa, AQSh va Isroilda jangovar uchuvchisiz uchadigan apparatlarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilgan[4].



DJI Matrice

Gaz yoki benzin quvurlari doimiy ravishda atmosferaga zararli va xavfli moddalarning chiqishi maxsus ishlab chiqilgan DJI Matric kvadraskopteri termal tasvir yordamida kuzatish mumkin, shuningdek, agar siz qochqinlar bo‘lsa, ular harorat nuqtasining tabiati bilan aniqlanishi mumkin. Va agar bu tashqi quvur bo‘lsa, uni yuqori aniqlikdagi kamera yordamida batafsil ko‘rish mumkin mumkin.



MP130 karnayi

MP130 juda uzoq masofadagi ovozni samarali ravishda kuchaytiradi, yo‘qolgan odamlarni o‘rmon bo‘ylab ochiq hududlarda tezda topish, favqulodda vaziyatlar vaqtida (suv toshqini) odamlarning xavfsiz harakat yo‘nalishini masofadan ovozli uzatishimiz mumkin. Tabiiy ofatlar to‘g‘risida an’anaviy ogohlantirish faqat ovozli serenlar yordamida amalga oshirilsa to‘liq bo‘lmagan qamrov muammosi mavjud. MP130 ovozni real vaqtda moboynida uzatishi mumkin, bu esa ko‘proq ogohlantirish ma’lumotlarini taqdim etadi va kattaroq diapazonni qamrab oladi.





Uchuvchisiz uchadigan apparat ishlash strukturasi

Asosiy funksiyalari

- 3D modelda obyektlarni kuzatish
- Har xil turdagi topshiriqlar – yo‘nalish nuqtalari, chiziqli, aylana, perimetr, hududni skanerlash
- Ovozli ogohlantirish rejimi mavjudligi
- Katta missiyalarni bajarishda batareyalarni almashtirish uchun marshrutni qismlarga bo‘lish
- Fotosuratlarni geolokatsiya qilish vositasi mavjudligi
- Suratga olish markazlarining xaritada joylashishini ko‘rsatish
- Korxona axborot tizimlari bilan integratsiya uchun taqsimlangan model
- Bitta missiya doirasida bir nechta uchuvchisiz uchadigan apparatlarni boshqarish[5]

Bunday uchuvchisiz uchadigan apparatlar yordamida tutun, yong‘in, xavfli muz va qor ko‘chkisi sharoitlari, daryolar sathining ko‘tarilishi va turli tabiiy yoki texnogen ofatlarni o‘z vaqtida aniqlash qutqaruv guruhlarini jabrlangan hududga tezda yetib borish imkonini beradi. Avvallari avariya zonasini aniqlash va favqulodda vaziyat hududini o‘rganish uchun ishlatilgan bo‘lsa, bu qutqaruv ishlarini murakkablashtirgan va kechiktirgan bo‘lsa, bugungi kunda ixcham yoki qayta texnik jihozlangan uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish zamonaviy ma’lumotlarni osongina olishga, xavfli suv omborlari va texnogen xavfli hudud holatini kuzatish va tahlil qilishga va odamlarni qidirishga yordam beradi. Tog‘ yoki o‘rmon hududida yo‘qolgan sayyohlarni topish, tabiiy ofatlar qurbonlarini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2017 yildagi PF-5066-son. “Qonunchilik milliy bazasi” www.lex.uz.
2. [2] https://fvv.uz/uz_lat/comparative
3. [3] Andrey Savelyev. www.skymec.ru

4. [4] Қодиров Т.Т. Терроризмга қарши курашда учувчисиз учиш аппаратларини қўллаш муаммо ва истиқболлари. Магистрлик диссертацияси, - 2014. -23 бет.
5. [5] Andrey Savelyev. www.skymec.ru

MUNDARIJA MUNDARIJA

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Kirish so‘zi **Рустамбаев М.Х.**	3
Коваленко А.Н. (Республики Беларусь) Применение тепловизоров в системах видеонаблюдения	5
Eshqobilov A.Y. Obyekt xavfsizligini ta’minlash masalalarida axborot texnologiyalarining o‘rni	12
Nishonov Sh.B. Elektron hujjat aylanish tizimlarida axborot xavfsizligi	17
Кузьмицкий А.М. (Республики Беларусь) «Применение моделирования в процессе оценки эффективности инженерно-технических средств охраны»	21
Кулдашев И.Х., Каримов М.Б. Место и роль видеодомофонной системы в обеспечение комплексной безопасности охраняемых объектов	28
Мекамбаев Б.А. О вопросах обеспечения безопасности информационных систем военных объектов	32
Катунцев В.Г. (Республики Казахстан) Защита периметра охраняемого объекта – комплексная задача	41
Чеботарёв А.Н., Нурмаханов М.Б. (Республики Казахстан) Интегрированные системы безопасности при оборудовании охраняемых объектов	48
Abdujamilov A.T., Abdigapirov A.A. Harbiy ta’limdagi innovatsiyalar	55
Karimov M.B. Периметриальная охрана особых объектов	61
Suleymanov A.A., Naimova M.Z. Mechanisms for ensuring and organizing public safety of the population and territories	65
Саламов С.Т. Божхона сервис хизматлари орқали божхона омборларининг хавфсизлигини таъминлаш истиқболлари	70
Imamaliyev A.T., Ro‘zimov O. Qo‘riqlash tizimlarida qo‘llaniladigan identifikatsiya vositalari	75

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Пен А.Ю. Управление безопасностью объекта повышением надежности контроля его пожароопасности	82
Носиров Ф.Ф., Акбарходжаев К.А., Охрана объектов с применением технических средств охраны	90
Мастанов Н.Т., Кулдашев И.Х. Техник қўриқлаш воситаларни таъмирлаш устахоналари – объектларни муҳофаза қилишда ишончли кафолати	94
Мастанов Н.Т., Кулдашев И.Х. Объектларни муҳофаза қилишда қўриқлашни техник воситаларни таъмирлаш ҳарбий устахоналари ишончлигини ошириш масалалари	101
Мавлянкариев Б.А. Жизнеспособност систем сигнализации охранной и пожарной безопасности объектов	108
Хатамов Б.Б. Анализ проблемных аспектов обеспечения требуемой надежности современных технических систем охраны	112
Murakayev I.I., Bozorov A.A. Videokuzatuv vositalari axborotlarining kadrlar yorqinligi taqsimotlarining o‘zgarishini aniqlash usullari tahlili	117
Глухов Е.В. Аналитические системы видеонаблюдения в обеспечении безопасности на объекте	122
Мавлянкариев Б.А. Развитие инновационного потенциала исследователя в управлении системными задачами обеспечения безопасности объектов	128
Sultanbayev A.M. Qo‘riqlashning texnik vositalari obyektlarni muhofaza qilishning ishonchli kafolati	136
Jiyenbayev B.O. Pandemiya paytida ekologik auditni amalga oshirishni huquqiy tartibga solishning ahamiyati	140
Bozorov A.A., Tashmanov Ye.B. Videokuzatuv vositalari axborotlarining kadrlar yorqinligi taqsimotlarining o‘zgarishini aniqlash usulining maqbul yorqinlik qiymatni tanlash orqali samaradorligini oshirish	145

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Юлдашев О.Р, Қурбонов А.Ж. «Последствия и причины взрывов пыли и газа в угольных шахтах, научные основы ликвидации»	153
Маджидов Ш.Х. Системы управления компьютерными классами	161
Yuldashev O.R., Norqulov A.Ch. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariyalarni bartaraf etishda qutqaruvchilarning xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslari. (kimyoviy xavfli obyekt) misolida	174
Dusqobilov M.Q. Obyektlarda qo‘riqlashning texnik vositalari tizimini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajriba	181
Юлдашев О.Р., Абдиев И.М. Меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизлик чораларининг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини баҳолаш методикаси	189
Dusqobilov M.Q. Qo‘riqlashning texnik vositalari, ularning jamoat xavfsizligi va qo‘riqlash ishonchligiga ta’siri	198
Muminova M.A. “Raqamli shahar” muhitini yaratishdagi muammo va yechimlar	204
Shaymatov O.A. Qo‘riqlanuvchi obyektlar videokuzatuv vositalari videoaxborotlarini tarmoqda uzatish usullari	208
Бардиев У.А. Роль и значение квантовой технологии в обеспечении безопасности информации	214
Yuldashev S.E., Jalolov A.A. Qo‘riqlash faoliyatida qo‘riqlash – yong‘in tizmlaridan foydalanishning asosiy va xavfsizlik tizimini takomillashtirish va ishlab chiqish	219
Shaymatov O.A. Obyektlardagi xavfsizlikni ta’minlashda videokuzatuv tizimlarining roli	225
Ibragimov X.B. Qo‘riqlanayotgan obyektlarda videokuzatuv tizimlari dasturiy ta’minotining o‘rni	230

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Norbayev V.Sh. Uchuvchisiz uchish apparatlari haqida umumiy ma’lumot va tushunchalar	237
Ibragimov X.B. Milliy gvardiya obyektlarida xavfsizlikni ta’minlashda qo‘riqlashning videokuzatuv vositalari dolzarbligi	241
Norbayev V.Sh. Hozirgi kundagi xarbiy to‘qnashuvlarda qo‘lanilayotgan uchuvchisiz uchish apparatlarining imkoniyatlari	246
Xamidov G‘.S. Tezkor-qidiruv tadbirlarida qidiruv itlaridan foydalanish	252
Axmedov D.A., Bekmurodov I.R. Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida transport vositalarining harakat tezligini nazorat qilish radarlarini qo‘llash istiqbollari	257
Xamidov G‘.S. Obyektlarni perimetr bo‘yicha qo‘riqlashida qo‘llaniladigan texnik vositalarining tahlili	263
Мухамедов Ш.Н., Торениязов М.П. Применение химических соединений с использованием графена для датчиков обнаружения аварийно-химически опасных веществ	270
Parsiyev S.S., Abdullayev Sh.U. Qo‘riqlash va video kuzatish tizimlaridagi tolali optik texnologiyalari	276
Халилова П.Ю., Ашрапов Ш.И. Объектлар ҳудудий хавфсизликни таъминлаш тизимида ташвиш-чақириқли сигнализация тизимлари ҳолатини бошқариш усуллари	282
Очилов И.Н., Парсиев С.С. Махсус мақсадлардаги қўриқлаш тизимларининг математик модели	292
Очилов И.Н. Қўриқлашнинг телекоммуникация воситалари самарадорлигини баҳолаш модели	298
Парсиев С.С., Очилов И.Н. Симсиз ташвиш-чақириқли сигнализация воситаси қурилмасини ишлаб чиқиш	305

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Очилов И.Н., Рейпназаров М.Б. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармаси “Қўриқлаш сервис” ДУК томонидан қўриқлашни техник воситаларининг эксплуатация қилиш жараёнида устахоналар фаолиятининг таҳлили	311
Reypnazarov M.B. “Qo‘riqlash servis” davlat unitar korxonasi ustaxonasi xizmatini tashkillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari	318
Saipov B.B. O‘ta muhim va toifalangan obyektlarni qo‘riqlashning umumiy tavsiflari	324
Saipov B.B. Videokuzatuv tizimlarini yaratishda qo‘yiladigan texnik talablar	332
Очилов И.Н., Ахмадхонов А.А. Электрошоковые устройства	338
Achilov F.B., Shukurov Sh.A., Safayev S.Q. Объектлар хавфсизлигини таъминлашда роботлардан фойдаланишнинг афзалликлари ва ривожланиш тенденциялари	349
Ахмадхонов А.А., Очилов И.Н. Характеристики электрошоковые устройства	353
Хурсандов Э.Д. Особенности фильтраций изображений в системе видеоинформации	365
Djabbarov U.A. Obyektlarni qo‘riqlash mustahkamligini oshirishda texnik qo‘riqlash vositalarining o‘rni	368
Ахмедов Д.Х. Средства охраны периметра	375
Axmadxonov A.A. O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida elektroshok qurilmalaridan foydalanish tartibi	383
Холиков Ш.А. Киберугрозы, защита личных данных	389

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Нематиллаев Ш.Қ. Ҳарбий бўлинмаларини қўриқлаш фаолиятини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари	396
Musayev A.I. Kiberxavfsizlik va tizimlar boshqaruvi xavfsizligi	401
Suvonov Sh.N., Bozorov A.A. Favqulodda vaziyatlarda obyektlar xavfsizligini RFID texnologiyasi orqali ta’minlashning ahamiyati	406
Yusupov U.A. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni	413
Kamilov M.A., Abulxayev N.M. Tarmoqdagi zaifliklarni oldini olishda dunyo tajribasi	418
Saidboyev B.Dj. Aqlli shaharda jamoat xavfsizligini ta’minlashda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish	425
Xikmatov S.S. Harbiy shaharcha va obyektlarni mavjud qo‘riqlash va mudofaa qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash va ular bo‘yicha tavsiyalar	441
Shukurov Sh.A. Qo‘riqlanadigan obyektlar xavfsizligini avtonom dronlarni qo‘llash orqali takomillashtirish	452
Xursandov E.D., Tashmanov Ye.B. Texnik qo‘riqlash videokuzatuv vositalari axborotlaridagi shovqinlarni filtrlash tahlili	457
Shukurov Sh.A. Adaptiv uchuvchisiz uchish apparatlarining obyektlarni qo‘riqlash sohasida qo‘llanilishining istiqbollari	460
Tashmanov Ye.B. Qo‘riqlovchi videokuzatuv tizimlarida mijoz-server arxitekturasining o‘ziga xos xususiyatlari	465
Shukurov Sh.A. Uchuvchisiz uchish apparatlari va ulardan foydalanish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi	470

MAQOLA MUALLIFI VA MAQOLA NOMI	BET
Tashmanov Ye.B. Yo‘lovchi transportida xavfsizlikni ta’minlashda axborot texnologiyalarining ahamiyati	477
Kamolov A.A. Favqulodda vaziyatlarda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish va ularni jihozlash texnologiyasini rivojlantiirish	481
Mundarija	488

QO‘RIQLASHNING TEXNIK VOSITALARI – OBYEKTLARNI MUHOFAZA QILISHNING ISHONCHLI KAFOLATI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi
(plenar va online) materiallar to‘plami

2023 yil 23-noyabr

Mas’ul muharrir:
Achilov F.B.

Tahrir hay’ati:
Kuldashev I.X.
Xursandov E.D.
Pen A.Yu.
Ochilov I.N.
Mastanov N.T.
Bozorov A.A.
Shukurov Sh.A.

Bosishga ruxsat etildi: 22.11.2023. Buyurtma:№ 15 Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi 24 sh.b.t. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi